




Ilk qadam



Салыны Фармацевтический факультет
304 курс тарабадай
Зайнисудинов Мухаммадида
Радж.





Ilk qadam

Almanax



Sam DTI
axborot-resurs markazi
316192

TOSHKENT
«TURON-IQBOL»
2020

UO'K 821.512.133-1

KBK 84(5Ў)

Б 19

Ilk qadam [Matn]: she'rlar / tuzuvchi Guljahon Mardon qizi. — Toshkent: «TURON-IQBOL», 2020. — 160 b.

UO'K 821.512.133-1

KBK 84(5Ў)

Б 19

Ushbu almanax yosh ijodkorlarning ota-onalari va O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi Samargand viloyat Kengashi hamkorligida chop etildi.

ISBN 978-9943-14-702-7

® «TURON-IQBOL», 2020.

YOSH IJODKORLARGA

Xalqning ma'naviy ruhini, aynan, ijodkorlar saviyasi belgilaydi. Shu sabab bugun kelajak adabiy muhiti uchun iste'dodli yoshlarni izlash, ular bilan ishslash va ijodiy muhit yaratish har qachongidan kengroq ko'lamma yo'lga qo'yilmoqda. Yoshlar uchun ko'rik-tanlovlarning o'tkazib turilishi, bayozlarning chop etilishi ijodiy rag'bat beradi.

Samarqand Yosh ijodkorlar kengashi tomonidan chop etilayotgan mazkur to'plam ham shunday maqsadlarga xizmat qiladi...

To'plamdagi she'rlar adabiy hodisa bo'lib ulgurmagan bo'lsa-da beg'ubor, she'rsevar ko'ngillarning hayratlari, sodda tuyumlaridir. Ijodi kiritilganlar — she'riyat atalmish muhtasham dunyoning eshidiga turgan havasmandlar, shu dunyo go'zalligiga oshiq bo'lib she'rni endi taniy boshlaganlardir.

Namunalarda jimlikning ovozini tinglay olayotgan, o'zlikni qidirish harakati bo'lsa-da oydinlashayotgan did ko'zga tashnadi. Ular uchun she'riyat oldida turgan ulkan marra. Umidjon Mamatov yozganidek: "She'riyat degan tog' yastanib yotadi". Mohiyat rivoji shu tog'ni zabit etishga bo'lgan ishtiyoqda. Jamlangan she'rlar odatiy shakl, qofiya va samimiy tashbehlari asosiga qurilgan. Masalan, Ruxshona Ismoilovada "hayotim zulmatdir, bardoshim chiroq" degan o'rinli tashbeh uchraydi. Yoki Odiljon Rashidovda "Tor ko'chalik sinfdosh, tor ko'changdek bu qalbing" degan tiniq tashbeh bor. Umuman olganda, misralar tuzilishi darajasi ancha mukammal.

She'r aslida dardning farzandi ekanligi ta'kidlanadi. U azal-dan inson dardlarini o'ziga singdirib kelgan. Kiritilgan ijodkorlarning hammasi ham bu haqiqatni anglamasligi, yoki uni tushunib ulgurmagan bo'lishi mumkin. Biroq, sirtqi bayonda bo'lsa ham uchraydi, ya'ni she'r dardni ifodalashning vositasi ekanligi ularga ayon. Gulshoda Bekqulovada shunday satrlar bor:

*Yashayapman dard ummonida,
Baxt atalmish tomchi qidirib.*

Rivoyatlarda keltirilishicha, inson loydan yaratilganidan so'ng ustiga qirq kun yomg'ir yog'diriladi. Shundan o'ttiz to'qqiz kuni-da g'am yomg'iri, bir kunida xurramlik yomg'iri yog'gan ekan. Hayot aslida g'amdan iborat. Faqat g'ussaga ham baxt ko'ylagi-ni kiydirib qabul qilganimiz uchun baxtni his qilamiz. Yulduz opa Abdusamad qizining quyidagi misralari shunga ishora:

*Olloh mening loyimni g'amdan olib yaratdi,
Suyib ichar oshimni ko'zyoshimdan yaratdi.*

Demak, she'rday "zo'r ish"ga boshini qo'shish ishtiyoqidagi bu havasmandlarda dard yukiga mas'uliyat bor deb xulosa qilsak bo'ladi.

To'plamga kiritilganlarning aksariyati maktab yoshidagi ijodkorlar bo'lib, hammasida deyarli bir xil jarayon — didaktika ruhi. Bu xususiyat endigina qalam olganlarda bo'lishi tabiiy. Chunki o'quvchilar bolalar adabiyotining didaktik ruhida tarbiyalanadi. O'qigan she'rlari ezgulikka chorlov nuqtayi nazaridan yozilgan. Shu sabab tuzgan jumlalari ham suv ichgan manbalari-ga tortadi. Masalan:

*Nelarki bo'lмаганjahonda, inon,
Dunyo mashaqqatin yengin, sen, inson.*

Yoki

*Dunyoda yaxshidan yomonlar ko'pdir,
Yaxshilarning umri mangu bo'lar der,*

kabilar.

Bular uzoq yo'llarning ibtidosi. Ijodkorlar hali gulqaychiga muhtoj nihollar. Ular parvarishi beriladigan yo'nalishga bog'liq. So'z jonkuyarlarini tarbiyalay olsak, adabiyot taraqqiyotiga hissa qo'shamiz, aksincha bo'lganida, badiiyatni yutib ketayotgan nazmbozlik davron suradi.

Bugunimizning muazzam shoirlari ham bayozlardagi kichik namunalari bilan katta adabiy maydonga kirib kelgan. Yoshlik

bilan vaqt to'xtovsiz musobaqada. Unga insonning baxti, nomi bilan maqomi tikilgan deyishadi. Vaqtadan o'zish abadiylik sari yo'l demakdir. Yosh iste'dodlar toleyi shu musobaqadagi g'oliblikda.

Katta daryolar kichik jilg'alar bilan to'lganidek, adabiyotimizning umumiy pafosida, ertangi istiqbolida yosh ijodkorlarining o'rni muhim. Umidimiz, havaskorlarimizga chin shoirlilik saodati nasib qilsin.

**O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Samarqand viloyat bo'limi rahbari
T. Tugalov**

ISTE'DODLI YOSHLAR KO'PAYAYOTGANIDAN QUVONAMAN

Ijod... Bu ulug‘ “ish” qo‘liga qalam olib, ushbu sirli oshiyon bilan sirlashmoqni istagan yurakni hayot zavqidan baramand bo‘lishga, yashamoq shavqini ko‘ngil tug‘yonlari ila go‘zallashtirib, satrlarga singdirmoqlikka chorlaydi. Eng muhim, ulug‘vorlik, intiluvchanlik, izlanuvchanlikka undaydi shuurni.

Darvoqe, so‘z zalvori og‘ir, uning yukini faqat yuragi yoniq, tun-u kun “so‘z ichadigan, so‘z kechadigan” ko‘ngilgina ko‘tara oladi. Va shu asnoda ijod mashaqqatini zimmasiga oladi. Ayniqsa, yoshlар ijodini kuzatar ekanman, yurtimizda ana shu zalvorni mardonavor ko‘tarib, izlanib, “ijod maydoni”ga dadil kirib kelayotganlari ko‘pligidan quvonaman. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, davlatimiz rahbarining yoshlар iqtidorini to‘la namoyish eta olishlariga qaratilgan beshta tashabbusning taklif etilishi ham ayni muddao bo‘ldi. Ana shu yo‘nalishning biri san’atning boshqa turlari qatorida adabiyot, ijod sohasida iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgani bu sohada yangi qobiliyatlarni kashf etdi.

Samarqand viloyati “Yosh ijodkorlar kengashi”, viloyatning Past Darg‘om tumani “Past Darg‘om haqiqati” gazetasi qoshida tashkil etilgan “ Iste’dod”, tuman “Barkamol avlod” bolalar maktabi qoshida faoliyat yuritayotgan “ Yosh jurnalist va notiq” to‘garagi a’zolaridan Saydalixon Yoqubjonov, Abbas Shodmonqulov, Ilhom Narzullayev, Muhiddin Zayniddinov, Marjona Qobilova, Odiljon Rashidov, Nilufar Norqobilova, Nurxon Xidirova, Oydin Toshquvvatova, Dildora Yo‘ldosheva, Rahmatilla Murodqulov, Yulduz Abdusamat qizi kabi ijod sir-asrorlarini yaxshishiga o‘zlashtirib olgan ijodkorlarning mazmunli, his-tuyg‘ulari go‘zal tarzda ifoda etilgan satrlarini o‘qir ekansan, beixtiyor adabiyot, she’riyatning kelajagi mana shunday so‘z egalari bilan porloq bo‘lishiga ishonasan.

Yuqorida nomlari zikr etilgan yosh ijodkorlarning she'rlari, badihalari, fikr-mulohazalari ushbu "Ilk qadam" deb atalmish adabiy-badiiy almanaxdan joy olayapti. Ishonamizki, ilk qadamlardan ulug'lik ildiz otib, buyuklikka iz soladi. Ushbu kitob ehtimol kamchiliklardan xoli emas. Ammo yurt dovrug'ini jahon adabiyoti maydonlariga olib chiquvchi buyuklar ham yosh ijodkorlar orasidan chiqadi.

Guljalon MARDON qizi, shoira.



Shodmonqulov Abbos Asad o‘g‘li 2004-yil 19-fevralda Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumanida tavallud topgan. She‘r va maqolalari o‘ttizdan ortiq gazeta-jurnallarda chop etilgan. “Bahor qaytdi, do‘sstarim” she‘riy to‘plami muallifi, qator bayozlarga she‘rlari kiritilgan. Ayni damda O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Samarqand viloyat Kengashi qoshida faoliyat yuritayotgan Samarqand yosh ijodkorlar Kengashi raisi sifatida faoliyat yuritmoqda

OJIZLIK

O‘z-o‘zimni qilgim kelmas fosh,
Sen buzasan qalb darvozasin
Ozod bo‘lar bekingan ko‘z yosh,
Eshityapsanmi yuraklar sasin?!

Jon kuydirib gapirmoq nedir,
Tosh qalblarga qo‘sishq aytmoqdan.
“Sevma” deya aytib bo‘larmi,
Luqma o‘tmas hatto tomoqdan.

Istiqloling o‘ylayverar dil,
Ixtiyorim chekinar o‘zdan.
Baxt izlamam, baxtim o‘zing bil,
Qarzdorman bir umr kuzdan...

O‘z-o‘zimni qilgim kelmas fosh,
Faqt senga aytarman barin.
Va sen bilan chiqadi quyosh,
Yurak eshtar yurakning dardin.

HAYOT

Hayot yaxshiga ham, yomonga ham bir,
Birin qalbi pokdir, birin ko'ngli kir,
Dunyoda yaxshidan yomonlar ko'pdir.
Aytgan gapi dilga tegar misli dard,
Sen ulardan baxtli yashamog'ing shart.

Bir og'iz yaxshi gap eshitmoq mahol
Yegan luqmang xarom, uniki halol
Yordam so'raganda keladi malol
Mardning hammasi ham bo'lavermas mard,
Sen ulardan baxtli yashamog'ing shart.

Mayli azal dunyo yaralgan shunday
Ular hayotini yashar uyquday,
Yashash kerak iymon nurin so'ndirmay.
Ko'ngil oynasiga yuqtirmayin gard
Sen ulardan baxtli yashamog'ing shart!

* * *

Charchadim, yelkamda bir yuk bor
Ta'na va malomat ortadi.
O'zlikka bermayin e'tibor,
Yurakda armonlar yotadi.

Boqaman aksimga, aksinchcha,
Qaragim kelmaydi bir on ham.
Goh mammun bo'laman vaqtinchcha,
Topmayman o'zimni o'zimdan...

BAXTIM

Munkib ketdi yo'llarda baxtim
Yoki dardlar ketdimi arib,
Menchi, hamon daydib yuribman
G'arib...

Hamma ketdi ortga qayrilmay,
Hamma ketdi indamay nari
Axir bari yaxshi ediku
Ilgari...

ONA

Tin olmagan dilbandlari-chun
Tushlik tayyor, sarishta xona.
Tong otgandan botgunicha kun
O'zin g'amin yemagan Ona.

Injqligin kim ko'taradi,
Kim boshini silaydi yana.
Umidlarin, berib qo'rini
Farzandim deb o'stirgan Ona.

Bugun bari, bari menda bor,
Hayotimchi misli shohona.
Sizsiz, sizning duoingizsiz
G'arib, miskin insonman Ona!

* * *

Ne qilasan, o'zga g'amin yeb inson,
Kuymas o'zga tikon kirsa tanangga,
Kimga qilsam deb o'ylama bu oson
Yaxshilikni onangga qil, onangga!

Yoqubjonov Sayidalixon Umidjon o‘g‘li 1996-yil 26-mayda Farg‘ona viloyati Qo‘shtepa (Oxunboboyev) tumanida tug‘ilgan. 2002-yil sentyabr oyida Farg‘ona viloyati Qo‘shtepa tumani Xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 23-umumiyl o‘rta ta’lim maktabini bitirib, Farg‘ona Soliq Kollejini tamomlagan. Hozirda Ichki ishlar vazirligi Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlash qo‘sishnlari Samarqand alohida qo‘riqlash bataloni 7252-sonli harbiy qismida shartnoma assosidagi harbiy xizmatni o‘tab kelmoqda. Samarqand yosh ijodkorlar Kengashi raisi o‘rinbosari.



HARBIYLAR

Dono o‘zbeklarga hech kim yetolmas,
Harbiylar xalqidan boshqasin demas,
O‘zbek o‘ziga bekdir deganlari rost,
Bunday kuchli yurtni hech kim yengolmas!

Vatan tinchligini saqlaymiz bizlar,
Xalqning ishonchini oqlaymiz bizlar,
Postlarda sergakmiz yurt qo‘riqchilar,
Xizmatda hamisha Qurolli kuchlar!

Lochinmiz, Qalqonmiz, bor yana Burgut,
Chegara qo‘sini bor, chegaramiz but.
Davlat xavfsizlikmiz, ham Mudofaamiz,
Har qanday kuchlarni bizlar yengamiz!

DO'ST

Dunyoga kelib men ko'p xato qildim,
Gohida yig'ladim, gohida kuldim.
Yaxshilik qilganni qadrin bilmadim,
Do'st deb yurganlarning makrin bildim.

Ko'p ekan atrofda ayyor, hiylakor,
Ular meni qildi tuzoqqa duchor.
Ollohdan so'rayman takror va takror,
Yo'limda bo'lgin deb o'zing madadkor.

Yaxshi insonlarga ishing tushsa gar,
Qo'lidan kelgancha yordamin berar.
Qulog solsang so'ziga topasan hikmat,
Hamisha yaxshilik qilar beminnat.

Yoningda turadi har qanday kuning,
Nurlarga to'ladi qorong'u ko'ngling.
Bir tekis bo'ladi baland-u pasting,
Gar seni yoningda tursa chin do'sting.

ONAJON

Onajon, bilaman ko'zingizda yosh.
Sog'inch azoblari qiynaydi sizni.
Men ham sog'inaman berolmay bardosh,
Nurli yuzingiz-u ko'zlarizingizni.

Shodon ko'zingizgan hech oqmasin yosh,
Hajlarga boramiz omon bo'lsa bosh.
Ollohdan so'rayman hamisha sizga,
Chiroli umrlar va eng ulug' yosh.

Hadeb yig'lavermang tining Onajon,
Dam-hordiq neligin biling Onajon.
Sog'indim Samarqandga keling Onajon,
Hurmat ila o'g'lingiz Sayid Alixon.

OTAM

G'am kelganda yashirgan orim Otam,
Ilymonimni oshirgan, borim Otam.
Mehnatkashim, zahmatkash tog'im Otam,
Mehribonim, duogo'y bog'im Otam.

Siz meni suyanchim, tayanchim Otam,
Siz borsiz yo'limda dushmanlarim kam.
Men uchun qayg'urgan, men uchun kuygan,
Ishongan insonim Qiblagoh-Otam.

Dard kelib qiynalib qolgan bir chog'im,
Har ishda hamrohim suyangan tog'im.
Yurgan yo'llarida o'zing bo'l panoh,
Otamni, Onamni asragin Olloh.

DO'SТИМГА

Do'stligimiz doim abadiy bo'lsin,
Ham bizni ko'rganlar hayratda qolsin.
Mehrimiz shunchalar qalin bo'lsinki,
Va bir-birimizdan ko'nglimiz to'lsin.

Do'stlikdan azizroq yana nima bor,
Ollohdan so'rayman hech qilmasin xor.
Yaxshilik qilishdan charchab qolmaylik,
Shunda yovuz niyat hech qilmaydi kor.

Senga bir gap aytay do'stim sol qulqoq,
Ba'zi soxta do'stdan dushman yaxshiroq.
Ikki yuzli do'stdan yurgin sen yiroq,
Chin do'st qalbingdagi yoqilgan chiroq.

Do'stlikning qadriga doim yetib yur,
Do'stingla ishonchning obod qasrin qur.
Yoshlikda do'st bilan yoshlik davrin sur,
Chin do'sting bor ekan ko'ksing kerib tur.

Ey do'stim sen uchun jonimdir fido,
Olloh ikkimizni qilmasin judo.
Chin dildan so'rayman bir o'tli nido,
Senday do'stlarni ko'p yaratsin Xudo.

* * *

Yo'llarimni hamon oydek yoritgan,
Sizsiz meni duo bilan boyitgan.
Qayda bo'lsam kelishimni zor kutgan,
Buvijonim sizni juda sog'indim.

O'rningiz bilinar bizlarga hamon,
Ko'proq tushlarimga kiring buvijon,
Endi topolmaymiz sizdayin inson,
Buvijonim sizni juda sog'indim.

Ayting qaydan izlay qaylardan topay,
Nurli yuzingizdan bir bora o'pay,
Endi sirlarimni kimlarga aytay,
Buvijonim sizni juda sog'indim.

Olloh joyingizni jannatdan qilsin,
Yotgan joylaringiz nurlarga to'lsin,
Endi baxtimizga bobom sog' bo'lsin,
Buvijonim sizni juda sog'indim..!

HAYOT

Hayot sinovlari og‘ir, sinoat
Unda g‘am-tashvishlar birga kelarkan.
Ishongan insoning qilsa xiyonat,
Sen uchun bu dunyo torlik qilarkan.

Dushmaning ko‘rsatar senga xato yo‘l,
Botqoqqa botsang gar u cho‘zmaydi qo‘l.
Hatto yaxshilikni ko‘rmaydi ravo,
Bundayin nokaslar bo‘lar bedavo.

Past-baland yo‘l ila qiynaydi hayot,
Ey do‘stim sen bundan bo‘lgin ehtiyyot.
Uf tortma, ho‘rsinma tashvish kelganda,
Barchasin unutgin xursand yurgin shod.

GULIM

Yonimda bo‘lsayding hozir shu onda,
Bag‘rimga bosardim mahkam quchoqlab,
Ko‘rgim kelaverar sog‘inch yomonda,
Bir kelib ketsayding ko‘ngilni chog‘lab.

Sog‘inib kunlarim o‘tmoqda mana,
Ko‘zlarim yo‘lingda mushtoq qarayman,
Bugun ham tushimga kiribsan yana,
Yor ber deb Ollohdan seni so‘rayman.

Qancha azob bo‘lsa chidaymiz gulim,
Olloho ni yo‘lida birga yuramiz,
Xavotir olmagin mendan sevgilim.
Vaqt o‘tar lek oxir bo‘lamiz...

YURTIM O'G'LONLARI

Yurtimning sharaflı polvonlari bor,
Yengilmas bahodir o'g'londari bor,
Ko'kka qo'lin cho'zsa oyni uzguday,
Alp qomat, zabardast javlonlari bor.

Cho'qqini ko'zlaydi, intilar doim,
Ularga yor bo'lar o'zi Xudoyim,
Suyukli Vatani va xalqi uchun,
Jonini ayamay kurashar doim.

Vatanin sha'nini saqlaydi ular,
O'zbegim nomini oqlaydi ular,
Yurganda boshini baland ko'tarib,
Vatanin bayrog'in ko'klarga tutar.

Matonat jasorat so'nggi g'alaba,
Ishonchni oshirar shior yanada,
Sizga omad tilab to'ladi hislar,
Bor bo'ling doimo jasur harbiylar!

ILTIVO

Yaratganim kechir, yo Olloh,
Bilib-bilmay qildim men gunoh.
G‘iybat qildim, yolg‘on so‘zladim,
Kimligimni unutdim nogoh.


Qo‘llarimga olmadim Qur‘on,
Keltirmadim kalima, iymon.
Oxiratga bo‘m-bo‘shdir hamyon,
Haq oldida ahvolim yomon.

Chora izlab har yon yelaman,
Men bunchalar yomon bolaman.
Taqvo qilib bugundan men ham,
E’tiqodi butun bo‘laman.

Sajda qilay, olayin bilim,
Yuvay qilgan gunohlarimni,
Tavba qildim kechirgin Robbim,
Qabul qilingan bu ohlarimni.

Jonim olib qo‘yma bexosdan,
Farzlarimni ado etmasdan,
Huzuringga bora olmayman,
Ota-onam rozi qilmasdan.

Jahidam



YURTIM O'G'LONLARI

Yurtimning sharaflı polvonları bor,
Yengilmas bahodir o'g'loni bor,
Ko'kka qo'lin cho'zsa oyni uzguday,
Alp qomat, zabardast javlonları bor.

Cho'qqini ko'zlaydi, intilar doim,
Ularga yor bo'lar o'zi Xudoyim,
Suyukli Vatani va xalqi uchun,
Jonini ayamay kurashar doim.

Vatanin sha'nini saqlaydi ular,
O'zbegin nomini oqlaydi ular,
Yurganda boshini baland ko'tarib,
Vatanin bayrog'in ko'klarga tutar.

Matonat jasorat so'nggi g'alaba,
Ishonchni oshirar shior yanada,
Sizga omad tilab to'ladi hislar,
Bor bo'ling doimo jasur harbiylar!

ILTIVO


Yaratganim kechir, yo Olloh,
Bilib-bilmay qildim men gunoh.
G'iybat qildim, yolg'on so'zladim,
Kimligimni unutdim nogoh.

Qo'llarimga olmadim Qur'on,
Keltirmadim kalima, iymon.
Oxiratga bo'm-bo'shdir hamyon,
Haq oldida ahvolim yomon.

Chora izlab har yon yelaman,
Men bunchalar yomon bolaman.
Taqvo qilib bugundan men ham,
E'tiqodi butun bo'laman.

Sajda qilay, olayin bilim,
Yuvay qilgan gunohlarimni,
Tavba qildim kechirgin Robbim,
Qabul qilingan bu ohlarimni.

Jonim olib qo'yma bexosdan,
Farzlarimni ado etmasdan,
Huzuringga bora olmayman,
Ota-onam rozi qilmasdan.





Nida Muhammed (Xusnidaxon Muhammadjonova) 2000-yil Farg'ona viloyatida tavallud topgan. Ko'plab tanlovlari g'olibasi va loyihalar ishtirokchisi. Hozirda Kipr Respublikasidagi Final International University talabasi.

JANNATI ZAMIN

Butun dunyo ulug'laydigan,
Ajoddlari buyugim o'zing.
"Bolam, bolam" —deb yashaydigan,
Mehnat nomin suyguvchi o'zing.

Buyuk Temur, Navoiy nasli,
Madaniyat uyi o'zingsan.
Ohunjonlar torini chertgan,
San'atkorlar kuyi o'zingsan.

Bolajonlar kulgularida,
Buvijonim kalomida sen.
Tong quyoshin uyg'otadigan,
Kelinlarning salomida sen.

O'zing onam, o'zing chin do'stim,
Seni deya urar yuragim.
Zamindagi yagona jannat,
Tanho diyor — mening Vatanim!

* * *

O'n ikkinchi oyning o'n ikki kuni,
Menden xafa eding arazlaganding.
O'n ikki yulduzlar porlagan osmon
Sendan xafa, deding arazchi eding.

O'n ikki yoshimda senga bog'landim,
Nega kelmay qo'yding sog'inib ketdim.
Birga katta bo'lib uylg'aygan edik,
Sensiz yo'qligimni tushunib yetdim.

Kechirgin, kechirgin, kechira qolgin,
Kechirim so'radim o'n ikki marta.
Bugun o'n birinchi mayli roziman
Ertaga kechir — o'n ikkinchi martda.

Ey, nozik didligim, parijonginam,
To'g'ri senga har kim har qachon yoqmas.
Arazlasang mayli, arz qilsang mayli,
O'n ikkinchi qovurg'a kabi
Meni yetim qoldirmasang bas!

QAYTISH

Ko'k yuzin tark etar qora pardasi,
Zaminni yorug'lik — tong qoplar asta.
Men esa yo'l oldim ona qishloqqa
Ketma, qol, deyapti yuragim osti.

Men na qilay, ketish kerak ketish...
Ichimdag'i hislarimni qaydan bilay?
Erka qizin kutayapti Farg'onajon,
Ayting axir nima qilay, nima qilay?!

Siz qolasiz, men ketaman huuv uzoqqa,
Bu qonunga ko'ning axir jon og'ajon.
Yo'lga chiqib ketayapman mana hozir
Axir meni intiq kutar Farg'onajon.

* * *

Ko‘zlarimni beg‘ubor derding
Qulog‘imga yoqardi bu sas.
Xilvatomni yoritgan nursan,
Endi qonim beishq aylanmas.

Bilsayding hislarim tarkibi —
Tongi shudring tushgan havodek.
Sog‘inch sahrosida kutyapman
Atoga intizor Havvodek.

Ruhimni tark etmas xayoling
Ko‘zlarim nigohing izlaydi.
Barmog‘ingga tekkan shabada
Zulfimni erkalab silaydi.

Ko‘zlarimni porloq der eding
Va o‘ziga chorlaganini.
Bilmaysan-ki shu ko‘zlar
Seni
Ko‘rgani-chun porlaganini!

* * *

Uyqusizlik bilan bezangan kecha,
Sokin tun kuyini chalar erinmay.
Qo‘limda bir parcha qog‘oz g‘ijimi,
Maktubim tugaydi hali yozilmay.
G‘urur — qora ot...
Izhorim tugamas, xo‘rsinar oy ham.
Sevgi — oq tulpor!
Xayolchan bu ko‘nglim ishi ishq o‘yi.
O‘ylarim barchasi chalkashar —
Go‘dakning bosgan ilk qadami kabi.

Vujudim parchasi yo'qolgan,
Yomg'irdan berkingan quyoshi kabi.
Nomamni yozaman oxiri yo'qdek.
Izhorlar tugamas! Yozaveraman,
Yozganlarim esa og'iroyoqdek...
Uyqusizlik bilan bezangan kecha,
Sokin tun o'z kuyin chalar erinmay.
Qo'lda qog'oz g'ijimi, men esa
SENI sog'inaman sira erinmay!...

KATTA YO'L...

Katta yo'l. Katta ko'cha,
Shovqinli kun. Sershovqin tun.
Zulmat-la yorug'lik almashgan kecha,
Ishqsiz qalblar qarini qoplagan tutun.

Shum taqdir. Shu tahqir "Hayot o'yni"da,
Ruhimni maydalab... Maydalab so'ydim.
Bu hissiz shaharning ulkan qo'ynida,
Ishq to'la ko'nglimni yo'qotib qo'ydim,
Ko'ngil to'la ishqni yo'qotib qo'ydim.

* * *

Uzun kunlar. Uzun tunlar.
Oxiri yo'q uzun yo'llar.
Olis shahar olib ketgan,
Va bag'rida qolib ketgan,
Hislarimni uzaytadi uzun yillar.
Ismin aytib...Qaytib-qaytib,
Vujudimni turkilaydi qizil tulpor.
Kiprigimning ostidagi suratiga,
Siyratini baxsh etgandir Parvardigor.

Keragimning yuragini toshdek qilgan,
Toshbag'irlik hislaringni qaytarib ol!
Ovunchimni o'g'irlagan — olis Toshkent!
Borayapman, meni qarshi ol!...

BAHOR KELDI SIZNI SO'ROQLAB

(*Zulfiyaxonim xotirasiga*)

Bahor... Yomg'irdan so'ng chiqqan kamalak,
Asta ko'rindi-yu, atrofga boqdi.
Sog'inch afgor qilgan, joni ming halak,
Ta'zim ila ko'klam eshigin qoqdi.

Bodom novdasiga kurtak chiqqanda
Maysali to'niga burkanganda yer.
Tog'larni lolalar qurshovga olib,
"Zulfiya qayerda, qayerda u?" — der.

Izladi, tinmadi shabada yelib,
Olcha gulbarglari giryon raqqosa.
Rang talashib, bir bo'y ko'rsatayin deb,
Gullar mendan sizni so'radi rosa.

O'rik gullari ham sizni so'roqlar,
Qalam-u qog'oz ham "Sog'indim", deydi.
G'amga to'lgan bahor osmoni yig'lar,
Barcha-barchasini ovutgim keldi.

Yodingiz-la yozgan she'rim o'qisam,
Atrofga taralar ma'yus bir qo'shiq.
Sizni so'roqlagan o'sha bahor ham
O'zbek ayoliga bo'libdi oshiq.

Ko'klamga burkandi sizni sevgan el,
Tinchlikni kuylagan o'zbek ayoli.
Insonparvar bo'ling, deya aytgandi,
Urushni cheklardi hatto xayoli.

Doim yonimdasiz, yozgan she'rimda,
Hayotni kuylayin, chekinsin alam!
Siz uchun atalgan bitta gapim bor:
O'zbegin hayotdir — hayotsiz siz ham.

ILTIVO

Qo'lga oldim bugun qalamni,
Yozish uchun dard-u alamni.
Ko'z yoshiga chiday olmayman,
Yig'latmagin sen ham onamni.

Umrin bizga baxshida etgan,
Tashvishlarin ichiga yutgan.
"Hayotimning mazmunisan" — deb,
Bemor bo'lsam o'zin unutgan.

Doim kulib yursinlar deyman
Yiroq bo'lsin tashvish-u g'amdan.
Mayli qancha ozor bersa ham
Achchig'ingni yashir onamdan.
Ey, piyojon, iltimos sendan!

AYRILIQ

Siz yo‘qsiz oromim,
Xalovatim yo‘q.
Avval sizdan meni,
Ko‘nglim edi to‘q.

Sizga bo‘lgan mehrim,
Edi behisob.
Nahotki barchasi,
Bo‘lsa-ya sarob.

Juda sog‘inyapman,
Nahot qaytmaysiz.
“Doimo birgamiz” —
Deya aytmaysiz.

Balki endi sizga,
Yo‘qdir keragim.
Opam ezib olgan,
Tilla ziragim.

Maftuna Ismatova 1997-yil 20-fevralda Samarqand viloyati Tayloq tumanining "Katta Ravot" qishlog'ida tug'ilgan. Dastlab, tumandagi 5-umumta'lim mакtabida ta'lim olgan so'ng, Urgut tibbiyat kollejining hamshiralik kursiga imtiyozli ravishda qabul qilingan. Ijod namunalari "Urgut sadosi" va "Qo'shchinor" gazetalarida chop etilgan.



"Orzu bekatida" nomli she'riy to'plam muallifi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi Samarqand viloyat Kengashi qoshida faoliyat yuritayotgan Samarqand yosh ijodkorlar Kengashining faol a'zosi.

EY, TUN

Dardlaring ko'zingdan bilmas hech kishi,
Tinglaysan sen neni yana sokin tun.
Yo'q ekan o'zganing birov-la ishi,
Shu sabab jimlikka cho'kdingmi ey tun?..
Sen ham baxtlidirsan mendan ham ko'proq,
Osmoningda to'la kezar yulduzing.
Negadir sen qaytgach ezar ming so'roq:
Nega hamroh bo'lning menga bir o'zing?..
Ikkimiz ham xuddi bir xilmiz go'yo,
Yorug' tun qaytishin kutamiz tinmay.
Zulmat tun — hayotda yolg'izmiz go'yo,
Yashaymiz erta ne bo'lishin bilmay.
Malhamsan dardimga o'zing negadir,
Ketasanku umid bo'lib har sahar
Ey, tun sen qaytganda doim negadir,
Qalbim sokinlikka cho'kar shu qadar....

SHE'RIYAT

She'riyat yana sen quyoshi qalbning,
Dunyo go'zalligin anglatguvchi sen.
Bo'ldi faqat senga ayon ber derdim,
Yo'lingda intizor, mushtoq bo'lgan men.
Xayollar bermadi tinchlik bir nafas,
Izlayman savollar, javobsiz jumboq.
Shunchalar keng dunyo tuyular-qafas,
Har bosgan izimda ming bitta tuzoq.
She'riyat sen o'zing qalbim chashmasi,
Bog'laring gullarga to'la, bepoyon.
Bo'lmasang beifor go'yo barchasi,
Etmas his holatim biror bir inson.
Uzoq ketma endi mendan hech qachon,
Sen bo'lsang har dardga yetar bardoshim.
Angladim, yaxshidan ekan ko'p yomon,
Egildi har kecha sensiz tik boshim...

UMID

Dunyolar ostida to'la armonlar,
Yog'averar tinmay qalbim yomg'iri.
Bo'ldi inson qadri shuncha arzonlar,
Go'yo ayon bo'ldi dunyoning siri.
Nimadir bu dunyo o'zi bilmayman
Ortga solsam nazar hayratim dengiz.
Tutdi ko'p bo'ronlar va lek sinmayman,
Yo, bitik taqdirim azaldan tengsiz.
Kimga keng, kimga tor bo'ldi bu jahon,
Istagan topar nur, oxir-oqibat
Haqni bo'lganda kech anglarkan inson,
Berilmas ko'ngilga besamar bir dard.

Bosamiz jím qadam, qadamlar bisyor,
Oyoqqa turmog'im shunchalar mushkul.
Har banda falakdan yashar umidvor,
Umidlardan ko'ngil uzmagin butkul.

* * *

Hayotning ishlari qiziq, bemisl,
Orzular mavjlanar qalbim to'rida.
Dunyo deb, boylik deb yonar kimsalar,
Bepoyon muzliklar ko'ngil to'rida.

Yasharlar insonman deya kerilib,
Unut bo'lgan deydi mehr-muhabbat.
Ne topdik o'zgaga goh ko'ngil berib,
Faqt qalb ko'zimiz ochib qo'ydi dard.

Ko'z ochib, yumguncha o'tgulik hayot,
Qaytmagay berilgan vaqlar begumon.
Taqdiri oldida ojiz odamzod,
Mushkuldır bo'lmoqlik hazrati inson...

DEVOR

To'rt devor, muzlikka aylangan xona,
Ichida tirik jon yashaydi yolg'iz.
Dard chekar bildirmay og'rig'in yana,
Topilmas qalbiga biron malham so'z...

Afzaldir yolg'izlik unga shunchalar,
Manzillari olis, xazon yo'l bog'lar.
Tagini suv olgan misol shunchalar,
Orzu qadar yaqin hu o'sha tog'lar.

Har ne e'tibordan qolar bir zumda,
Kunlarning o'tishi goh dilga taskin.
Do'stim yonma yetar, yolg'on o'tida,
Sabr-la topar baxt bo'lsa kuchi kim.

Har nega yechimdir iroda, bardosh,
Bu taqdir ko'p bora beradi imkon.
Hatto to'kmoq uchun qolmasada yosh,
Vaqt o'tib o'rnnini topar har inson.

* * *

Sezmabman tim qora sochiga boqib,
Aslida har yumush ketgan qo'lidan.
Yuragimni beun olovda yoqib,
Mehr so'z kutardim uning tilidan.

Men o'zga olamman, u o'zga dunyo,
Sezmabman, shunda ham odamzod farqin,
Yosh bola ekansan shu qadar go'yo,
O'layman mehrning bormikin narxi?

Mehrli yuraklar ekanlar o'zga,
O'zgadir fidoyi insonlar asli.
Bermay tilim qoldi, yuqar bir so'zga,
O'zgami yo aytSAM, yaxshilar nasli.

YANGI YIL

Yangi yil, yangi kun, yangi daqqa,
Soat o'n ikkiga urganida bong.
Ochilar har dilda yangi sahifa,
Zulmatli tunlarning otmoqda tongi.

Oppoq bo'lib yog'ar zarrin-mayin qor,
Yam-yashil archaning egib shoxlarin,
Yashaydi har inson sendan umidvor,
Bevaqt xazon etma ko'ngil bog'larin.

Yangi yil sen yangi yo'ldosh har kimga,
Orzumand qalblarga quvonch olib kel.
Behisob shukr-ki yetdik biz senga,
Zulmatli qalblarga ziyo sochib kel.

EZGULIK

Iqrorlik, Allohdan barchasi bekor,
Hayot qadirlar tuymoq shunchalar og'ir.
Diydoringga bo'ldim intiq, intizor,
Har qadam xatardir, har nafasim sir.

O'zicha dahodek har bir odamzod,
Dunyo ichra dunyo qo'yay yaratib.
Kim bilar ertani, bari bu sinov,
Yaxshini yomonga qo'ymas qaratib.

O'tar lek ko'z ochib o'tgulik umr,
Kimda savob, kimda bisyor xatolar.
Do'stim qalbing ozor bilmasin zarra,
Alloh yomonlarni o'zi jazolar.

DILLAR

Men ko'rgan bu hayot, hayot emasmi,
Axir bilolmas-ku hech kim taqdirin.
Ichimdan ildizdek uzildi bir jon,
Anglolmay qoldimmi bu hayot sirin.

Oldimdan soydek tez o'tdi bir malak,
U balki xayoldir, qaydadir baxtlar.
Yo hayot bunchalar sanading takror,
Nega buncha shoshib o'tmoqda vaqlar.

YOLG'ON

Adashdim yolg'onga jim ko'zim yumib,
Boriga ko'nmoqdan zerikdi qalbim.
Adolat etganda turolmam jimib,
Sig'dirmam ko'ksimga ortiq bu dardni.

Yurakdag'i bori o'zimga ayon,
Hayot so'roviga topdim ming javob.
Og'riqda, qiyonoqda, titroqda bu jon,
Topdim muhtojlarga qilib oz savob.

Yulduz Abdusamad qizi 1972-yil 20-iyulda Samarqand viloyati Payariq tumanida tavallud topgan. Avvalgi 30-umumta'lim məktəbinin, həzirgi 84-umumta'lim məktəbinin 1989-yil a'lo baholarga tamomlagan. 1991-yil Payariq tumanidagi hunar-texnika bilim yurtini qızıl diplom bilan bitirgan. Həzirdə Qo'shrəbot tumanında istiqomat qıldı. 8 nafar farzandning onası.



"Mahzun yurak" va "Bir chimdim mehr" taxallusida she'rər, hayot haqiqatlari haqida qalam tebratib turadi.

MEN BAXTLI ONLARNI KUTIB YASHADIM

Men baxtli onlarni kutib yashadim.
Garchi omad mendan yuzin bursada.
Har gal sog'inchlarda seni qo'msadim.
Armon yuragimni qiyab tursada.

Men baxtli onlarni kutib yashadim.
Oyog'im ostida choxlar yonsada.
Ezgu niyatlarda qadam tashladim.
Niyatimga qarshi g'ovlar tursada.

Men baxtli onlarni kutib yashadim.
Taqdir peshonaga hukm qo'ysada.
G'amalar zanjirini uzib tashladim.
Kishan solishga shay ag'yor tursada.

Men baxtli onlarni kutib yashadim.
Umr kutishlarga sarbon bo'lsada.
Sabr-qanoatdan libos tashladim.
Jabrlar ko'ksimni tig'lab tursada.

Men baxtli onlarni kutib yashadim.
Ko'nglimda umidim sarob bo'lsada.
Bu kun ortimga men nazar tashladim.
Armonli yillarim yig'lab tursada.

Men baxtli onlarni kutib yashadim..

VATAN

Vatan uchun shukr qilaylik....
Vatan tinchdir, yurtimiz obod.
Yashayapmiz erkin va ozod.
Ezgu istak, maqsadlar sari.
Intilamiz dildan bo'lib shod.
Bundan ortiq baxt bormi bizga?

Dilim oppoq, manzilim oppoq
Ko'nglim toza, orzularim pok.
Omadimning qo'lidan tutib.
Bu yo'llardan borayapman sog'.
Bundan ortiq baxt bormi menga?

Nima ista bari muhayyo.
Bu tush emas yoki bir ro'yo.
Orzularga eshiklar ochiq,
Ertaklarga tushgansan go'yo.
Bundan ortiq baxt bormi senga?

Yo'llar ravon, manzilim yaqin.
Yoshlarimiz ko'zida chaqin.
Keksalari doim duoda.
Qo'l uzatsak osmon ham yaqin.
Bundan ortiq baxt bormi bizga?

Xotirjammiz, to'ylar ham oldda.
Armonlar ham qoldiku ortda.
Yashayapmiz yayrab va yashnab.
Niyatlar ham zalvorli katta.
Bundan ortiq baxt bormi bizga?

Shukrona ayt, shu Vatan uchun.
Shukrona ayt, pok orzu uchun.
Shukr qilgin sog'san, baxtlisan.
Shukrona ayt, shu tinchlik uchun.
Bundan ortiq ne kerak bizga,
Bundan ortiq baxt bormi bizga?!

HAQIQAT

Dilingni yemirar ichki dushmanlar.
Yurakni kemirar qalbda isyonlar.
Jilovlay olmaysan, asov tug'yonlar.
Haqiqat achchiqdir, haqiqat shirin.
Ollohdan hech bir ish bo'lmas yashirin.

Dilingda boshqa-yu, tilingda boshqa.
Muhabbating sarson bir bag'ritoshga.
Ko'zing tik boqolmas yorug' quyoshga
Haqiqat nur erur, haqiqat yashin.
Ollohdan hech bir ish bo'lmas yashirin.

Ko'zing ko'r bo'lsa gar, yomon ishlarga.
Qulog'ing kar bo'lsa, g'iybat gaplarga.
Tiling bandi bo'lsa, o'tkir tishlarga.
Haqiqat egilur, haqiqat sinmas.
Ollohdan beruxsat tikon ham kirmas.

Juda achchiq bo'lsang, tuflab tashlashar.
Shirinsan, yamlamay g'ajib tashlashar.
O'ylamay yuraging o'tga tashlashar.
Haqiqat o'limdir, haqiqat to'lin
Ollohdan hech bir ish bo'lmas yashirin.

Aldashar, aldovga uchib yashaysan.
Yoki sarooblarni quchib yashaysan.
Xayolda-falakda uchib yashaysan.
Haqiqat yengilmas, haqiqat og'ir.
Ollohdan keladi zamona-oxir.

Dunyoning ishlari to'kis bo'lmaydi.
Hayotning yo'llari tekis bo'lmaydi.
Haqiqat hech qachon ilkis sinmaydi.
Haqiqat to'g'ridir, haqqqa sen yukin.
Ollohdan hech bir ish bo'lmas yashirin.

Haqiqat zulmatni yorgan bir nурdir.
Uni ko'rmaganlar, qalb ko'zi ko'rdir.
Haqiqat yo'q, peshonang sho'rdir.
Haqiqat sho'r emas, haqiqat zo'rdir.
Ollohga isyonning oxiri xordir.

BAHOR!

Bugun daraxtlarda o'zgacha titroq.
Hayajon bosadi mudroq ko'zini.
Asta bosh ko'tarar har bitta yaproq.
Maysalar tutadi zamin yuzini.

Erta sahar esgan tongning sabosi.
Kulib yuzim silar, erkalab mayin.
Toshqin soyda oqqan suvning navosi.
Aslo, muz etaolmas endi izg'irin.

Sekin qish o'rnini oladi bahor.
Yorug' olam uzra ochar gullarin.
Ko'ngillar zavqlanib atrofga boqar.
Quyosh ham o'zgacha sochar nurlarin.

Ko'zini ochadi nozik kurtaklar.
Bahor sabosiga sassiz tebranan.
Sevgidan mast bo'lar oshiq yuraklar.
Bahor nafasidan yonib zavq olar.

Yomg'ir ham bahorga aytib madhiya.
Go'yoki samodan baraka yog'ar.
Turnalar qo'shig'i biz uchun hadya.
Kelinchak Navro'zim, muborak kelar!

Maydalab yog'ilgan, yomg'ir yakuni.
Kamalak bo'yanmish osmonning qoshi.
Sharshara-tog'larning yoyilgan sochin.
Taroqlab oladi jilg'alar shoshib.

Qaldirg'ochlar eski inin sog'inib.
Qaytadi qadrdon oshyoni tomon.
Bahor go'zalligin bizga ilinib.
Sog'ingan dillarga beradi darmon.

O'G'ILLARIM

Bo'g'zimga tiqilib alamlar yig'lar.
Dardimni yozgani qalamlar yig'lar.
Sog'inchlar sabrni ming bora tig'lar.
Musofirda yurgan jon o'g'illarim.
Sizlarni asrasin parvardigorim!

Ona meni o'ylamang, sog'innmang deysan.
Shirin kulcham o'mniga, qotgan non yeysan.
Opang, ukang, singling g'amini yeysan.
Qo'llari qadog'im, jon o'g'illarim.
Sizlarni asrasin parvardigorim!

Yurtingiz sog'inchı o'rtasa ham jim.
Qadringiz toptasa allaqaysi, kim.
Boshingiz silashga yetmas qo'llarim.
Ko'ngli yarimlarim jon o'g'illarim.
Sizlarni asrasin parvardigorim!

Kiyimingiz yuvasiz, ovqat qilasiz.
Ming bir sinovlarga toqat qilasiz.
Ammo, sog'inchlarda yurak tilasiz.
Sovuqlarda yurgan bag'ri qonlarim.
Sizlarni asrasin parvardigorim!

Suyanganda suyanchig'im, tog'imsizlar.
Yashnab turgan yurakdag'i bog'imsizlar.

Sizlar mening borlig'im-u, borimsizlar.
Ko'z tegmasin bo'yingizga o'g'illarim.
Sizlarni asrasin parvardigorum!

Joynomoz ustida duolar qilay.
Sizlarga umrlar, omadlar tilay.
Qora ko'zingizdan o'zim o'rgilay.
Ko'zlarim yo'lingizda jon o'g'illarim.
Sizlarni asrasin parvardigorum!

QISMAT

Olloh mening loyimni, g'amdan olib yaratdi.
Suyib ichar oshimni ko'z yoshimdan yaratdi.
Peshonam ham sho'r ekan, qismatim buncha achchiq.
Ko'zlarimni nigoron, ma'yus qilib qaratdi.

Toshdan qilib boshimni, g'amdan yorilmasin deb.
Olov ichra gar qolsa, shamdek erimasin deb.
Ne qilsa ham yaratdi, diydamni qilib bo'shroq.
Rahm-u shafqatdan soldi, paymona to'lmasin deb.

Kiydim sabrdan libos, zeb-ziynatga uchmadim.
Bardoshimga suyandim, mol-dunyoni quchmadim.
Bir kam emas bu dunyo, asli mingi kam ekan.
Hazar qilib yolg'ondan, saroqlarga uchmadim.

Nedir aybim bilmadim, balki qanoatimdir.
Taqdirga indamasdan, qilgan itoatimdir.
Hayotda nima ko'rsam, tutib berdim ko'ksimni.
Tog'lardanda ulug'vor aylagan toqatimdir.

Kibr-u havoga uchib, nafsimga qul bo'lmadim.
Bandi etib iymonni, o'zimga erk bermadim.
Yana ne solsang boshga, qismatimdan bilurman.
Taqdirdan hech kim qochib, qutulganin ko'rmadim.

Inson qilib yaratding, yaratganingga shukur.
To'rt muchamni sog' qilib, ong berding, hamda fikr.
Hayvon qilib yaratsang, nima qilgan bo'lardim.
Ongsiz-zabonsiz tursam, aytolmasam bir zikr.

Nolimasman Ollohim! Ayollik baxtin berding.
Bir etak farzand berib, onalik taxtin berding.
Xom sut emgan bandamiz, har to'kisda aybimiz.
Yo'lda adashmaslikchun, "Qur'on" kitobing berding!

ISHQ TOMCHISI

Men bilmayin baland dorga osilibman.

Qolib ketdim oyog‘ingiz ostlarida.

Yolg‘onlarga arzongina sotilibman.

Yonib o‘lgum qismatimning rostlarida.

Osongina almashdingiz kimi largadir.

Kuygan yurak sovimaydi vaqt o‘tsa ham.

Boshim olib ketaymikin qaylargadir.

Men almashmam, dunyolarga o‘t ketsa ham.

Baland dorim — qismatginam kuydirdiya.

Rashk o‘tida qovurilib yurak yonar.

Kelib-kelib kimni menga suydirdiya.

Jismim yonar, bag‘rim yonar, ruhim yonar.

Qarg‘amangiz faqat meni qarg‘amangiz.

Sevganim bir aybim bo‘lsa, aybdorman.

Faqat meni ko‘nglingizzdan haydamangiz.

O‘z ishqimdan o‘zim bugun qarzdorman.

Ko‘nglingizning ustuniga bog‘lang endi.

Uring mayli qahringizning qamchisida.

Ishqim meni ko‘zlarimni bog‘lar endi.

Umrim o‘tar shu ishqimning tomchisida.



Toshquvvatova Oydin Said qizi 1998-yil 29-noyabrda Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida tavallud topgan. Tumandagi 121-umumiyl o'rta ta'lif məktəbida təhsil olğan. 2015-yilda Samarqand viloyati Pastdarg'om tibbiyot kollejiga imtihon asosida qabul qilingan. 2017-yilda "Muhabbatga yo'g'rilgan Vatan", 2018-yilda "Otam davlatim, Onam jannatim", 2019-yilda esa "Mitti gul" nomlari ostida she'riy to'plamlari chop etilgan. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Tong yulduzi", "Chiroqchi" kabi gazeta va jurnalarda she'rlari chop etilgan. Hozirgi kunda Samarqand Davlat universitetida təhsil olmoqda. Samarqand yosh ijodkorlar Ken-gashi a'zosi.

VATAN

Vatan onajonim, onajon o'lkam,
Ayro tushmasin qo'llaringdan yelkam.
Ranjitsam ham goho ataysan — bolam,
Borimdan kechsam ham sendan kechmasman.

Mehnat qilay mitti chumoli kabi,
Temurdek bo'lsin har o'g'loning shahdi.
Yolg'iz sen uchundir dunyolar taxti,
Jonimdan kechsam ham sendan kechmasman.

Mayli yovuz g'animlar etsa ta'qib,
Ketsinlar mayli qora toshin otib.
Lekin o'zgalarga ketmasman sotib,
Jonimdan kechsam ham sendan kechmasman.

Sen daraxt bo'lsang, menman bitta barging,
Sen ulkan tog' bo'lsang, bo'lay etaging.
Ne bo'lsam ham bo'lay senga keraging,
Borimdan kechsam ham sendan kechmasman.

O'zing yetaklaysan porloq iqbolga,
Bermaysan sochim to'zg'itgan shamolga.
Men seni deb asir tushdim xayolga,
Jonimdan kechsam ham sendan kechmasman.

Kuylab to'xtamasa shirin zabonim,
O'zingsan eng mehribon onajonim.
Sen-la bo'lsam dilda yo'qdir armonim,
Jonimdan kechsam ham sendan kechmasman.

KUTADI ONAM

Tashqarida sharros yog'moqda yomg'ir,
Bilmam nimalarni istaydi ko'nglim.
Hamma ketsada bitta o'zi yolg'iz,
Bilaman har kuni kutadi onam.

Yostiq tuni bilan bo'lar sirdoshi,
Ne uchun bunchalar ko'zлari ma'yus.
Shunchalar qattiqmi uning bardoshi,
O'tirar qolsalar ham joni holsiz.

Atrof sukunatga cho'madi bir zum,
Chumchuqlar galasi uyada yotar.
Ular ham qo'shilib yig'lamoqda yum,
Achchiq bu azoblar yurakka botar.

Afsus qat'iy ekan hayotning hukmi,
Qachon ko'rishmoqlik etarkin nasib.
Hech tark etmayapti yolg'izlik ta'mi,
Bormoqda har kuni yuragim yonib.

Bilaman har kuni kutadi onam,
O'tirar jilmayib yangilab choyin.
O'zin o'yamasdan dedilar bolam,
Qiz bo'lib so'rdimmi bir uning holin.

Tunlari borolmay yig'layman bedor,
Izlayman qaylardan uning isini.
Onamning shunchalar ko'ngli beg'ubor,
Juda ham sog'indim shirin so'zini.

Dalada bo'rondek shamol yeladi,
Bir zum yo'lmasin uning yoniga.
Men kutgan kun albat bir kun keladi,
Gullarni to'kaman onam poyiga.

Qushlar uchmoqda osmonni to'ldirib,
Omon qol, degandek kulib qaraydi.
Borayin g'amlarni ortda qoldirib,
Ko'nglim o'sha kunni kutib yashaydi.

Yomg'irga aylanib tushgandir yoshim,
Yerdan unib chiqdi ko'klamda gullar.
Onamdan kuch olgan metin bardoshim,
U bilan ushaldi bu kun orzular.

Har kuni yo'l qarab kutmang! Onajon?!

Alamni unutib qiling tabassum.

Bir kuni qaytaman yurtimga jonajon,
Etadi bahorning kuyi tarannum.

MADADKORIM OTAM

Shunchalar mehringiz issiq,
Siz uchun ta'zimda borliq.
So'zlarining juda iliq,
Madadkorim otam mening.

Ona qizim, — deysiz meni,
Mehnat qilasiz har kuni.
Biroz dam olingda endi,
Madadkorim otam mening.

Duolar qilasiz bizni,
Gapisiz dono so'zni.
E'zozlasak ham oz sizni,
Madadkorim otam mening.

Hurmat qiladi mahallamiz,
Hech og'ritmaysiz dilimiz.
Siz bilandir oilamiz,
Baland tog'im otam mening.

O'rgatasiz ilm ulug'in,
So'raysiz nochorning holin.
Yashang oilamiz uchun,
Mehribonim otam mening.

Har so'zingiz bizga hikmat,
Yoz-u qish qilasiz mehnat.
Hech bir qilmaysizda minnat,
Madadkorim otam mening.

GULIM, KETAMIZ BIRGA

Nechun muncha ma'yus yig'laysan,
Taningda kezadi yashil qon.
Alamlarga ko'ksing tashlaysan,
Kezmoqda misli yashil alvon.

Yuragingda yillar dog'lari,
Qara hali ketmagan izi.
Sho'xmiding-a yoshlik chog'lari,
Yonginangdan ketmagan isi.

O'rtoqlaring qayerga ketdi,
Mendek sen ham turasan yolg'iz.
Kimning so'zi dilingga botdi,
Joning yo'qmi turasan holsiz.

Yurgin ketaylik osmonlarga,
Oppoq bulutlarni quchamiz.
Kuning qolmasin yomonlarga,
Alamlarni birga yutamiz.

Ko'rmasam gar ortar sog'inchim,
Yolg'onchining tutma qo'lidan.
Bu dunyoda sensan ishonchim,
Yaxshining xabar ol holidan.

Sarmast bo'ldim iforlaringga,
Barging to'kmasin kuzning yeli.
Men aylanay kokillaringga,
Ajratolmas tongning shamoli.

Rayhon gulim ketamiz birga,
Kutib turar orzular shahri.
Aylanaylik tillarang nurga,
Shuncha armonmi do'stlik qadri.

Tiling bo'lsa, jim turma gapir,
Qara tinmay yig'lar yuragim.
Mayli dunyoga dod sol hayqir,
Yolg'iz o'zing menga keragim.

BOBODEHQONIM

Dalaga chiqasiz erta bahordan,
Mehnatingiz ko'rib ortadir mehrim.
Ko'chat o'tqazdingiz olma, anordan,
Hosilga baraka bobodehqonim!

Haqqoniy ishlaysiz yerga ter tukib,
Hattoki ayamay tandagi jonni.
Turasiz xayol-la dalaga boqib,
Rizqqa to'ldirasiz ulkan xirmonni.

Daladagi qushlar mening do'stlarim,
Ko'maklashaylik, — deb keldik yordamga.
Tilimga kelmas dildagi so'zlarim,
Mehnat oldida yosh keldi ko'zimga.

Ullkan maqsad-la qarshilaysiz tongni,
Yurtim deb, xalqim deb, yashaysiz yonib.
Daladan topasiz sehrli ohangni,
Yashaysiz har nihol dardini olib.

Fido etdingiz butun umringizni,
Siz sabab bog'ga aylandi sahrolar.
Bir zum o'ylamay hatto o'zingizni,
Sizga ta'zimdadir bugun dunyolar.

KO'NGLIM

Unutdimi dunyo seni,
Tuproqdan ham xokisorman.
Uxlamaysan hatto tuni,
Ey, mening bechora ko'nlim!

Kelar bevafo bahorlar,
Ko'pdir nega buncha sotqin.
Dilimda yotar g'uborlar,
Lek ko'rsatmadim ko'zyoshim.

Hammada ming bir bahona,
Kundan kun ortadi tashvish.
Yolg'iz ikkimiz devona,
Hech bir kutmaysan nolish.

Nechun bunchalar yaxshi,
Tuyg'ularing guldek go'zal.
Kurtak ochsin yashash ishqisi,
Axir yashaysan-ku halol.

Hayotda ko'rdek yashama,
Ochiq bo'lsin qalbning ko'zi.
G'anim dastidan yig'lama,
Har dam qaro uning yuzi.

Yoshingga qo'shilar yomg'ir,
Yig'lama yig'loqi ey dil!
Bu kunlar ham o'tar oxir,
Mening orzuyim bo'lib kel.

Buncha o'xhash taqdirimiz,
Birov ustidan kulmadik.
Bir armonning asirimiz,
Rost gapni yolg'on demadik.

Kelyapti rayhon hidlari,
Bo'yiga bo'ylashar bo'yim.
Xazonda qolgan xatlari,
Netay, yetmadi-da qo'lim.

Kezaylik yulduzlar aro,
Bizlarga ochiq eshigi.
Bu kech qalblarimiz yaro.
Yangrar ezgulik qo'shig'i.

Ey, mening bechora ko'nglim,
Asli dunyolar bevafo.
Lolalar eng yaqin singlim,
Bahra ol kuydan xushnavo.

SEVGISINI AYTOLMAGAN QIZ

Yotar yostig'ini quchoqlab,
Oydan yorin umrini so'rab.
Armonli sevgisini ardoqlab,
Sevgisini aytolmagan qiz.

Yig‘laydi u o‘ylab taqdirin,
Jim ichiga yutadi dardin.
Muhabbatи egdimi boshin,
Sevgisin aytolmagan qiz.

Yig‘laydi u oqshomlari zor,
Uni deb qo‘ndi sochiga qor.
Uning ko‘nglida armoni bor,
Sevgisini aytolmagan qiz.

Goh hijronlardan ayvon qurib,
Kelmasada yo‘llarin kutib,
Tunlarini bedor o‘tkazib,
Sevgisini aytolmagan qiz.

Termuladi laylaklarga u,
Yolg‘iz yurgan yuraklarga u,
Malham bo‘lib yuragiga u,
Sevgisini aytolmagan qiz.

Go‘yo yolg‘iz yo‘qdek uningdek,
Sochini silaydi kapalak,
O‘z holiga qo‘ymaydi yurak,
Sevgisini aytolmagan qiz.

Bulutlidir har kuni osmoni,
Ayblari beshafqat dunyoni,
Dilni o‘rtar yolg‘iz armoni,
Sevgisini aytolmagan qiz...

ALLOH YETKAZSIN NIYATINGIZGA

Aylanmoqdamiz o'zga yurtlarni,
Shukr qilaylik har bir kunimizga.
Hech ham boshin egmasin mardlarni,
Alloh yetkazsin niyatingizga.

Shitir-shitir tushmoqda kuz bargi,
Millarini shoshiltirar soat.
Alloh olsin kimning bo'lsa dardi,
Alloh yetkazsin niyatingizga.

Turli sinovda sinaydi bizni,
Gohi qolamiz hech bir chorasiz.
Toqat qilolmay otamiz o'zni,
O'zimizga ishonch-la qolamiz.

Boramiz shirin orzular tomon,
Goh to'lib ketar ko'ngli bo'sh yurak.
Hech ham bo'lmasin orzular xazon,
Qalbimda yashar shu bitta tilak.

Sevinchdan yoshlansin mayli ko'zlar,
Intiq kutadi porloq baxtimiz.
Yorug' manzilga boshlaydi yo'llar,
Omon bo'lsa bas tanda jonimiz.

Sabr qilsak o'tar og'ir kunlar ham,
Saratonlar-u qishning bo'roni.
Allohim etmasin hech kimdan kam,
Kutayotgandir eng zo'r zamoni.

Ko'rmaganim ko'rganimdan ko'pdir,
Eshik qoqar bir kuni orzuyim.
Har bekatda haqdir yolg'iz taqdir,
Alloh yetkazsin niyatingizga.



Eshpo'latova Mohira O'tkirjon qizi 1995-yil Navoiy viloyati Xatirchi tumanida tavallud topgan. NavDPI ning O'zbek tili fakultetini tamomlagan. Bugungi kunda o'qituvchi sifatida faoliyat yuritmoqda.

BARCHA YO'LLAR SEN TOMON BOSHLAR...

Oliyoh miqyosida kitobxonlar bellashuvi o'tkazilganida Nizomiddin birinchi o'rinni egalladi. Aslida ham shunday bo'lishi kerak edi. Axir filolog bo'la turib, musiqachi yo sportchilarga yutqazish, uningcha sharmandalik. Gap tanlov, kim g'olib yo mag'lubligida ham emas. Gap shu kundan bog'langan, aslida esa anchadan beri bir-birini izlayotgan pok qalblarning topishuvi haqda. Nizomiddin ishtirokchilarning qaysi kitoblarni sevib o'qishini bilmoqchi bo'ldi. Shunchaki, qiziqishdan so'rovnoma tuzdi. Siz sevgan bitta asar: O'zbek va jahon adabiyotidan. Oq qog'oz aylana stolni aylanib Nizomiddinning o'ziga qaytib keldi. Turli husnixatda turfa asarlar nomlarini o'qir ekan, aynan o'zi sevgan asarlarning nomini yozgan bir qiz uning e'tiborini tortdi. Nizomiddin O'zbek adabiyotidan O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi", jahon adabiyotidan Paulo Kelonning "Alkimyogar"i deb yozib so'rovnomaga yakun yasadi. Notanish qizning yozuvi ostiga tabassum qilgan smaylik ham chizib qo'ydi...

Ziddiyat har qadamda uchraydigan hayotimizda, o'zing bilan hamfikr insonni uchratish; saratonda chanqab turganingda, kutmagan insoning tomonidan pok-pokiza buloq suvi tutganday gap. Chanqab turganingda buloq suvidan qanchalik rohatni tuytsang, hamfikr insoning bilan suhbat qurbaningda ham shunday ma'nан rohat olasan kishi. Odatda, Nizomiddin kitob va kitobxonlik haqida baland-past davralardagi tortishuvlarga qo'shilmasdi. Bunday davralardan bezor edi ham. Biriga bilimim oz deb, boshqasiga esa bilimsizlar sabab qo'shilmasdi. Ammo

o'sha kungi telegram tarmog'idagi kitobxonlar bahsiga qo'shil-may turolmadi. Gap shundaki, o'sha kungi bahs uchun O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" romani tanlangan edi. Bir yigit Gulchehrani qattiq tanqid ostiga olib, bu ahvolga tush-ishiga o'zi sababchi ekanligini yozdi. U o'z joniga qasd qilib yanada katta gunoh qilganligini yoza boshlaganda Nizomiddin chidab turolmadi.

Gulchehradek qizni shu ahvolga solib tashlab ketgan Abdulla qanchalik pastkashlik qilgan bo'lsa, siz jabrdiydani aybdorga chiqarib, noinsoflikda Abdulla bilan tenglashmoqchi bo'lyapsiz! — deb yozdi u yigitning fikriga javob tariqasida. Shundan so'ng bahs yana olovlandi. Nizomiddinni yoqlab "Oymomo" taxallusli qiz ham bahsga qo'shildi. Oymomo Gulchehra o'zini o'ldirmaganligini, aksincha bu baxtsiz tasodif ekanligini isbotlab berdi. Shu bahs sabab Nizomiddin o'zi uchun hamfikr, hozirgi kundagi kitobxonlarda kam uchraydigan fazilat, kamtarinligi bor bir do'st orttirdi. Nizomiddinning o'qishlari deyarli tugab qolgandi. Barcha yakuniy imtihonlarini a'loga topshirdi. Diplom ishi ham tayyor. Kelajak rejalar ham tuzib qo'yilgan. Xullas, hammasi o'zi o'yланicha davom etayotgandi. Bo'sh vaqtி ko'п bo'layotganligidan kutubxonadan kitob olib o'qishga tutindi. Kutubxonaning talabalarga to'la o'quv zalidan chiqar ekan, bir qizga urilib ketishiga sal qoldi. Qiz unga tanishdek tuyuldi-yu qayerda ko'rganini eslolmadi. Notanish qiz ham, yigitga ham uning qo'lidagi kitobga bir qarab oldi-da "Uzr" deb yonidan o'tib ketdi. Nizomiddinning yuragi tez-tez urib zaldan chiqdi. Bu yerda esa orqa partaga o'tirib, konspekt qilmoqchi bo'lgan notanish qiz nima sababdan yuragi bezovta urayotganligini tu-shunolmay qolaverdi. Nizomiddin qo'liga olgan navbatdagi asar sevimli yozuvchisi Ulug'bek Hamdamning "Sabo va Samandar"i edi. Asarni o'qib tugatishi og'ir kechdi. Kutilmagan yakun topgan asardan ham ko'ra, kitobning so'nggi sahifasiga chiroyli husnixatda yozilgan fikr uni hayratlantirdi. Asar mazmuniga mos

“Biz uchun faqat bugun bor, ertalar yo‘qdir. Kelajak ertalarda Sen borsan Men borman also Biz yo‘qmiz” deb yozilgan qatraning ostiga Oymomo deb imzo chekilgandi. Bu Oymomo ikki yil avval internetda tanishgan, hozirgi kunda eng yaqin do‘stiga aylangan, o‘zi asl ismini ham bilmaydigan o‘sha Oymomosimikin! Yoki boshqami? Yo‘q bu aniq o‘zining Oymomosi. Chunki undan boshqa hech kim bunday taxallus qo‘ymagan. Boz ustiga uning o‘zi ham ijodkor. Telegrammdan do‘stiga qisqagina qilib, “Sabo va Samandar”ni o‘qiganmisiz? deb yozdi. Va uning internetga kirib xabarini o‘qishini intiqlik bilan kuta boshladи. Oradan ancha vaqt o‘tib savoldan ham qisqa javob keldi, “Ha”. Nizomiddin yuragi tez-tez urib yana so‘radi

— Qachon?

YOMG‘IR VA ULAR

Siz men uchun bir dars bo‘lgansiz

Yigit uchun kutmagan insonidan bunday gapni eshitish, qanchalik og‘ir bo‘lsa, qiz uchun ham uning yarim kechada qilgan qo‘ng‘irog‘i shunday kutilmagan va og‘riqli bo‘ldi. Yigit “rostdan shu gaplarni hayotdagi eng aziz insonim aytdimi yo noto‘g‘ri tushundimmi”? degandek qayta so‘radi.

— Men sen uchun bir dars bo‘ldimmi To‘g‘ri eshitdimmi? — dedi. Qiz o‘ylanib ham o‘tirmay to‘g‘risini aytdi:

— Ha, to‘ppa-to‘g‘ri eshitdingiz. Siz men uchun sevgiga faqat Olloh, ota-onha va oilangdagilar arzishini isbot qilib bergen dars bo‘ldingiz. Siz menga butun hayotning bir necha soniyalarda o‘zgarib ketishi mumkinligi, insonlarga ishonib bo‘lmasligi haqida yaxshigina saboq berdingiz, — dedi. Qizning tiliga yana ko‘p gaplar keldi-yu, ammo bir so‘z desa yig‘lab yuborishi mumkinligini sezib, jum qoldi. Biroz o‘ziga kelgach, yanada qat‘iylik bilan davom etdi:

— Bular butun hayotim davomida bilishim kerak bo‘lgan

eng zarur saboqlar ekan. Uni bir vaqtning o'zida bitta insondan oldim. Sizdan! Eng ko'nglimga yaqinimdan. Va endi aminmanki, ko'nglimizdagi chuqur jarohatlarni, uning to'riga chiqarib qo'yanlarimizdan olarkanmiz.

— Hmm, demak, mendan xafa ekansan-da. Vaziyatimni tu-shunib turibsan deb o'ylagandim, — dedi yigit biroz qizishib. Qiz yigit aytayotgan "vaziyat"ni aqlan tushunib yetgan bo'lsa ham, qaysar ko'ngli buni tushunishni istamasdi. U takror va takror isyon qilar, turli savollar bilan qiyndi. Yigitning jo'ngina qilib "Mendan xafa ekansan-da" deyishi uning battar jahlini chiqardi. Xafa bo'lish shunchalar oddiy so'z ekanligini uning og'zidan eshitib bildi. Ko'nglidan o'tayotganlarini iloji boricha vazminlikka o'rav javob qaytardi:

— Yo'q, xafa emasman. Va'da berib uni ustidan chiqolma-ganlardan yo bir ishga astoydil kirishib kutilgan natija bo'lmasa xafa bo'linadi. Sizga nisbatan hozirgi hissiyotlarimni xafa bo'lishlar ifodalashga ojiz...

— Unda savolni to'g'ri beray. Endi meni sevmaysanmi yo nafratlanasanmi?

— Yeng yomoni ham shu. Sizdan nafratlanib bo'lmaydi. Chunki, hayoti o'z qo'lida bo'lмагan insondan nafratlanib ham bo'lmaskan. Endi men so'rayman. Bu gaplarim sizni xafa qilib qo'ymadimi?

— Yo'q. Sen hozir nima desang ham haqsan. Odamzod oldinda kelar kunini bilmaskan. Lekin bir narsani hech qachon unutma. Seni doimo sevaman...

Ularning gaplari allaqachonlar tugagan. Lekin telefonni o'chirishga ikkisi ham shoshmasdi. Yigit bilardiki, qiz qaytib qo'ng'iroq qilmasligini, o'zi esa bunga endi haqqi yo'qligini.

Tun yarmidan oqqanda yulduzlar g'ujg'on o'ynagan, tiniq osmondan yomg'ir yog'di. Yoz yomg'iri... Qayerdandir adashib kelgan yomg'irli bulut safarini tez yakunladi. Buni ba'zi bedor-largina bilishmagan bo'lsa, shirin uyqudag'i odamlar sezishmadi.

Bu bedorlar ichida ko'ngli tilka pora bo'lgan, ko'zları yomg'ir yuvgan oynadek yoshli qiz ham bor edi. U xuddi xonada havo yetishmayotgandek ochiq derazadan boshini chiqarib yomg'irli, toza havodan chuqur-chuqur nafas olardi. U buni toza havodan bahra olish uchun qilyaptimi yo yig'isini bosish uchun, bilib bo'lmasdi. Qizning charchagan, o'ksik ruhiga taskin bergandek, yomg'ir yog'ardi. Har faslda yomg'ir yog'adi-yu, lekin yoz yomg'irining o'zgacha fe'li bor. U oilaning kenja farzandi kabi erka, shoirlar kabi injiq va qisqaligi bilan qadrli. Uning qachon kelishini bilmaysan, kishi. Yoz yomg'irining iliq tuproqqa qo'shilib taratgan ifori uchun ham sevsang arziydi.

ACHCHIQ HAQIQAT

— Sen o'z qobig'ingga o'zing o'ralib olgansan.

Qiz yaqin dugonasiga anchadan buyon yig'ilib qolgan, hech kimga aytolmay kelayotgan dardlarini to'kib soldi-yu, ammo bularning sababchisi o'zi ekanligi haqida o'ylab ko'rmagandi. Nima deyishini bilmasdan, jim qotdi.

— U Armstrongdan bor-yo'gi bir necha daqiqaj keyin Oyga qadam qo'ygan. Ammo hech kim uni bilmaydi Sabo... Dunyo ikkinchilarni tan olmaydi. Sabo... Shuning uchun ham hozir senga qo'ng'iroq qilib turibman. Sabo... Sen men uchun doim birinchi o'rinda bo'lgansan. Ammo bu bilan sendan ham shuni talab qilolmayman. Hayot seniki, uni qanday xohlasang, shunday qur. Faqat, unda... men ham bo'lay. Tug'ilgan kuning bilan Sabo...

Ilyos boshqa so'z aytolmay, Saboning nima deb javob berishini ham kutmay telefonni o'chirdi. O'zini favqulodda bir buyuk jasorat ko'rsatgandek baxtiyor his qilardi. Go'yo uning bu gaplari unga qanot bag'ishladi-yu ko'm-ko'k samolarda parvoz qilayotgandek, o'z-o'zidan masrur, baxtli... Turli xil o'y-xayollar bilan ko'ziga uyqu ham ilinmadi. Tongga yaqin Sabohatdan xabar keldi.

“Armstrong Oyga ilk qadamini qo‘yganda, “Bu insonning kichik bir qadami, lekin insoniyat uchun buyuk sakrashdir” — degan edi. Sen so‘rayotgan narsa insoniyat uchun hech qanday ahamiyatga ega emas. Ammo men uchun “buyuk sakrash”. Agar Oy o‘z joyida umrbod o‘zgarmasdan qolishga va unga ilk qadam qo‘yan insondan boshqa hech kimni tan olmaslikka va da bersa, men u Oyni hayotim osmonida ko‘rishdan baxтийор bo‘lардим. O‘tган tug‘ilgan kuning bilan Ilyos”.

O‘sha lahzalarda osmonning sharq tarafidan quyosh chiqayotgandi. O‘sha lahzalarda ikki yosh uyqusizlikdan qizargan, ammo ertangi kunga umid-ishonchdan porlagan ko‘zlar bilan quyoshni kutib olishayotgan edi.

— Seni doim to‘g‘ri tushunishga harakat qilganman. Lekin ortiq bu holda yashashingni kuzatib turolmayman. Hozir aytadigan gaplar-imdan qanday xulosa qilish o‘zingga havola. Sen o‘z atrofingni qalın devor bilan o‘rab olding. Hammadan qochding. Hatto asl “men”ing ni ham yo‘qotib qo‘yding. Esla, sen bilan ilk tanishganimizda qanday qiz eding. Hozir qay ahvoldasan? Hammadan yuz o‘girib nimaga erishding?! Albatta, o‘zing istagan narsa — YOLG‘IZLIKka. Bilaman buni nima sababdan qilganiningni. Bizga ojiz tomoningni ko‘rsatging kelmadи. Chunki sen judayam mag‘rupsan. Birovg‘a bildirmaysan. Ko‘z yoshlaringni, alamlaringni, sog‘inchlaringni... Hatto bu dardlaringning sababchisiga ham. Bugun yana “Ichim huvullab yotgan egasiz uydek bo‘m-bo‘sh” deysan-a Axir o‘zingmasmi bu uydan, o‘z olamingdan hammani quvib chiqargan? Yana ne istaysan, axir hammasi o‘zing xohlagandek-ku...

Qiz hayratdan qotib qolgандек dugonasiga qarab turardi. Go‘yo uning so‘zлari bir ko‘zgu tutgандики, undan ko‘zini uzolmayotgandi. Qizning muzdek qo‘llarini issiq kaftlar siqdi. Dugonasining ko‘zларida yosh miltillaganini ko‘rdi.

— Ha bilaman, sening tuyg‘ularing pok edi. Sen unga ko‘nglingning to‘ridan joy berganding, u esa... Ammo yana bir o‘ylab ko‘r. Bu dunyoda o‘zi ko‘ngli butun odam bormi?

Qiz indamay o‘rnidan turdi va ketishga chog‘landi. Kuzatmoqchi bo‘lgan dugonasiga shartmas degandek qo‘l ko‘tardi.

Haqiqatga tik qarash va hammasini boshqatdan boshlash payti kelganini tushunib yetgan qiz sekin-asta yurib kuzgi yomg‘ir yuvgan yo‘lakdan ketib borardi. Ko‘p qavatli uyning uchinchi qavatidan bir ma’sum va o‘ychan ko‘zlar uning ortidan kuzatib qoldi. Kecha tuni bilan yog‘gan yomg‘irning kuchli bo‘lganini daraxtlarning qayrilgan shoxlardan va har yer har yerda hosil bo‘lgan katta ko‘lmaklardan bilsa bo‘lardi. Qiz atrofga e’tiborsiz shaharni ancha payt kezib yurdi. Keyin nimagadir qat’iy qaror qilgandek o‘ziga ishonch bilan qadamini tezlatib, katta yo‘l tomon ketdi.

SEVGI VA IKKI SO‘Z

Hammasi boshlangan yoki tugagan kundan ancha yillar o‘tib, yana yomg‘ir yog‘ayotgan noma'lum bir sanada ular uchrashib qolishdi. Tasodifiy uchrashuvdan ikkisi ham hayrat va hayajonda edi. Bir finjondan qora qahva ichib bo‘lingan, orada o‘ng‘aysizlik. Ikkisining ham so‘rar so‘rog‘i, aytar gaplari ko‘p edi-yu, ammo hech gap-gapga qovushmasdi. Shunda bilibmi yo bilmay erkakning og‘zidan “Seni haliyam sevaman” degich so‘z so‘zlandi. Shu gap bilan go‘yo “o‘z yo‘lini topolmay halak oqayotgan daryo o‘zanini topdi”. Ayol miyig‘ida kulib qo‘yib, kutilmagan savol berdi.

— Sevgi... Siz menga uni ikki so‘z bilan tushuntirib bera olasizmi?

— Seni sevaman!

— Ha, aynan shunday. Siz uchun u “seni sevaman” dan bo‘lak hech narsani anglatmaydi. Shuning uchun ham shu gapni aytishdan boshqa hech narsa qilmadingiz. Haqiqiy Sevgiga mardlik va sabr hamroh bo‘lishi kerak.

— Haqsan. Buni keyin tushunib yetdim.

— Afsuski, kech tushunib yetdiz.

— Oldindan keladigan kunni bilmas ekansan. Onam tanlagan qizga uylandim ham, farzandli ham bo'ldim. Yana qancha yomg'irlar yog'ib o'tdi oradan. Bularga qaramay sen ko'nglimda yashayverding.

— Bu gaplarni qo'ying. Hammasi ortda qolgan va qolaversin.

— Mayli, aytganingdek bo'lsin. Boshqa bu haqda gapirmayman. Faqat o'zing ham aytchi, Sevgini qaysi ikki so'z bilan ifodalaysan?

— Menmi?.. — ayol yomg'ir tomchilari yuvayotgan derazaga qarab nimalarnidir eslab, biroz jim qoldi. So'ng uchrashib qolganlaridan buyon birinchi marta erkakning ko'zlariga tik boqib dedi.

— Men uchun Sevgi, Oila va Sadoqat degani. Bular bir butun va bir-birisiz hech narsa.

Ilyos va Sabo do'st tutinishganda, hali bog'chaga borishardi. U paytlar "do'st" kim, u qanaqa bo'lishini bilmasdilar ham. Birga o'sishdi, bir sinfda o'qib mana tugatishyapti hamki, aslida qiz bilan yigitning o'rtaсидаги do'stlik qanday bo'lishi kerakligini ma'nisiga yetolmadilar. Ilyos Sabo bilan do'stligi qachon boshlanganini eslolmaydi, qachon tugashi mumkinligini esa bilishni istamaydi. Bunday bo'lishi mumkinligini xayoliga ham sig'dir olmaydi. Endi Ilyos uchun Saboning shunchaki sinfdoshligi, do'stligi kamdek tuyulardi. Bugungidek e'tiborsizliklariga avval indamagan bo'lsa ham endi chidab turolmayotgandi. Ayni paytda uni hatto do'stlikka xiyonatda ayblardi. Aslida Ilyosning o'zi do'stlikka xiyonat qilganiga ancha bo'lganini sezmayotgandi. Ha, Ilyos Saboni sevib qolib, do'stlikka allaqachon xiyonat qilib bo'lgandi. Tabiatan o'sish va rivojlanishda o'g'il bolalarga nisbatan qiz bolalar oldinroqda yuradilar. Ma'lum bir yoshga yetgach qizlar o'sishdan to'xtab keyin yigitlar ham ularga yetib oladilar. Sabo do'stini ko'rganda yuragi bir boshqacha ura boshlashini, o'zini jinoyat ustida qo'lga tushgan odamdek o'zini yo'qotib qo'yishini sezgandan buyon undan o'zini olib qocha

boshladi. Bundan Ilyosning ranjiganini ko'rsa, yuragining allaqayeri achishardi. Oxirgi 11-sinfga kelib vaziyat shu darajaga kelib qoldiki, qiz yigitning ko'zlariga tik qarashga uyaladigan, yigit qizning ko'zlariga qarasa, etlari jimirlab ketadigan bo'lib qoldi. Sabo gohida o'zini qanday tutishga hayron edi. U Ilyos bilan butunlay uzilib ketishni aslo xohlamas, necha yillik qadrdonini yo'qotishdan qo'rqardi ham. Va ayni paytda Ilyos kutayotgan-dek ham bo'lolmasdi. Qiz uchun Do'stlik o'sha o'zi nomini aytishga ham qo'rqadigan tuyg'udan ustun edi. Sabodek oqila qizni tarbiya etayotgan onaizor bu tuyg'u qiz bolaning kelajagi-ga g'ov deb uqtirgan. Talaba bo'lishni o'zining oliv maqsadiga aylantirib olgan Sabo uchun bu "g'ov" g'oyat xavflidek ko'rnardi...

Ziyofat tugadi. Bu davrada faqat bir inson, shu xursand-chilikning sababchisigina begonadek o'tirdi. Kuni bo'yi Saboden xabar kutib charchagan, o'zi uning raqamini yuz terib, qo'ng'iroq qilishga jur'at topolmay yana o'chirgan yigit soat 00:00 bo'lishini kutardi. Ilyos Farrux aytganidek birinchi bo'lgisi, birinchi bo'lib Saboni tabriklagisi va ginalarini aytib yengil tortgisi keldi. Kutganingda go'yo daqiqalar ham imillab odimlardi. Nihoyat yangi kun kirib keldi. Ilyos qadrli raqamga qo'ng'iroq qildi. Uzoq gudok va uzoq kutilgan yoqimli ovoz.

- Allo
- Allo, Sabohat...
- Tinchlikmi Ilyos ?
- Tinchlikmas-da shu. Nega darsga kelmading bugun.

— Buvim kasalxonaga tushib qoldilar. Bugun kuni bo'yi yon-larida edim, — dedi xafa bo'lib. Ilyos negadir quvonib ketdi. Demak, juda muhim sababi bo'lgan, shunga esidan chiqqaman. Bo'lmasa, unutmasdi, ha sira-sira unday qilmasdi, deb xayolidan o'tkazdi. Ayni paytda buvisining kasalligini eshitib xursand bo'lganligidan ham, o'zining izzattalabligidan ham jahli chiqdi. Biroz hovuridan tushib so'radi:

- Hozir yaxshimilar ishqilib.
- Ha yaxshi bo'lib qoldilar.
- Yertaga ham kelmaysanmi darsga shunday qilib?
- Yo'q boraman. Nega so'rayapsan?
- O'zim... demak bugun umuman bo'sh vaqting bo'lmabdi da.

- Ha, nimasini aytasan.
- Ozginayammi?
- ...
- Nega indamaysan.

Sabo nima deyishini bilmay qoldi. Ilyosni bugungi ishi uchun gina qiladi deb o'ylagandi, amalda unday bo'lmadi.

— Bugun men uchun ham ziq kun bo'ldi-da. Shuning uchun fizikadan uyga vazifani qilolmadim. Sen bajargan bo'lsang... ha mayli qo'yaver. Axir seni "ozginayam" vaqting bo'lmanan ku. Mayli yaxshi dam ol. Uzr bezovta qilganim uchun, — deb telefonni o'chirmoqchi bo'ldi.

— Shoshma, men uni o'sha dars vaqtি bajarib qo'ygandim. Hozir rasmga tushirib senga jo'nataman.

— Xo'p rahmat. Sabo... sen Oyga birinchi bo'lib kim qadam qo'yanini bilasan-a?

— Ha, Nil Armstrong-da. U 1969-yilning 21-iyulida "Apollo-11" havo kemasida uchib, insoniyat tarixida ilk bor Oy sirtiga qadam qo'yadi.

- Yedven Oldrinni-chi?
- Yo'q, kim u?

OPA

Gulhayo darsga kechikib kirdi. Bu odatiy holga aylanib qol-gani uchun, domla uni so'roq qilib o'tirmadi ham.

"Kiring", — dedi-yu so'zini davom ettirdi.

— Xo'sh, darsga kim tayyor?

Domla sinovchan ko'zlar bilan audotoriyaga bir qarab olib, negadir ko'tarilgan qo'llarni emas, Gulhayoning familiyasini aytdi.

Gulhayo hali joylashib ham ulgurmay, o'midan turdi.

— Rustamova tayyormisiz darsga?

"Ataylab qilyapti" deb xayolidan o'tkazdi Gulhayo, shuning uchun ham ikkilanmasdan

"Ha, albatta" deb javob qaytardi. Va tezgina yonidagi kursdoshidan bugungi mavzu nimaligini so'rab, uning konsept daftariga ko'z yogurtirib oldi. Kecha tuni bilan kasalxonada qol-gan Gulhayo dars qilishga ulgurmagandi. Umuman u dars qiliшга vaqt topolmasdi. Topganida esa xohishi yo'q.

"Unda yaxshi, marhamat, doska sizga muntazir "dedi domla jurnaldan ko'zini uzmay. Qiz ikkilanib ham o'tirmay doskaga chiqdi. Bolaligidan badiiy kitoblarni juda ko'p o'qiganligi uchun nutqi ravon edi. Ko'pchilik oldida gapirishdan qo'rmasdi. Gul-hayo domlasining ma'ruzada aytgan gaplariga biroz "ishlov" berib mavzuni aytga boshladи. Avvaliga jim tinglayotgan domla birdan qizning gapini bo'lib, "Yaxshi yetarli, — dedi, — qaysi nasriy asardan parcha yod olib keldingiz?" Gulhayo hayratini yashirolmasdan "Qanaqa parcha?" deb so'radi.

— Uyga vazifa birorta nasriy asarni yod olib, ifodali aytib berish edi-ku, esizdan chiqdimi qizim? — dedi domla sinchkovlik bilan boqib.

— Eee ha-ya umi... — dedi u yo'qotgan o'yinchog'ini kutil-magan joydan topib olgan yosh boladek. — Siz parcha deganizga tushunmadimda domlajon. Men hikoya yodlab kelgandim, parcha-marcha qilmay.

— Xo‘p, qani boshlang unda, — dedi domla.

Gulhayo bir zum dovdirab qoldi. O‘zini o‘zi shoshqaloqligi uchun koyidi. “Doskaga chiqishga chiqding, endi o‘zingni o‘zing sharmanda qilma, hammasi yaxshi bo‘ladi”, deb o‘zini yupatdi. O‘sha oniy lahzalarda birorta hikoyani aytib, bu vaziyatdan qutulishni xayolidan o‘zkazardi. Inson hayoti davomida ko‘p insonlarni uchratadi-yu, ammo hammasini esda saqlab qolmaydi. Axborotlar tez almashinayotgan zamonda yashab, ko‘p ma’lumotlar esda ham qolmaydi. Hammasini esda saqlab qolish ham shartmas, aslida. Ammo har ikkisining ham ko‘nglingga yaqinlarigina yodingda qoladi. Xuddi shunday, ayni vaziyatda uning yodiga, bir necha oy oldin, telegramdagи sevimli kanalida o‘qigan kichik hikoya — drabll esiga tushdi. Chunki, uni birinchi o‘qiganidayoq o‘zi yozgandek tuyilib ketgandi. Tomoq qirib, taraddudlandi-da so‘zini davom ettirdi. “Muallif, Bayram Ali. Hikoya nomi esa “Qalqon”.

Opa besh yoshida:

— Oyi, ukamni urishmang, iltimos! Idishni men sindirdim” deya hikoyani boshlarkan, beixtiyor mifiktabni 5-sinfida o‘qiyotganida sodir bo‘lgan bir voqeа ko‘z oldidan o‘tdi. O‘shanda Gulhayo ham xuddi shunday jasorat ko‘rsatishiga to‘g‘ri kelgandi. Bir kuni u maktabdan kelsa, endi maktabga chiqqan katta ukasi yig‘lab o‘tiribdi. Qo‘lida esa siniq rubob. Bu rubob bobosidan yodgor qolgan edi, dadasi unga hech kimni qo‘l tekkizishga ruxsat bermasdi. Faqat o‘zi ba‘zida, ishdan juda charchagan kezları, yoki uylarida bo‘lib o‘tgan yig‘inlardan so‘ng, bir o‘zi bitta uyga kirib olib, goh mahzun, goh sho‘x kuylarni maromiga yetkazib chalardi. Ha, aynan odamlar davrasida emas, bir o‘zi yolg‘iz chalardi. Gulhayo o‘sha paytlarda bola qalbi bilan to‘liq angolmagan ekan. O‘shanda dadasi bobosini sog‘inganda rubob chalgan ekan. Yaxshi-yu yomon kunlarida bobosini sog‘inib rubob chalgan ekan... Bunday narsalarni endi-endи tushunib yetar va bu yo‘qotish dadasi uchun qanchalik og‘ir bo‘lganligini his

etardi. "Boshi tanasidan judo bo'lib", ikkiga bo'linib qolgan rubobni qo'rquvdan dag'-dag' qaltirayotgan ukasining qo'lidan oldi. "Opajon, mmmen bilmasd... endi dadam meni o'ldiradi" — deb yig'layotgan ukasining ko'zyoshlarini artdi. "Qo'rqma ukajon, hammasi yaxshi bo'ladi. Menga ishonasanmi?" — dedi o'shanda yuragi achishib. Yig'idan shishib ketgan ko'zlarini jadiratgan ukasi opasini quchoqlab oldi. O'sha kuni aytarli hech narsa bo'lmadidi. Faqat, dasasining qon bosimi oshdi. Gulhayoning rubobni tozalayman deb olib, ikki bo'lib qo'ygani uchun"...

Gulhayo rolga kirib shunday hikoya qilib berardiki, talabalar uning ovoziga mahliyo bo'lib o'tirishardi. U esa hikoyani aytishda davom etardi. "Opa o'n yoshida:

— Agar yana bir marta ukamni ursang, qo'lingni sindiraman, tushundingmi?!...

Gulhayo bitiruvchi sinfda o'qirdi. Maktabdan uyga qaytarkan chorrahada bolalarning janjallashayotgani ustidan chiqdi. Be-farq o'tib ketolmadi, hamma bolalar o'z mahallasining bolalari, ukasining sinfdoshlari edi. "Hoy, tomoshatalablar, ajratsanglar bo'lmaydimi, uyalmaysizlarmi?" Bolalar Gulini ko'rishi bilan, qochib ketishdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, yerda, tuproqqa kiyimlari qorishib, burnidan qon sizib, o'rtancha ukasi yotibdi. Gulhayoning opalik qoni qaynadi mojarokash jo'jaxo'rozlarni bazo'r ajratdi. Ko'ngli allanechuk bo'lib, ukasini shu ahvolga solgan bolaga tahdidli ovozda: Agar yana bir marta ukamga qo'lingni uchini tekkiszang... Gulhayo o'sha paytdagi g'azabdan ko'tarilgan ovozini o'zi-da taniyolmadi. Yuragida ukasining himoyasi uchun ko'tarilgan nimadir jo'sh urardi. G'azabmi, mehrmi, nafratmi, g'amxo'rlikmi yo hammasi aralashmidi. Bilolmadi. Bu nomsiz tuyg'u qaynagan paytda, jabrdiyda ukalarining poyida butun dunyonida tiz cho'ktirishga qodir kuchni his etardi. Ammo, u kasallik oldida ojiz ekan. Shifoxonaning xlor hidi kelib turadigan zallarida turib, dunyodagi eng yomon narsa ojizlik ekanligini tushunib yetdi.

“Opa yigirma besh yoshida:

— O‘zingizdan ham o‘tgandir-da kelin. Qo‘ying endi, uning o‘rniga men kechirim so‘rayman! Uyingizga qayting”.

Gulhayo ovoz tonini dam ko‘tarib, dam tushirib hikoyani ayтиб berardi.

“Opa qirq yoshida:

Dadasi, xafa bo‘lmang, iltimooos. Ukam bilmasdan gapirib yubordi-da. Bilasiz-ku, bir lov etib yonib, puf etib o‘chadi” Endi domla ham uning rollarga kirib hikoya qilishiga jurnaldan bosh ko‘tarib qarab turardi.

Ammo Gulhayo hikoyaning shu yeriga kelganda to‘xtab qoldi. Avvaliga hamma buni ataylab shunday qilyapti deb o‘ylashdi. Ha deganda u davomini aytolmay, esankirab qoldi. Oxiri toqati toq bo‘lgan domla: “Davomi esingizdan chiqib qoldimi?” deb so‘radi.

Gulhayo: “Yo‘q, — dedi tili qaltirab, — esimda”.

Domla: “Xo‘o‘sh?”

Gulhayo bazo‘r davom etdi: “Opa oltmish besh yoshida... keyingi so‘zlarni aytishga bor ichki kuchini sarf etayotgan edi, ammo ming urinmasin, tili aylanmasdi. U shuncha paytdan beri tutib turgan, kasalxonada ham to‘kmagan ko‘z yoshi hozir o‘z-o‘zidan to‘kilib ketay-to‘kilib ketay deb turardi.

Talabalar kursdoshining nima uchun yig‘lagudek ahvolga tushganiga tushunolmasdi. Gulhayo ayтиб berish uchun oxirini o‘ylamasdan shu hikoyani tanlaganidan afsuslandi. Umuman, domlasiga yolg‘on gapirganidan afsuslandi. “Yo‘q, aytolmayman domla”, — dedi yerga qarab.

“Nega aytolmaysiz?” hech narsani tushunmasdan so‘radi domla

“Chunki... mening ham ukalarim bor. Men... unday deyolmayman, aytolmayman.

Aytolmayman, hech qachon!” Gulhayo ortiq ko‘zyoshlarini tiyib turolmadi. Yig‘lab yubordi va xonadan chiqib ketdi. Ta-

labalar ham domla ham hayron, nima bo'lganiga tushunolmay qolishdi. Bu tushunarsiz vaziyatga kimdir izoh berishi kerak edi. Va bu ishni vaziyatni to'g'ri tushunib turgan Gulhayoning yaqin dugonasi qildi. "Domla... uning ukasi... og'ir kasallik bilan kurasrib shifoxonada yotibdi. Oqqon emish..."

Gulhayo esa zinalardan yugurib pastga tushar, qayerga, nima maqsadda ketayotganligini bilmasdi. Tilida faqat bir so'zni takrorlardi "Aytmayman, aytmayman, hech qachon aytmayman". Miyasida esa hikoyaning oxiri so'zma-so'z aylanardi: "Voy jigaram-ov... suyangan tog'im-ov... qalqonomooooov".

SOVG'A

Akam bilan meni ko'rganlar egizak ekanligimizga ishonishmaydi. Chunki biz bir-birimizga o'xshamaymiz. Kattalarning aytishicha esa, bolaligimizda ikki tomchi suvdek bo'lgan ekanmiz. Bitta bog'cha, maktab, litseyda o'qidik. Qiziqishlarimiz ham bir bo'lgani uchun bitta institutga o'qishga kirdik. Bundan ota-onamning boshi ko'klarga yetdi. Xullas, biz aka-singil doim birmamiz. Faqat shu narsagina oislarda qolgan oilamni sog'inganimda yupanch bo'la oladi. Ayniqsa, bugun tug'ilgan kunimda oilamning qadri bilindi. Har yili shu kun dadamlar biz egizaklarga bir xil sovg'a berardilar. Sovg'alar bir-biridan faqat rangi bilan farq qilardi. Onam esa erta tongdan akam bilan men yaxshi ko'radigan shokoladli tort pishirardilar... Bugun birinchi marta, bu kunni oilamdan uzoqda kutib olyapman. Kayfiyatim yo'qligini akamdan yashirishga urinib hazil-huzullar qilsam ham, qayoqda, darrov sezdilar.

— Zuhra, bilasan qiz bolaga sovg'a tanlolmayman. Yana sen o'luguay injiq qizsan.

— Sizga o'xshayman-da akajon, — deyman kulishga urinib.

— Xo'p bo'pti. Yur sen o'zingga sovg'a tanlashda menga yordamlashvor, — deydi akajonim ham hazil qilib. Sovg'alar

do'koniga kiramiz. Ochig'i yaltur-yultur turfa xil sovg'alarning hech biri ko'nglimni yoritolmadı. Akam buni ham sezdi. Keyin kitob do'koniga olib bordilar-da:

— O'zingga yoqqanini tanla "kitob qurti", — dedilar. Kitob qurti nima ekanligini biz ikkimiz ham bilmaymiz. Akamni koyishida ham mehr bordek. Do'koni beparvogina aylanib chiqdim. Akam ham qiziqlar. "O'zing uchun sovg'a tanla" deb meni yolg'iz qoldirib ketdila-a? Men bo'lsam, allaqachon sovg'a olib qo'yganman. Oradan ancha vaqt o'tib akam yonimga keldi. Biz so'zsiz do'kondan chiqib ketdik. Ijarada turgan uyimizga yaqinlashganimda akam sumkasidan zarqog'ozga o'rog'liq nimanidir olib,

— Bu senga. Ol, — dedilar. Zalvoridan og'irgina kitob ekanligini sezdim.

— Rahmat, — deya oldim negadir tomog'imga bir nima tiqilib.

— "Kitob qurtiga" kitobdan boshqa yana nima yoqishini bilmadim, — dedi akam mehr bilan. Men ham akam uchun tayyorlab qo'ygan, ertalabdan buyon portfelimda ko'tarib yurgan sovg'amni oldim.

— Bu esa sizga, akajon, — deb uzatdim.

— Voyy, mengami? — deb astoydil hayron bo'ldilar akam, — kutmagandim, kutmagandim, — deya gapni yana hazilga burdilar. Biz hazil-huzul va uzoq tortishuvlardan so'ng sovg'alari_mizni birga ochadigan bo'ldik. Men zarqog'ozni avaylab ochib, hayratda qoldim. Boyadan beri hazillashib, turgan akam ham so'zsiz qotgan. Biz ikkimiz, bir-birimizga bir xil kitob sovg'a qilgan ekanmiz. Meni yuragim allanechuk bo'lib ketdi. O'shanda tushunib yetdimki, kim nima deyishidan qat'i nazar biz bir xil ekanmiz.

HAR YOMG'IR YOQQANDA...

Yigit bir necha yil oldin yo'qotgan, ming axtarib hech qayerdan topolmagan kundaligini kutilmaganda topib olib, yolg'iz varaqlab o'tirardi. U kundaligiga oxirgi marta yozgan kunini eslab, uzoq xayolga toldi.

"16.03.2015

Har yomg'ir yoqqanda siz esimga tushasiz. Ikki qo'lingiz cho'ntagingizda, ohista qadam bosishingiz, o'ychan nigohlarin-giz. Qulog'ingizda naushnik, hech narsa eshitmaysiz, bilmadim qanday qo'shiq tinglayotgan ekansiz. Chaqiraman, ovozim chiq-maydi. Ismingizni aytib chaqirigm keladi, ammo uni bilmayman ham. Bilganimda ham chaqirmsadim, chunki qayrilib qarashin-gizdan meni ahvolimni ko'rishingizdan qo'rqaman".

Nihoyat, chalkash xayollarini quvish uchun qo'liga ruchka oldi va necha yillardan buyon ochilmagan sahifalarga qaltiroq qo'llari bilan yoza boshladi.

"28.03.2019

Siz yomg'irni yaxshi ko'rardingiz, har yomg'ir yoqqanda sayrga chiqardingiz. Bir o'zingiz yolg'iz. Men yoningizga borolmasdim. Keyin siz ko'rinxay qo'ydingiz, yomg'ir yoqsa-da, quyosh charaqlasa-da.

To'g'ri, bu voqealarga ko'p yillar bo'ldi. Ammo ne qilayki, har yomg'ir yoqqanda..." qolganini yozolmadi. Yolg'iz sirdoshi kundaligini yopdi.

Deraza oynasiga urilayotgan yomg'ir tomchilarining ovozi unga qadrdon, yoqimli edi. Sekingina o'zining butun orzularining to'g'anog'i bo'lgan aravachasini surib borib, derazani ochdi. Yomg'irli, toza havodan o'pkasini to'ldirib nafas oldi.

Dada dema, uyat bo'ladi!

Oilaning boshiga tushgan hamma kulfatlarning sababchi-si deb qaraladigan qizaloqning tili "dada, dada" deya chiqdi. Qizining sharmisorligidan adoyi tamom bo'lgan ona nabirasining og'ziga sekingina barmog'ini bosdi,

- Jim, dada dema, uyat bo'ladi.
- Ustoz va shogird
- Ikki domla suhbatidan:
 - Bilasanmi, men doimo o'zimga haqiqiy yo'lboshchi bo'ladigan — Ustoz izlab yashadim. Ammo, topolmadim. Nima deb o'ylaysan jamiyatimizda shunday insonni uchratmaganim fojiamizmi?
 - Bunisi bilmadim-u, ammo sen o'qitayotgan shogirdlaring ham shunday fikrda bo'lsa, unda bu yolg'iz sening fojiang bo'лади.

KUNGABOQAR

Agarda kungaboqar bag'rida asrab-avaylagan, nur bilan oziqlantirib o'stirgan "bolalarini" odamlar mag'zini yeb, po'chog'ini otib yuborishayotganini, bu ham kamdek, atrofning ifloslanishiga o'zining ham hissa qo'shayotganini bilganida edi, kungamas, yerga boqardi.

Mandan sengacha...

Mandan Sengacha atigi bir necha qadam edi...

Bormadim.

Kelsin.

Kechirim so'rasin.

Men qanchalik kerakli Insoni ekanligimni tan ololsin dedim.

Mag'rurlik qildim, balki g'o'rlik qildim.

Mandan Sengacha atigi birgina qat'iy qaror edi.

Sendan mengacha atigi birgina qadam edi...

Sendan Mengacha atigi birgina so'z, yoki qo'ng'iroq qilib sukut saqlab turmoq edi. Boshqa vaziyatlarni bilmadim, ammo o'shanda tushunmovchiliklar aro ming izohlardan ko'ra sukut saqlab turishingning o'zi yetarli edi.

Sen qo'ng'iroq qilmading.

Kelsin.

Kechirim so'rasin.
"Kerakligim" deb aytsin deding.
Mag'rurlik qilding.
Bilmadingki, er kishining egilgani O'lgani edi.
Keyin esa, Sendan maktub oldim. To'g'rirog'i maktubsiz konvert. Oppoq konvert. Ichiga... chiroqli, bejirim, nafis Taklif-noma solingan konvert.
Keyin hammasi Tamom bo'ldi.
O'zimnida yo'qotib qo'ydim
Menda rashk va (muhabbat emas, yo'q, yo'q) O'zimga aylangan Sen qolding. Seeen!
Qiziq, Senda-chi?
Senda, bu dahshatli qarorni qabul qilayotganingda, Menga nisbatan nedir qolganmidi?
U o'zi bo'lidanmidi?!

Ayt!
Arazni, g'ururni bir chetga surib qo'yib, "nimadir" bor edi deb.
Endi sukut saqlashning foydasi yo'q-ku, axir.
Ayt!
Sendan olisda, Sen-la yashagan 7 yillik (!) umrim, Sevgim... izsizlik qa'rige singib ketmaganligini...
Ayt!

Jovliyeva Dildora Orol qizi 1999-yil Samarqand viloyati Nurobod tumani Jom qishlog‘ida tug‘ilgan. She’rlari bir qator gazeta, jurnallarda chop etilgan. Samarqand yosh ijodkorlar Kengashi hududiy koordinatori.



ONA

Alloh suygan banda suyukli inson,
Zulflari yarashgan gul yanog‘ida.
Jilmayib dunyoni etar nurafshon,
Yashasin yaxshilar qalb ardog‘ida.

Mehrga burkaydi har bir tonglarni,
Yuraklarga ekib umid gullarni.
Ko‘ngillardan sirli joy olar sekin,
Robbim, o‘zing asra ojiz hurlarni.

Yerdagi farishtam qalbim ardog‘i,
Yuragimda go‘zal gulim bir dona.
Allohga suyukli elga suyukli,
Meni bor dunyoyim baxtimsiz ona.

ICHIMDA QOLDI...

Xayr deding tinglamading so‘z,
Tuyg‘ularim dilimda qoldi.
Sirdosh bo‘ldi hazon bosgan kuz,
Sevgim meni ne kuya soldi.

“Xayr” deding, o‘girilding ketding,
Ortingdan jim boqgancha qoldim.

Oh yuragim aldangan deding,
Ovutolmay juda ham toldim.

Xayr deding so'ngsiz bir sarob,
Armonlarni quchoqlab oldim.
Dunyolarim etding-ku xarob,
Oshiq ko'nglim Xudoga yordim.

Xayr deding, eh o'zing bilan,
Olib ketding bahorlarimni.
Mehr berib suyganim bog'dan,
Yig'ib oldim xazonlarimni.

Xayr deding kelibgina jim,
Alvidoni sezgandi ko'nglim.
Xo'rsingancha xohlamaygina,
Xayr dedim men ham sevgilim.

Xayr deding.....
Xayr dedim jim...

BAXT

Bellarida madori yo'q,
Ko'zlarida nuri qochdi.
Sochlariqa oq oralab,
Keksalikka quchoq ochdi.

Zahmatlarda sinaldi ko'p,
Yuragiga gardlar qo'ndi.
Keldi yaxshi yomon kunlar,
Bir tabassum bilan yengdi.

Ber sabrning mukofotin,
Ka'baga bosh urish baxtin.
Nasib etdi go'zal Robbim,
Buyuk ayol buyuk taxtin.

QALAM

Sahargi tumanlar ichra adashdim,
She'rga tashna yuragim har on.
So'z sehri yonadi qalbimda unsiz,
Tuyg'ular chorlaydi quchog'i tomon.

Maftun etar meni o'tkir nigohlar,
So'ngsiz orzularni dilga joylayman.
Manziling qayda deb so'rmang odamlar,
Qay tomon borishim o'zim bilmayman.

Faqat yuragimda otashin tuyg'u,
Qo'lga qalam berib yoz deb qistaydi.
Gohida nedandir keladi qayg'u,
Ko'nglim yonib kuymoq istaydi.

So'zlarning hajrida devona ko'ngil,
Vasl onin kutar tun-u tong aro.
Yurak darchasin ochaman bir-bir,
Rango rang jilolar beradi oro.

Hayotimda yonar buyuklik shami,
So'zlardan bo'ynimga iladi marjon.
Tumanlar qo'ynida adashganimga,
Shukurlar aytaman har lahza har on.

* * *

Ko'zyoshlar...
Jonimni o'rtaydi har bitta tomchi,
Yurakda izi yo'q alamli dardlar.
Ko'zlarim bahordan bo'ladimi elchi,
Ko'ksimdag'i gulga quyildi yoshlari.

Ko'zyoshlar...
Tun va tong oralab daydigan ko'ngil,
Chamanzor izlaydi kapalak misol.
Qahrli so'zlardan ozor chekkan dil,
Bir sirdosh tilaydi tillarida bol.

Ko'zyoshlar...
Alamda bitilgan qayg'uli ash'or,
Necha ming kishining ko'ngil dardlari.
Oltinchi bahorin ko'rolmay ketgan,
Gul qizning onaga yozgan xatlari.

Ko'zyoshlar...

SEVGI

Sevgi kemamizni yolg'iz yuborib,
Ikkimiz sohilda ajraldik mana.
Samoni to'ldirgan oqqushlar qolib,
Qora qarg'alarga boqamiz yana.

Sevgilim Layli-yu Majnun bo'ldikmi?
Savolni o'zga beraman qayta.
Yokida armonni dilga tuydikmi,
Yolg'on ertaklarni quloqqa ayta.

Yashadik aldanib oy-u yillarga,
O'tdi necha kuz necha qish bahorlar.
Sarson kezgan sevgi tariximizni,
Aytsak endi faqat tinglar anhorlar.

Sevgilim, Layli-yu Manjnung bo'ldikmi?

ILK BOR

Bugun yuragimda unutilmas kun,
Sevgimiz o'ldi-yu mozori qoldi.
Dardimni qog'oz ham qabul qilmasdan,
Qalam ham havoda muallaq qoldi.

Qurigan daraxtning holini ilk bor,
His etdim qalbimga qadaldi nastar.
Dunyoda hamma haq ekan onajon,
Shundan yuragimda ul sevgim yig'lar.

AYT, MENI...

Sirli boqib qo'yasan zimdan,
Ko'zlaringga yashirib neni.
Yuragimda tug'ilarni savol,
Sevasanmi aytgil sen meni?

She'rlar yozar emishsan ba'zan,
Marvariddek terib ismimni.
Xayolimni band etding bugun,
Sevasanmi aytgil sen meni?

Nigohlaring aqlimni oldi,
Tuyg'ular mast aylar yurakni.
Savollar-la dil yolg'iz qoldi,
Sevasanmi aytgil sen meni?

ORZULAR

Ko'zlarimga uyqu kelmagan tunlar,
Qog'oz-qalam bilan so'zlashdim biroz.
Sen-la o'tgan go'zal baxtiyor kunlar,
Yodga olsam mahzun yuragim yig'lar.

Kunlar o'tib ketdi bo'rondek tezda,
Alloh menga go'zal sabrni berdi.
Ko'zlarimda qolgan sening surating,
Ko'zyoshlarim bilan yiroqlab ketdi.

Qoldi orzularim armonlar bo'lib,
O'zim yoqqan gulxan ichra yondi.
Ko'zlarim javdirab la lillah dedim,
Karami kengligim dardimni oldi.

Men bu hayotda yashashni bildim,
Maqsadim bor mening orzularim bor.
Kim uchundir umrim qurban qilmayman,
Axir meni sevgan go'zal Robbim bor.

Sen menden ketib bevafoginam,
Meni o'zligimni qaytarib berding.
Suyganim Allah-u quchganim Onam,
Har kech tushlarimda jannatni ko'rgum.

* * *

Egnimda nochorlik libosi yamoq,
Qo'limda baquvvat bir ertak kitob.
Kimilardir kulishar qiribon tomoq,
Men parvo qilmayman ketaveraman.
Hayot bitiklarin bitaveraman!

Yaxshiga yondashib yomondan yiroq,
Qalbim yig'lasada kularman har chog'.
Nomimni yomonga yo'yinglar biroq,
Men parvo qilmayman ketaveraman.
Hayot bitiklarin bitaveraman!

Umrim sahifasin to'ldirib baxtga,
Oppoq qor misoli yog'averaman.
Mayli yaqinlarim chiqarsa yotga,
Men parvo qilmayman ketaveraman,
Hayot bitiklarin bitaveraman!

Chap ko'ksimda ungan jannatiy bir gul,
Qur'on suralari suv quyar onga.
G'iybatim qilganlar yo'q sizda ko'ngil,
Men parvo qilmayman ketaveraman.
Hayot bitiklarin bitaveraman!



Qobilova Marjona Karimjon qizi 2003-yil 2-avgust Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanida tug'ilgan. Hozirda 125-umumta'lim məktəbida təhsil oladı. İjod namunaları "Past Dərğ'om haqiqatı", "Fidoyi yoshlar", "Tong yulduzi" kabi gazeta va bir qancha bayozlarga kiritilgan. Samarqand viloyati "Yosh ijodkorlar kengashi" a'zosi.

YOSHLIK

Ko'ngillarga orom berib yangrar tarona,
Ona yurtim zaminida bugun tantana.
Yurakkinam qalqib, yonib turar hamona,
Shodliklarga to'lsin shu yurt yana va yana.

Ko'nglim qo'shiq aytar, tinglang qalbim navosin,
Dunyolarni larzaga solsin ovozim.
Ko'ksim simib olar har on yurtim havosin,
Ilgarilab ketmoqdaman baland parvozim.

Qo'lni qo'lga bering, do'stlar, bu bizning davr
Imkonimiz, kuchimizni dunyolar ko'rsin.
Yurtimizning iftixori biz yoshlar axir,
O'zbekiston buyukligin jahona bilsin.

Keling do'stlar birlashaylik ziyo bo'lmoqqa
Mahkam tutaylik qo'llarni turaylik bardam.
Yurtimizning jahon aro nomin bitmoqqa
Bog'lab qo'yaylik azizlar dillarni mahkam.

Keling, do'stlar birlashaylik ulug' kun uchun
Keling, yoshlar birlashaylik kelajak uchun.

YURAK

Sukut saqlab yotar bir sher yuragimning quchog‘ida,
Ishonganim sotar meni yoqib qiyinoq o‘chog‘ida.
Chil-chil bo‘lib ketgan qalbim titrar tanda beixtiyor
Yurak og‘rib yotar bilsang, xiyonatning pichog‘ida.

Vujudimni yoqadi cho‘g‘, kulga aylanar dil hanuz
Ko‘zlarimning qarshida tun, yakka mendan yiroq kunduz.
Tomirimda oqar olov, qorachiqlar yonar lov-lov
Jarohatli yurak kabi, titroq lablar chekar afsus.

Qullikdan qochgan tuyg‘ular izlamoqdadir boshpana
Yolg‘iz, sovuq qotgan qo‘llar issiq taftni izlar yana.
Qaro ko‘zni tark etadi, ko‘z yoshlarga cho‘mgan kiprik
Toraymoqda ishonch kabi oh-faryodga to‘lgan xona.

Chetdan bilinmas og‘riqlar hammasini yutib ichga
Baho berdi yot kimsalar kulimsirab, qarab sirtga.
Mehr yotar tuproqda zor, boshimizni qo‘ydik toshga
Tashlab qochdi mehribonim, kunim qoldi bag‘ritoshga.

Nurga to‘la edi qalbim bo‘lib qolibdi g‘amxona
O‘sha kundan dard-hasratlar boshimda ekan parvona.
Yuragimning kuni o‘tar, tabibiga bo‘lib zor-zor
Mudroq ko‘zlar, endi ko‘nglim xonadoni yo‘q ostona.

KO'ZYOSHIMSAN

Umid berib so'ng tark etgan yolg'onimsan,
Ushalmagan orzu kabi armonimsan.
Kuz Bahordek yiroqlikda biz telbalar,
Daryolardan toshib ketgan ko'zyoshimsan.

Qolishimni istamapsan qayt demading,
Kelishimdan oldin nega ket demading.
Men telbani nahot bir bor, bir sevmading,
Dengizlarga borib yetgan ko'zyoshimsan.

Ketmoqdasan, ortingda yor qoldi vijdon,
Tark etishing ko'rib ko'z yosh to'kdi osmon.
Mendan kechish nahot senga bo'ldi oson,
Yomg'irlarga aylanguvchi ko'zyoshimsan.

Titroq lablar ketarkansan nega demas,
Yurak hayron jim qotgancha savol bermas.
Ko'zlar yoshdan to'lib ketdi bo'lib sevmas,
To'fon kabi bosh ko'targan ko'zyoshimsan.

OROL

Qani o'sha go'zallik, qani sho'x to'lqin,
Qani uning ko'z yoshi javob ber osmon?
Dengizlarning xasadi keldimi tag'in
Orolimning tosh bag'ri endi qabriston.

Ko'ksingda ko'p kemalar qilardi xizmat
Qani endi gavjumlik, butun dunyo lol.
Sening bunday ketishing og'ir musibat
Ko'zimdagi ko'z yoshdek quiriding Orol!

Nahot endi suzmaydi oltin baliqlar,
Nahot endi ov qilmas ko'ksingda qarmoq.
Sayr qilmaydi nahot endi qayiqlar
Nahot endi qalbimda uyg'onar titroq.

Osmonlarga qo'shilib yig'lagim keldi,
Bu tomchilar bag'ringni to'ldirsa edi.
Yig'layotgan ko'zimni aylab begona
Ko'z yoshlarim sohilga urilsa edi.

O'TKAN KUNLAR

Nega atrof bugun saqlaydi sukut,
Nega bugun jim, sayroqi qushlar.
Kimnidir uyg'otishdan qo'rqayotgandik
Nega shamol ham shovqinsiz esar?

Mahzun jimlik kezadi oydin kechada
Nega daraxt shitirlashi kunduzdan yiroq.
Hatto ovoz chiqarmaydi burgut parvozi
Shovqindan ham sukunat qiynaydi ko'proq.

Charchadimi tebranishdan qo'ng'iroq gullar
Yoki silab o'tmadimi bu telba shamol?
Hatto tinchlik saqlaydi eng notinch dengiz
Uyqudamini tabiat bo'lib qoldim lol.

Yoki kimdir buyurdimi bo'lingiz deb jim
Nega tog'lar bag'ridan kelmaydi ovoz?
Bu shafqatsiz olam ham tinchidimi yo
Nega o'ynoqi qushlar qilmaydi parvoz?
Zerikarli ekan-ku jimjit bu dunyo
Hayqirsam ham tog'lar bermaydi sado.

Nega bugun sukutga cho'mdi bu olam
Bugun nega jimsan javob ber samo?

Yoki buning sababi O'tkan kunlar-mu,
Axir butun olamni tark etdi Kumush.
Yorsiz, yolg'iz oldi-ku mangu Otabek,
Nega endi tabiat bo'lmasin xomush???

ESLAMAYSIZ

Esingizdan chiqardingiz, bir bor kelib yo'qlamaysiz,
Yodingizga tushsam hamki, hol-ahvolim so'ramaysiz.
Avvalgidek yo'llarimdan izlarimni izlamaysiz,
Bevafosiz bag'ri qaro eslamasam-eslamaysiz.

Urmas yurak bo'lib nahot ko'ksingizdan ayrlidimmi,
Ayb mendami, yoki ortga ketaturib qayrildimmi.
Yoki sizdek beparvodek o'tgan kunni unutdimmi?
Bevafosiz bir bag'ri tosh, eslamasam-eslamaysiz.

Quyosh edim qaysi bulut visol onin tez berkitdi,
Zulmatginam sizni nurdan aytinq kimlar quvg'in etdi.
Sog'inganim sizni yana nega endi o'ylamaysiz?
Bevafosiz bedavodek, eslamasam-eslamaysiz.

Biz gullagan g'uncha edik, xazon bo'lib qurib ketdik,
Siz u yonda, men qay tomon yo'li ayro bo'lib ketdik.
Qalbingizga kimlar kirdi, ikkimiz ham yonib bitdik,
Bevafosiz begonadek, eslamasam-eslamaysiz.

SHUNCHAKI

Yana olam ko'zimga tortadi xira,
Dunyoni kezadi unsiz kuylarim.
Muhabbatdan kuymoqlik emas bu sira,
Shunchaki sarson kezar so'ngsiz o'ylarim.

Tabiatda aslida hukmron bahor,
Lekin qalbimda nechuk kuzning mezoni.
Yurakda mavj urar ajib bir viqor,
Dilda darbadar yana kuzning to'zoni.

Yil nafasi yonimdan o'tadi shundoq,
Talpinadi qalbim osmon, ziyoga.
Xiyonat azobi emas bu mutloq,
Yurak o'zga ishq bilan kelgan dunyoga.

Yig'layman oqshomlar gohi-gohida,
Shafaqdek qizarar ikki yanog'im.
Osmonga quyosh yuz tutgan chog'ida
So'nar tunni yorug' etgan chirog'im.



Muhiddin Zayniddinov 1996-yil Surxon-daryo viloyati Termiz shahrida tug'ilgan. Qozog'iston Respublikasi "Bolashak" akademiyasi farmatsevtika fakultetiga o'qishga kirgan va 2019-yildan o'qishini Samarqand tibbiyot institutining farmatsevtika fakultetiga ko'chirib kelgan, hozirda shu institut talabasi. Samarqand yosh ijodkorlar Kengashi faol a'zosi.

KERAKMAS

Daryolar, dunyolar menga kerakmas,
Kerakmas tog'-u tosh, cho'llar ham o'rmon,
Kerakmas soxtalik to'lgan nigohlar,
Faqat siz keraksiz menga onajon.
Tog'lar ham qulasin, daraxtlar sinsin,
Faqat siz egilmang, suyangan tog'im.
Qadoq kaftingizdan mehrlar ensin,
Siz-la qaddim tikdir ey otajonim.
Yoqtirsam aybmikan aytning o'zingiz
Yodimdan ketmaydi aytgan so'zingiz.
Doimo sog' bo'ling, illo ikkingiz,
Sizlarga sog'lik tilovchi o'g'lingiz.

NELAR DEDINGIZ

Bir bor ko'riboq sevdim-ku netay,
Sevgim aytay dedim, qo'ymadi ko'ngil.
Dilimni men ochgan chog'da hoynahoy,
Sevgimga ishonmay nalar dedingiz.
Xamon yuragimni qiy Naydi xijron,
Xamon sizni so'rab qo'ymaydi yurak.
Yuragimni sizga berib ochgan on,

Unutish qiyindir nelar dedingiz.
Iztirobda qoldi yuragim mani,
Nahot sevgimga siz ishonmadingiz.
Rost ekan yuragim sevib qolgani,
Sevgimga ishonmay nelar dedingiz.

BAHOR

Bahorning havosi keldi yurtimga,
Daraxtlar uyg'ondi uzoq uyqudan.
Bahorning nafasin tuygan onimdan
O'zgacha iliqlik egallar tanam.
Keladi bir zumda Navro'zi olam
Bahor havosidan yayraydi jonim.
Navro'zing muborak bo'lsin-ki, har dam
Bayraming muborak O'zbekistonim.

YO'QDIR

Ne qilaman yuragim seni,
Faqt seni, seni deydi-ku.
Sevishimni aytay deyman-u
Aytolmayman, tillarim yo'qdir.
Dilimni men ochgim keladi
Yo'llaringni to'sgim keladi.
Qo'llaringdan tutgim keladi,
Ushlolmayman qo'llarim yo'qdir.
Oshiqlarining ko'pdir bilaman,
Men ham axir seni sevaman.
Sevishimni isbotlay deyman,
Qilolmayman jur'atim yo'qdir.

QANDAY UNUTAY..?

Xayollar og'ushida ko'milib ketsam
Oromim o'g'irlab, azoblar yutay.
Men sizni bir zum ham qani unutsam
Lek unutolmam, qanday unutay..?

Yo'qoldi oromim, yo'qoldi tunlar
Tunlar ko'zlarimga uyqu kelmaydi.
O'ylayman xayolda sizni, ey dildor
Qora ko'zingizni qanday unutay..?

AYANCHLI KUN

Ayanchli kun kelmoqda bugun,
Sinfdosh tarqalib ketmoqda bugun.
To'qqiz yil o'qidik, olgandik bilim,
Endi esa tark etamiz, yurak ham tilim.
Yozishni, chizishni o'rgatdi bizga,
Ota-yu, ona-yu bo'lgan ham bizga.
Mehringiz berdingiz, ustozim bizga,
Biz ta'zim qilamiz bir umr sizga.
Muqaddas uyimsan nurli makonim,
Bag'ringda ulg'aydik, mening maktabim.
Maktabim qarshingda qilaman ta'zim,
Bizlarga bilim berdingiz rahmat muallim.

* * *

Bedor kecha ko'kka ko'z tikib,
Yulduzlar charaqlar lim-lim atrofda.
Sevgilim kaftida qultum suv ichib
Yurgan chog'larimni eslab boryapman...

Qanchalar quvonchli o'tsada kunlar,
Uyqusiz bo'lib qolsamda tunlar.
Yig'lasamda ko'zimga kelmaydi yoshlar,
Yoshligim seni qumsab boryapman...

YO'LLARIM YORUG'DIR, QORONG'U TUNLAR

Yo'llarim yorug'dir, qorog'u gohi,
Kechalar boshimda aylanar savol.
Bahor kelsa kelar qishni o'tkazib,
Lek bizlar ketsak kimlar qoladi?
Samoga uchsalar mangu ruhlarim
Yog'ochga sig'may qolsa bu tanim.
Oh urib yig'lasam ko'kdan, falakdan
Kimlardir yig'imni eshitarmikan?
O'tkuvchi yoslikdir, o'tadi odam
Bir zumda ketadi, qaytmaydi ortga.
Bizlar ham ketamiz vaqtimiz kelsa
Lek bizlar ketsak kimlar qoladi?
Yo'llarim yorug'dir, qorog'u tunlar.

XATOLIQ ERDI

Ko'nglimni oshkora aylamak uchun
Yuzlandim ul jononga xatoliq erdi.

Tunlari so'zlashgum yarodin bir-la
Lek bul ishqim o'zimga xatoliq erdi.

Garchi jarohat yetsa tanimga bir oz, bitkuchdir oxir,
Qalbga jarohat yetdi, bitmasdan oson, yomonliq erdi.

Uchib ketay yiroqlarga bo'lsaydi qanotim,
Bu manda doim xotiramdin o'tkanida gar xatoliq erdi.

Ul mani jonon bir on o'tda yondirdi,
Bilmas endi ko'nglimni hech xatoliq erdi.

Soylarida oqar endi zilol suvlar,
Suvmas endi vujudimdan oqqan qonlar erdi.

Novda kezib ketar bo'ldi o'zgadin birla,
Ortidan gar qolib ketdi o'ksik dilim xatoliq erdi.

Ey Muhiddin qalbing quroq bo'lgaydir oxir,
Bo'lsa hamki quroq anga, ne xatoliq bo'ljadi?

NETAY

Netay ikkimizni ayirdi firoq,
Hamon qo'msayapman netayin sizni.
Unutmay deyman-u yo'limiz yiroq,
Bir onda men sizni qanday unutay.

Tursunova Muhsina Abdunabi qizi 2003-yil 14-avgustda Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani Ag'ron mahallasida tavallud topgan. Hozirda tumandagi 72-umumta'l'm maktabi 10-sinf o'quvchisi. Intiluvchan, tashabbuskor ijodkor. Samarqand yosh ijodkorlar Kengashi faol a'zosi.



“YANGILANISHGA YANA BIR IMKON”

Yana o'lkamizga o'z chiroyi va tarovatini namoyish etish uchun mehr-muhabbat, go'zallik kuychisi bo'lgan fasllar kelinchagi Bahor kirib keldi. Bahorni yosh-u qari birdek sog'ingan qalblari Bahorga birdek talpingan. Barchaning ko'ngli yerdan ohistagina bosh ko'targan boychechakni ko'rish-u, qushlarning sho'x-shodon sayrashlarini eshitishga oshiqgan.

Mana o'sha kun keldi.

Bobo quyosh yerga beminnat mehrli nurlarini sochmoqda, qushlar bir-biri bilan quvlashib timmay sayrashmoqda, boychechak quyosh nurlariga erkalanib jilmaygancha yerga ko'rк berib turibdi. Ariqlar bo'lsa suvni o'z manziliga yetkazish uchun yana o'z ishini boshlashdi.

Ariqlardan oqayotgan suvlarning jildirashi, qushlarning sayrashi go'yoki Bahor madhiyasidir. Qishning sovug'idan yalang'ochlangan daraxtlar ham o'z libosini kiymoqda. Daraxt novdalari daraxtlarni kurtaklar bilan bezamoqda. Uzun, izg'irin kunlardan keyin ko'klam yuzini ko'rgan insonlarning tilida shukronalik bot-bot takrorlanmoqda. Insonlarga hech bir fasl berolmagan yangilanish-yasharish uchun imkonni fasli Bahor beminnat ulashmoqda.

Xuddiki, Bahor boshlanishi bilan hayot ham endi boshlan-gandek.

BARCHASI QIZIQ

Bir mushtimizdek keladigan yuragimizda tog'lar ko'tara olmaydigan dardni ko'tarib yurishimiz qiziq. Ichimiz to'la dard bo'lsa-yu, kimgadir quvonch ulasha olishimiz qiziq. Ko'zlarimiz g'amdan nam bo'lsa-yu, lablarimiz kulib tura olishi qiziq. G'amimizga sherik kerak bo'lsa-yu, kimningdir g'amiga sherik bo'la olishimiz qiziq. Hali bitmagan yaramizga malham kerak bo'lsa-yu, kimningdir yarador qalbiga shifo bo'lishimiz qiziq. Suyanishimizga bir yelka kerak bo'lsa-yu, kim uchundir tog'dek suyanchiq bo'la olishimiz qiziq. Qoqliganimizda tik tura olishimiz uchun bir tayanch kerak bo'lsa-yu, qoqla turib ham kimgadir tayanch bo'la olishimiz qiziq.

Qiziq. Barchasi qiziq...

YARATGANNING ENG BUYUK IJODI

Mehr-muhabbat haqida gap ketganda ilk bor ko'z oldimizga beixtiyor Onalarimizni keltiramiz. Chunki bu dunyoda har qanday holat har qanday vaziyatda ham borligimizcha yaxshi ko'rib beminnat mehrinini beradigan, dard-u hasratlarini yuragining tub-tubiga ko'mib yuzidagi kulgusini hech ham aritmaydigan yagona matonatlizot Onadir. Dunyoda qalbi dengizlardek cheksiz, quyosh nurlaridek qaynoq mehr-muhabbatga, kuchli sabr-toqatga ega inson ha u.

Farzandining qayg'usini, dard-u quvonchini o'ziniki deb biladigan matonat timsoli bo'lgan bu zotning bardoshi, sabr-u toqati, mehr-muhabbati bilan biz yashayotgan olam go'zal, yorug' va charog'ondir.

Hayotimizni dunyoning ushbu "sirli hilqatlari" siz tasavvur eta olmaymiz. Ularning qaynoq bag'ri, shirin so'zlar-yu, mehrga to'la ko'zlarini bizni yashashga olg'a qadam tashlashga undaydi. Bir bor "bolam" deb aytgan so'zi tosh qalblarni ham jum-

bushga keltiradi va bu so'z bizga dunyolarcha shodlikni beradi. O'z duolari bilan qo'llab-quvvatlashi bizni buyuk cho'qqilar sari yetaklaydi.

Omadsizlik bizni do'st bilganida esa, yagona farishtamiz bo'l mish Onalarimizdan boshqa kimsa dardimizga darddosh, hasratimizga yelkadosh bo'la olmaydi. Qalbi bizdan ranjigan bo'lsa-da, ko'nglimizni olishga ming bor harakat qilar, qalbi yig'lasa-da, barcha dard-u, sitamlarini murg'ak qalbiga yashirib, bizga shirin so'zlarini aytishdan, lablari kulgu ulashishdan tolmaydi. Hayot tashvishlari bilan kurashishdan to'yib tolgan bo'lsa-da, bizlarga dalda berishdan charchamaydi.

Bu hayotini farzandlarining baxt-u iqboli uchun bag'ishlay-digan, Yaratganning yaratgan eng buyuk ijodi — Onadir.



Usarov Tohir Suyunjon o‘g‘li 1997-yil 28-yanvar kuni Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumani Go‘zalkent qo‘rg‘onida tavallud topgan. Tumandagi 111-umumta’lim mакtabida tahsil olgan so‘ng Pasdarg‘om ijtimoiy-iqtisodiyot va servis kasb-hunar kollejini tamomlagan.

“Zarafshon”, “Ulug‘bek Vorislari”, “Jamiyat va Qonun” va shu kabi gazeta-jurnallarda maqolalari chop etilgan. Hozirda SamDAQI talabasi.

VATAN DEYDI

Ko‘ksimda g‘alayon bor,
Yurtga nafing tegsin der.
Sendan tuydim iftixor,
Alloh menga quvvat ber.

Kelajakka intilgum,
Yurtimni qilgum buyuk.
Tuprog‘ini alqagan
Derlar: — Elida suyuk.

Menga tole bergen sen,
Sen deya urar yurak.
Ko‘ngli kengga bag‘ri keng,
Senga bo‘lamiz tirkak.

DIL TUBIDA

Yana alvon uyg'ondi quyosh,
Yana seni sog'indi qalbim.
Yuragimdan tomchilaydi yosh,
O'zing yetkaz unga ey, Robbim.

Ko'zi olov, cho'g'mi bilmadim,
Har qarashda kuydirdi ko'zim.
Qay bir kuni yurak tilmadim,
Kimligimni unutdim o'zim.

Yolvordim ey, Parvardigorum,
Yo'limizni tutashtir, Xudo.
Sevgim aytmoq, yetmas madorim,
Yuragiga ishqni etgin jo.



Bekqulova Gulshoda Salohiddin qizi 1996-yil Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani Pangat qishlog 'ida tug'ilgan. 2003—2012-yillarda 40-umumta'lim maktabida ta'lim olib 2012—2015-yillarda Qo'shrabot pedagogika kasb-hunar kollejini tamomlagan. Hozirda Toshkent viloyati Sergeli mavzesida istiqomat qiladi.

Bir nafar farzandning onasi.

O'LMAS UMARBEKOVNING "ODAM BO'LISH QIYIN" ROMANI QAHRAMONI GULCHEHRAGA

Bevafo dardidan o'rtanib qalbing,
Zulmat kechalarda kezganda yolg'iz.
Yuragingda ifor taratganmidi,
Oyning yog'dusida uzilgan yalpiz.
Soddagina diling kuydirib ketdi,
O'g'irlab quvonching, o'g'irlab ko'ngling.
O'sha nomard qo'li o'zgani tutdi,
Yetim qoldi sening ishqing, tuyg'uing.
Tunlar tushlaringga kirgan sevgida,
Qoldimi zarracha, zarracha hikmat.
O'zing orzu qilgan bino bag'rida,
Jon bermoq edimi sen uchun qismat.
Maftun etmasaydi shirin so'zlari,
Fikr-u xayolingni yosh yigit ahdi.
Asray olganingda g'ururing balki
Senda ham bo'lardi bir ayol baxti...

Qizg‘aldog‘im, yaprog‘ingdan bollar totgan,
Kapalaklar izlaridan yugursaydim...
Ulug‘ tog‘ning toshlariga so‘ylab dardim,
G‘uborlarim ariguncha hayqirsaydim...

Qizg‘aldog‘im, bag‘ring dog‘lar, ne jarohat
Xavotiring daydi shamol qahridanmi?!
Xokisorim, titrab-titrab jilmayasan,
Ochiq yuzing iliq oftob mehridanmi...

Nadomatki, shamollarga qarshi turib,
Asrolmayman ko‘zlarimning qorasida.
Qizg‘aldog‘im tabiatning qonuni shu —
Hayot o‘tar ziddiyatlar orasida...

**“AFG‘ONISTONDA BOLALAR KO‘P,
AMMO BOLALIK YO‘Q”. HOLID HUSAYNIY
“SHAMOL ORTIDAN YUGURIB”.**

Qon ko‘pchiydi bositgan har qadamlarda,
Fig‘on chekar, afg‘on xalqi alamlarda,
Odamiylik yo‘qolganmi odamlarda,
Bolalarga qaytib bering bolaligin...

So‘nggi bormi dil o‘rtovchi nolalarming,
Gunohi ne nozik gul-u lolalarming,
Begonasi bo‘lmaydi-ku bolalarming,
Bolalarga qaytib bering bolaligin...

Ko‘zin ochib ko‘rgan kuni xorlikmidi,
Bir qultum suv, bir luqmaga zorlikmidi,
“Podsholigi” sho‘r qismatga yorlikmidi,
Bolalarga qaytib bering bolaligin...

Ulg‘ayganda baland uylar qurmoqchidir,
Vatan deya sarhadlarda turmoqchidir,
Biri shoir, biri olim bo‘lmoqchidir,
Balalarga qaytib bering bolaligin...

Baxtdan masrur, shodon kuylar kuylasinlar,
Onasidan alla, ertak tinglasinlar,
Adirlarda “varrakbozlik” o‘ynasinlar,
Balalarga qaytib bering bolaligin...

Urush nomi dunyolardan o‘chib ketsin,
Yuraklarga ingan dardlar ko‘chib ketsin,
Yer-samoni kulgulari quchib ketsin,
Balalarga qaytib bering bolaligin!!!

**ULUG‘BEK HAMDAMNING “MUVOZANAT”
ASARINI O‘QIB TURIB UNDAGI
OTA-ONASINI XATOLARI QURBONIGA
AYLANIB, VAFOT ETGAN JAJJIGINA
MUHAMMADJONGA ATALGAN SHE’R**

Kuzlar keldi shamollarning qo‘lin tutib
Xazon yanglig‘ ko‘nglimga g‘am to‘kiladi.
Aybsizginam shum qismatning zahrin yutib,
Jim ketganing yuragimga o‘t qaladi.

Jajji joning qiynagan shu dardlar qursin,
Darmon istab javdiradi qaro ko‘zing.
Shifokormish, najotkormish — nafs qullari
Kuldilarmi so‘ldirishib oydek yuzing.

Onang bir yon, otang ketib o‘zga tomon,
O‘ylagandi ular senmas o‘zin ko‘proq.

Dil rishtasin uzganiga jazomi ayt
Sening jonsiz jisming uzra tushgan tuproq.

Sig‘madimi shundayin keng dunyolarga,
Yerga singdi eh beg‘ubor tuyg‘ularing,
Orom olgin ruhing mangu topsin qo‘nim,
Jannatlarda yangrab tursin kulgularing...

ISYON

*Tohir Malikning “Alvido bolalik”
asari qahramoni Qamariddin
tilidan*

Isyonkor yuragim faryod qildi-ku,
Oyni ham yig‘latdi sokin tunlari...
Butun hayotimni barbod qildi-ku,
Baxtli bolalikning baxtsiz kunlari.

Men baxtli yashashga haqlimasmidim,
Baxtning yo‘llaridan qismatim ayro.
Nafrat olovida qovrildim yondim,
Yuray desam yo‘l yo‘q to‘rt yonim sahro.

Men yurgan yo‘llarning adog‘i bormi,
Men bosgan qadamda qani nihoya.
Yuragimga isyon abadiy yormi?
Nahotki hayotim g‘amli hikoya.

Endi umrim o‘tgay g‘alayonlarda,
Endi yasholmasman bir lahza sokin.
Dunyoda nohaqlik tugab bitganda,
Mening yuragim ham topgaydir taskin!

BAXT

Men bahorga o'xsholmayapman,
Ko'nglimda kuz boshlar raqsini.
Istasam ham chizolmayapman,
Ko'zlarimga shodlik rasmini.

Nahot asli qismatim shunday,
Qalbda mangu dardlar isyonи.
So'nib borar orzular shamday,
Yorishmaydi ko'nglim osmoni.

Bag'ritoshlar ranjitganda goh,
Ketaverdim jim, indamasdan.
Yozilsa ham ularga gunoh,
Yig'layverdim bir so'z demasdan.

Ammo bir bor sezmadи ular,
Menda ham qalb, ko'ngil borligin.
Mehr bilan boqgan ko'zlarga,
Nigohlarim intizorligin.

Mehrsizlar g'am osmonidan,
Charchashmadi yomg'ir yog'dirib.
Yashayapman dard ummonidan,
Baxt atalmish tomchi qidirib!

YURAGIM...

Yig'lama taqdirning izmiga ko'ngin,
Muhabbat — bu mening xayol ertagim.
Yonsang ham Illohiy bir ishqda yongin,
Qolgani shunchaki azob yuragim...

Yig'lama hammasi shunchaki bir tush,
Uyg'ongin bir yorug' tonglar otadi.
Orzular samoda uchib yurgan qush,
Go'yoki hammasi olis ketadi.

Yig'lama yuragim yetar endi bas!
Umrim soniyasin tutma dardlarga,
Endi muhabbatga qilmayman havas,
Agar usiz yetib bo'lsa baxtlarga...

Yig'lama yuragim kechirgin meni...

Jim tinglab bo'larmi ona faryodin,
Oh-u nolasiga yetarmi toqat,
Shuncha xo'rliklar-u, jaholatlarga
Isyon qilmaydimi ona tabiat:

Osmon yorilmasmi, ko'chmasmi tog'lar,
Yashin chaqnamasmi, do'llar yog'masmi.
Farzand erksizligi ko'ksini dog'lar
Onaning o'lgani asli shumasmi...

SIZNI KO'PROQ NIMA HAYRATGA SOLADI...?

Ayol qalbidagi farzandiga bo'lgan mehr-muhabbat eng oliv tuyg'u bo'lsa kerak. Ona mehri hech qanday chegara bilmaydi, ta'riflarga sig'maydi, uni faqat qalb bilan his etish mumkin.

Lekin meni hayratga soladigani bu emas...

To'qqiz oy vujudida ko'tarib yurgan, ming azob bilan dun-yoga keltirgan yuragining bir parchasidan voz kechayotgan, sotib yuborayotgan, mehribonlik uylariga tashlab ketayotgan bu ham yetmagandek, o'z farzandining qotiliga aylanayotgan "onalar"ning (rosti ona deyishga ham tilim bormaydi) qilmishlaridan ham hayratga, ham dahshatga tushaman.

Nahotki shunday insonlar haqiqatdan ham bor bo'lsa, nahotki ular bilan bir havodan nafas olib yashayotgan bo'lsak...

Har doim shunday voqealar qulog'imga chalinganda go'yo qo'rqinchli ertak tinglayotgandek bo'laman. Ishongim kelmaydi haqiqatligiga...

Bir ona qaydadir farzandining dardiga darmon istab nola chekayotgan bir paytda boshqa bir ona o'z farzandining hayotiga nuqta qo'ysa qanchalar dahshat.

Hayratlanaman: ayol qalbidagi mehrning eng yuksak namunasi va jaholatning eng og'ir darajasidan...

Osmon va yer qadar ulkan tafovut...

QAYTMAYSIZMI?

Shoir Muhammad Yusuf xotirasiga

Siz ketdingiz mangu qoldi so'zlarinez,
Qonlar yutib zor yig'ladi qizlarinez,
Jayronlarda qoldi ma'yus ko'zlarinez,
Bu dunyoga endi sira qaytmaysizmi?!
Jayronlarning ko'z yoshlarin artmaysizmi?!

Nurab borar Buxoroning minorlari,
Mung'ayadi ko'kka yetgan chinorlari,
Axir sizdek qayg'urmaydi me'morlari,
Bu dunyoga endi sira qaytmaysizmi?!
Buxoroni kaftingizda tutmaysizmi?!

Kapalaklar kutar sizni bog'da behol,
Qizg'aldoqni ranjitoqda johil shamol,
Yuragimni ezadi bir dardli savol —
Bu dunyoga endi sira qaytmaysizmi?!
Qizg'aldoqning yaproqlarin o'pmaysizmi?!

Kim erkalar endi erka kiyiklarni,
Muhabbat deb, bag'ri-dili kuyuklarni,
Bir bor eslab sizni suygan suyuklarni,
Bu dunyoga endi sira qaytmaysizmi?!
Yuragingiz olovlargaga otmaysizmi?!

Kim so'zlaydi endi bizga iymonlardan,
Lolalarni asraydigan rayhonlardan,
Mezbonini qutqarguvchi mehmonlardan,
Bu dunyoga endi sira qaytmaysizmi?!
Ko'ngil otli yo'laklardan o'tmaysizmi?!

Ulug'bekning dardlarini tinglaydi kim,
Bobur chekkan ozor uchun yig'laydi kim,
Amir Temur ruhi haqda o'ylaydi kim.
Bu dunyoga endi sira qaytmaysizmi?!
Uzr aytib Samarqandga kelmaysizmi?!

Qaldirg'ochlar sizni izlar ayvonlardan,
Tog'u toshda yig'lab so'rар jayronlardan,
Qochib bo'lmas ekan axir armonlardan,
Bu dunyoga endi sira qaytmaysizmi?!
Qaldirg'ochga taskin so'zlar aytmaysizmi?!

Siz ketdingiz bulbul bo'lib zog'lar qoldi,
Ishq yo'lida devonamas, sog'lar qoldi,
O'zbek xalqin yuragida dog'lar qoldi,
Bu dunyoga endi sira qaytmaysizmi?!
Bulbul bo'lib takror kuylab o'tmaysizmi?!

She'riyatning osmonida so'nmas yulduz,
Mangu o'chmas ortingizdan qoldirgan iz,
Nominingizni qalbimizda asragaymiz,
Angladimki, endi sira qaytmagaysiz,
Lek, bir lahma yuraklardan ketmagaysiz!

Norqobilova Nilufar G'ofur qizi 2003-yil 11-yanvarda Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani "Qatorterak" mahallasida tavallud topgan. Hozirda tumandagi 17-umumita'lim maktabining 11-sinfida tahsil olmoqda. Sainarqand yosh ijodkorlar Kengashi a'zosi.



ONA

Tashlab ketar bir kun suygan janona,
Onangdek bo'lolmas hatto qaynona,
Ikkita bo'lmaydi hech qachon ona.
Bahoroyni hali ko'p bor ko'rasiz,
Nasib etsa hali yuzga kirasisiz.

Yillar o'tib o'zgarsa ham zamona,
Atrofinda bo'lsa ham ming parvona,
O'rnningizni bosolmaydi qaynona,
Boshim silab har gal duo qilasiz
Nasib etsa albat yuzga kirasisiz.

HASRAT

Bir kun xayolimni chulg'asa hasrat,
Agar ko'zyoshlarim timmay qo'ysachi.
Qo'rqlayman o'limdan, vahimalardan,
Qo'rqlaman ko'zlarim ko'rmay qolsa-chi.

Ko'ra olmasam gar onam yuzini,
Tongdag'i shabnamdek yo'qolsam tolib.
Oyoqlarim bir kun yurishdan tonsa,
Kimgadir zor bo'lsam, g'urutim qolib.

Qo'rqaman yuragim urishdan to'xtab,
Otam orzulari sarob bo'lsa-chi.
Mehnatim ortidan ko'rmay ro'shnielik,
Dushmanim ortimdan xandon kulsa-chi.

Bilmayman men hali qancha yashayman,
Farq qilmas kim meni qanday atashi
Ammo butun umr maqtaganlardan,
Talashib-tortishib yurgan yor yaxshi.

Xazonga aylanib ketsa gar umrim,
Eslolmas bo'lsa gar do'st-qadrdenlar.
Yonimdan do'st ortdan pichoq urganda,
Afzalroq tuyular hatto dushmanlar.

TAQDIR

Yaqinlatmas endi bizni qadamlar,
Yurgan yo'llarimda barchasi tuzoq,
Siz tomon borar yo'l ancha mashaqqat,
Uzoq...

Men bugun yerdaman siz esa ko'kda,
Jonim hadya etay qo'llaringizga.
Singlingiz qoldiku, termulib uzoq,
Yo'llaringizga...

FALAK

Javob ayla menga ey, falak,
Nega bugun jimsan, parishon.
Yulduzlarинг sochmayapti nur,
Oy ham yo'qdir qo'yningda hamon.

Quyoshning ham tobi yo'q ancha,
Majburlikdan sochmoqdəmi nur.
Yoki biror inson dastidan,
Togolmaydi hech qachon huzur.

TASHAKKUR

Shuncha yiil yashabman, nolib yashabman,
Alloh bergeningga shukrona aytmay.
Ko'rsatgan kuningga, bergen umringga,
Hamdlar aytmasdan yashabman qanday?

Yo'q debman boriga qanoat qilmay,
Ba'zida yig'labman o'zimcha men haq.
Sekin-astalikda hayot ko'rsatdi,
Dunyoda kim haq-u kimligin nohaq.

Shukrki yonimda ota-onam bor,
Dono singillarim, erkatoy ukam.
Shukrki baxtim bor, sog'dir to'rt mucham
Endi ayting, menda nima kam?

BAG'RITOSHLAR

Jannat onalarning oyoq ostida,
Deymiz-u adashgan bo'lamiz nogoh.
Bag'ritosh onadan, nodon otadan,
O'zing asraginda ey qedir Alloh.

Murg'ak yuraklarni g'amlarga ko'mib,
Voz kechib ketishar o'zga yurtlarga.
Vaqt o'tar, xatosin qaytar tushunib,
Keyin qanday mehr berar ularga.

Oylar zum o'tadi, ketidan yillar,
Ko'zlar ni chun yosh kelishar yig'lab.
Afsus kechikkandi, sovigan dillar,
Farzandi bo'yłari qolgandi bo'ylab.

Ular o'ylashganda kam-ko'sti bitib,
Kelsam goh farzandi yugurib kelar.
Onajon deydi u baxtdan entikib,
Go'dakdan o'tganin qayerdan bilar.

Oqshomlar yig'lab gar injiqlik qilsa.
Yupatgan onamas, yot begonalar.
Bemor bo'lsa agar tunlari bedor,
Onam qani, deydi dil vayronalar.

Ona, beradigan ovqat, kiyim-bosh,
Hammasi muhayyo, lek nimadir kam.
O'ksik yuragiga allane yetmas,
Ko'nglin og'ritadi kichik zarra ham.

Chunki, ko'ngli o'ksik, yuragi yarim,
Unga ortiqchadir sizning so'zingiz.
O'zgani yaqin der, jonim-jigarim,
Sizni uyda kutar o'g'il-qizingiz.

Bu dunyo omonatin berar chog'da,
Tebut ko'tarmaydi topgan pulingiz.
Siz pulni dedingiz, ular-chi sizni.
Zoye ketdimikin shuncha umringiz.

YANGI YIL

Osmonlarni to'ldirib asta,
Qorparchalar o'ynab tushmoqda.
Yer yuzini qilib oq ko'rpa,
Ko'nglimizga zavq ham qo'shmoqda.

Bolalarning ko'zida quvonch,
Bir-biriga qorbo'ron otar.
Ba'zilari uchadi chana,
Yana kimdir qor uzra yotar.

Go'zal qishning ajib ziynati,
Do'stlar shodlik ko'z-la boqadi.
Har faslning o'z tarovati,
Lek qish menga juda yoqadi.



Rayxona Axmedova 2005-yil 8-dekabrda Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani Iskandari mahallasida tavallud topgan. Hozirda tumandagi 33-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi. Qator bayozlarga she'rlari kiritilgan. Samarqand yosh ijodkorlar Kengashi a'zosi.

Tongda uyg'ongin sen tabassum bilan,
Borliqning chiroyi, sen gulga aylan.
Zarracha yurakda bo'lmasin g'aflat,
Yurakka ekib qo'y mehrni albat.

Bu dunyo sinovi bilib ol abad,
Qilmagin birovga qilmoqni da'vat.
G'am-u anduhlaring to'lat quvonchga,
Hayoting mazmunli o'tadi albat.

DUNYO

Bu dunyo kam-ko'stin to'ldirar odam,
Lekin barchani ham qiynaydi alam.
Orzuli yurakka yo'latmaydi g'am,
Maqsadli insonlar bo'ladi omon.

Bu dunyo har ishi mashaqqat sinov,
Odam o'zi uchun haqtalab har on.
Nelarki bo'lмаган jahonda inon,
Dunyo mashaqqatin yenggin sen inson!

TABIAT VA RASSOM

Chizaverar rassom olam sehrini,
Bahor faslidagi gullar mehrini.
Tog', dala, suv oqar katta anhorlar,
Rassomga ilhom baxsh etar nahorlar.

QADRI YO'QMI?

Kitob varaqlari zar oltinlardan,
Yaralmish eng go'zal yolqinlardan.
Bilim berar senga baxtingdan ortiq,
Kitob tafakkurni etadi tortiq.

Senga inoyatlar qilgay buyuk zot,
Dunyoda foydasi tegadi katta.
Kitob o'qimasdan uning qadrin top,
Kitob-la kam bo'lmas inson albatta.

* * *

Do'sting bilsin qilgan har bir ishingni,
Onang bilsin yurakdagi siringni.
Har bir oning bo'lsin ezgulik taraf,
Dardlaringni Alloh qilgay bartaraf.

Niyat bo'lsin yurakda oppoq parda,
Dunyo ishlaridan qolma armonda.
Boshpanasiz qolganlar-ku sarsonda,
Adashmagin bu hayot bir savdoda.

YAXSHILIK

Yaxshilik ber dillarga,
Yolvoraman Allohim.
Ezgulik ber ishimga,
O'zing bo'lgin panohim.

Yashagan tirik jonga,
Risq-ro'z, baxtni ulashding.
Qalblarga umid berib,
Ezgu yo'lida qo'llashding.

Men ham bitta bandaman,
Yo'llagaysan saodat.
To'g'ri yo'lga boshlaydi,
Buvim qilgan ibodat.

MITTI NIHOL

Ikki kaft o'tasida,
O'stirdilar bir nihol.
So'nmasin umid gulim,
Egik bo'lmas, qaddi dol.

INSON

Yaxshi ishlar kelar qilsa qo'lingizdan,
Baxtni tilang, gul unadi yo'lingizdan,
Faqt baxt ko'rasisz o'ng-so'lingizdan.
Yomonlikdan yiroq bo'lgin, yaxshi inson,
Bari yaxshi bo'lar faqt shunga inon!

Umidjon Muhammatov 2004-yil 14-noyabrda Samarqand viloyatining Ishtixon tumanida tug'ilgan. Dastlab, Ishtixon tumanidagi 72-umumut'limga muktabida tahsil olgan. Hozirgi kunda Samarqand shahridagi ixtisoslashtirilgan 60-maxsus muktab-internatining 9-sinf o'quvchisi. Samarqand yosh ijodkorlar Kengashi hududiy koordinatori.



* * *

O'ziga chorlaydi yerning nayrangi,
Ko'zimga ko'rinnmas qora tuproq.
Ko'zimni oladi samoviy rangi,
O'sha qor kabi dardlarim oppoq.

Ko'changdan yuraman yurakni quchib,
Derazang ko'rinar va pastqam devor.
Bir kuni yoningga boraman uchib,
Va ko'nglimdagini etardim oshkor.

Bugun yuragimga yog'moqda qor,
Ko'nglimni ham muzlatib qo'ydi.
Seni sevaman desam ham yuz bor,
Ishonmadi, hazilga yo'ydi.

Kipriklarim siypalab yog'ardi qor,
Derazang ortida turar eding jilmayib.
Ichimda shivirlayman "yoniga bor",
Afsus, yoningga borishga jur'atim mayib.

Yoningdan ketaman, tezlashar qadam,
Bir kuni albatta qaytaman.
Yurakda qolmaydi nadomat, alam,
Bir kun hammasini aytaman.

* * *

Uzoqdan taralar sokin kuylar,
Tun bo‘yi yig‘latib bermadi uyqu.
Hajrdan qiyinalar ikki ko‘ngillar,
Yurakni o‘rtardi notanish cholg‘u...

Xayollarim qul bo‘ldi qayg‘uga,
Ishq shodligidan etdi furqat.
Imkon berildi so‘nggi orzuga,
U haqida o‘ylashga faqat.

Sof hislarim qayg‘uga sherik,
Kuy tinardi ahyon-ahyonda,
Holsiz tanim hali ham tirik,
To‘y bo‘lardi qo‘shni tomonda.

O, yana o‘sha kuy, yana o‘sha firoq,
Bir ko‘ngillardan ketdimi ozori.
Yurakda boshlanar yana o‘sha titroq,
Zaminni tutgandi to‘yning yor-yori.

Yuragimni o‘rtardi notanish cholg‘u...

* * *

Sabr tilayman senga bahorim,
Bizni bedor kutganing uchun,
Sen yig‘lama ko‘nglimda borim,
Unga kelib aytganim uchun.

Hasratingni bag‘rimga ekdi shamollar,
Beg‘araz tuyg‘ularni ko‘nglingga soldi.
Kecha qalbingdan yilib otgan xayollar,
Mening tog‘ ko‘kragimga sanchilib qoldi.

Mayli, ketaqolgin, ortingga boqmay,
Meni dardlarimni qilma tasavvur.
Seni jamolingni bugun tong otmay,
Mening qonim bilan chizdi musavvir.

Jonim qolmadi hech, lek ruhim bisyor,
Sening yuragingni imlab chaqirgim.
Olovdan chiqqandek yuragim ilk bor,
Tomog'imni yirtib keldi baqirgim.

Sening izlaringdan topmadim najot,
Qaniydi etolsam umrimni tortiq.
Bugun ko'kragimga tig' urdi hayot,
Xayolimni esa sovurdi borliq...

* * *

O'tdi qancha tunlarim bedor,
Dunyo ko'rindi ko'zimga tor,
Sog'inch tinmay beradi ozor.
Uxlolmadim axir, sira tonggacha,
Onamni sog'inib yig'lagan kecha.

Sog'indim, nuri ketgan ko'zingizni,
Sog'indim, "bolam" degan so'zingizni.
Dunyolarni chetga surib qo'ydim-u,
Sog'indim, mehribonim o'zingizni.

Onamni eslasam shod bo'lar ko'nglim,
Ko'zimga ko'rining tushimda, o'ngim,
"Onam qayerda" deb so'raydi singlim.
Sog'inib- yurakni tig'lagan kecha,
Onamni sog'inib yig'lagan kecha.

Shahid ketgan Vatan himoyachilariga bag'ishlanadi
* * *

Salom ona yer, ey aziz tuproq,
Quchog'ingga qaytdi mard bir o'g'lon.
Gapirmang unga, demangiz qo'rqoq,
Shahid ketdi, bo'ldi bir qahramon.

Ularni qo'llaydi yaratgan Alloh,
Qaddini tutdi tik, egmadi boshin.
Yuragini izlab kelgandek nogoh,
Ko'ksida chaqnaydi olov qo'rg'oshin.

Aytolmayin so'nggi so'zini,
Oh, tuproqqa berdi joni-yu tanni.
Asrolmadi o'zini, ammo,
Yurakda asradi ona Vatanni.

Ana yuguryapti ko'chada yoshlik,
Ammo, ko'ngil undan qaytolmayapti.
Eh, ko'chada esa bir qalam qoshlik,
Ko'nglida tuyganin aytolmayapti.

Zamin titrayapti oh-u faryodingdan,
Nega yumulyapti, ayt, ma'yus ko'zlarin.
Hey sodda bola, chiqdimi yodingdan?
"Men albatta" qaytaman degan so'zlarin.

Ko'zlarimga yosh keldi tizilib,
Voh, yurak ezilyapti, ko'ngil satpora.
Hey, dovyurak yotmagin cho'zilib,
Seni kutayapti onajoning, qara,
Seni kutayapti qoshlari tim qora.

* * *

Qorong'u tunda yotibman yolg'iz,
Yelkamni berib nam, zaxli bir yerga.
Xayollar chalkash ketadi g'arib,
O'zimni o'ylamay ketar qayerga?

Zo'r dardlardan bo'lsamda xolos,
Dunyo menga sukutni ko'mdi.
Butun borliq chiqarmay ovoz,
Butun borliq uyquga cho'mdi.

Shunday jimlik, shunday sukunat,
Eshitilmas itlarning hurishi.
Sukunatni buzib turardi,
Yuragimning to'xtovsiz urishi.

* * *

Simirib tashladim quyosh nurini,
Yuzi qizardi bo'ldi labi qontalash.
Endi yengib bo'lmas dil huzurini,
Endi o'lim bilan bo'ldik jontalash.

Jimlik! Go'yo bari bo'lgandek barbod,
G'avg'o tushar ko'ngil shu'rige.
Sekin qo'llarimdan o'sganda qanot,
Singib ketar edim quyosh nuriga

* * *

Nazmiy qanotim

Xayolot menga so‘zlarin sotar,
Qog‘ozni bezaydi qo‘l emas g‘urur.
“She’riyat” degan tog‘ yastanib yotar,
Oldimga qarayman shahd ila mag‘rur.

Qo‘llarimdan o‘stirib qanot,
Qushlarni sayratib keladi uchgim.
Jilovin bo‘shatib orzularimning,
“She’riyat” tog‘ini keladi quchgim.

Lek, chiqish mushkuldir tog‘ning uchiga,
Senga yo‘l bermaydi yovuz qoyalar.
Tayanib chiqasan bilak kuchiga,
Keyin chiqaradi zinapoyalar.

Bir kuni tog‘larga qilarman parvoz,
Orzuda o‘tmaydi mening hayotim.
Ortimda qolganlar bo‘lsin sarafroz,
Meni uchiradi yozgan bayotim.

* * *

Onam uchun gul
Salqin shabadalar esarkan endi,
Tongda pichirlaydi bahoriy nafas.
Mening ham bir faslim bo'lganda edi,
Birga qilar edik bahorga havas.

Tog'da lola o'sganin bildim,
Erta bahor kutardi ular.
O'sha paytda neni his qildim?
Onam uchun terganda gullar.

Ko'ksimni yondirar bir quchoq lola,
Yo'llarda hayqirib she'rlar aytganim.
Chopishni ham bilmas, bir sodda bola,
Yo'llarda yiqlib yig'lab qaytganim.

Uygacha yiroq, olis-olis yo'l,
Bahor faslin sevmayin men nechun?
Bir quchoq lola, ko'ksim to'la gul,
Faqt onam uchun, onam uchun.



Ruxshona Ismoilova 2005-yil 19-aprelda Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanida tavallud topgan. She'r va maqlolalari "Past Darg'om haqiqati" gazetasida chop etilgan. "Ona yurtga umrim baxshida" bayoziga ijod namunalari kiritilgan. Hozirda tumandagi 72-umumita'l'm maktabida tahsil olmoqda.

SAMARQANDIM

Necha-necha ming yildan
So'zlab turar Samarqand.
Avliyolar yurtidir,
Ro'yolar berolmas pand.
Registon, Bibixonim
Ezgulikning makoni.
Ulug'bekni yod etgan
Zotning baxtli har oni.
Samarqandim, faxrimsan.
Dilga g'urur solaman,
Seni maqtasalar men
Yulduzga yo'l olaman!

YURT SOG'INCHI

Naqadar buyuksan, naqadar aziz
Ta'rifingga hech so'z topolmasman, man
Firoq chulg'ar qalbim bir zumda sensiz
Agar o'zga yurtda bir zum yashasam.
Sog'inaman senga sog'inchim oshkor,
Bahorda gullagan gul bog'laringni.
Senda bir o'zgacha go'zallik bisyor,
Qaddimdek tik tutgum alp tog'laringni.

YOSHLIK

Bahor oftobidek charog‘on yoshlik
Meni tashlab ketma, iltimos hech ham.
Ba’zida bo‘ladi ozroq beboshlik,
Ulg‘ayganim sari qalbda bo‘lar g‘am.
To‘xta, qayoqlarga shoshding, bunchalar
Hali senla bo‘lay bir lahza qolgin,
Hech bo‘lmasa shu tong otgunga qadar,
Yoshlik, yoshligimni yodimga solgin!

BOYLIGIM OTAM

Otajonim siz mening davlatimdirsiz,
Qalbi muzga mehr urug‘in sochgan.
Farzandlar ko‘nglida ochilmas sirsiz
Bardoshingiz hatto tog‘lardan oshgan.
Qaddingiz, qadringiz balanddir doim
O‘tgunchi dunyoda qiyalmang hech ham.
Umringiz, baxtingiz bo‘lsin-da to‘kis,
Ota siz umrimni yorutguvchi sham.
Qalbingizda alam bo‘lsada ammo,
Ko‘zingiz kuladi tutmasdan motam.
Hayotimda sizla bo‘lmas muammo,
Siz menga jannati insonsiz Otam.

ONA

Ona zahmatingdan gullaydi toshloq,
Mehringdan muz qalblar erib ketadi.
Bir umr mehnatda qo‘llari qadoq,
Borini bizlarga berib ketadi.
Yonasan, kuyasan farzand g‘amida

JSC qadarn

Kecha-yu kunduzi duoda qo'ling,
 Ko'zlarindan oqqan yoshlar namida
 Dengiz bo'lar sahro bo'lganda yo'ling.

QALB O'KINCHI

Yuragimni chulg'ar firoq, dard, alam
 O'kinchdan baqirgim kelar erinmay.
 Shu onlar qo'limga olaman qalam
 Dardlarim yozaman qog'ozga tinmay.
 Yagona dardkashim shu qog'oz-qalam,
 Yurakdag'i barin shunga etdim jo
 Ko'zimga qorong'u, hattoki olam
 Azoblar ichimni qildiku ado.
 Dard buncha shavqatsiz, alamli dunyo,
 Hayot zarbalar bunchalik qattiq.
 Meni azoblaydi bundayin g'avg'o
 Yana ne qilayin bundan ham ortiq.
 Sig'mayman ba'zida keng bu olamga,
 Ojizman, go'yoki muzlagan tanam,
 Parvo qilmas hech kim mening nolamga,
 Achinadi faqat mushtipar onam.

* * *

Allohdan o'zga bir do'stim yo'q mening,
 O'ylamang sira kam-ko'stim yo'q mening.
 Siqilmang sizda hech qasdim yo'q mening
 "Dardimni ichimga yutib yashayman".
 Gar kulsam hasaddan g'amga botasiz,
 Haq bo'lsamda tuhmat toshin otasiz.
 Pul uchun vijdanni pulga sotasiz,
 "Dardimni ichimga yutib yashayman".
 Hayotim zulmatdir, bardoshim chiroq,

Matonat mevasi bo'lar totliroq.
Yoningizda kulib turaman, biroq,
“Dardimni ichimga yutib yashayman”.
Sabrimning nomini kuchsizga yo'ymang
Andisham otini qo'rkoq deb qo'ymang..
Parvoysi falak deb siz sira kuymang
“Dardimni ichimga yutib yashayman”.
Bemorligimda hech yo'qlab kelmaysiz,
Savlatli onimda yondan jilmaysiz.
Aslida siz buni aslo bilmaysiz
“Dardimni ichimga yutib yashayman”.

MEN SIZNI...

Ortimdan har xil gap, g'iybat qilganlar,
Ko'zimga tik boqib qalbim tilganlar.
Gar xato qilganda ordan kulganlar
Eshiting, men sizni Allohga soldim...
Sizni suydim Alloh uchun do'stim deb,
Sizchi yashadingiz pul g'amin yeb.
Dunyo abadiymas chirangan mang hadeb,
Eshiting, men sizni Allohga soldim...
Kamsitdingiz ko'p ichida ko'rganda,
Gerdyingiz ko'cha-kuyda yurganda.
Dushmanim o'ch ol deb aytib turganda,
Eshiting, men sizni Allohga soldim.
Yurak azob chekar, eslasam e-voh
Lek qasos olmadim, qilmadim gunoh,
Tepamda, tepamda turibdi panoh,
Eshiting men sizni Allohga soldim...



Yo'ldosheva Dildora Sunnatulla qizi 2004-yil 23-oktabrda Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani Temur Xo'ja mahallasida tug'ilgan. Tumandagi 69-umumiy o'rta ta'lif mabkabi 9-sinf o'quvchisi. Samarqand yosh ijodkorlar Kengashi a'zosi.

BAHOR

Qani-qani kel, bahor,
Senga farzand bo'lgim bor.
Chuchmoma, yalpiz, jag'-jag'
Ne'matingdan tergim bor.

Qani-qani kel, bahor,
Eriy qolsin so'nggi qor.
Navzo'zning nafasidan
Yashnasin ozod diyor!

DO'STLAR

Shunday do'stlar bordir dunyoda
O'z do'stiga jonin beradi.
Shundaylar bor do'stin kmsitar,
Davralarda ko'krak keradi.

Yomonlarda nima qilsin or,
Yaxshilarning qalbida bahor.
Yomon odam keltirar nafrat,
Yaxshilikka intil sen faqat.

Yaxshilarga aytamiz rahmat,
Deydi doim o'rtog'im Ahmad.
Yomonlarga berar maslahat,
"Yaxshilikka ergashing faqat".

TAQDIR

Kim ham bilar o'z taqdirini,
Asta-sekin yillar o'tmoqda
Peshonangga yozilgan inson,
Orzular-la seni kutmoqda.

Sabrliga omad yor derlar,
Bardoshidan chiroyli turmush.
Qo'lin tutar vafodor yori,
Gulga to'lar uning gulzori.

KUZ

Yurtimga oltin kuz kirib ham keldi
Fasldan darg'azab shamollar yeldi.
Barglar misoli oltindek bo'ldi,
Qalbimiz ajib bir quvonchga to'ldi.

Paxtalar terildi qor kabi oppoq,
Hammayoq oltinrang jiloga to'ldi.
Chiroyli manzara kel, endi bir boq,
Oltin kuz yurtimning mehmoni bo'ldi.

ATIRGUL

Bog'imizda bordir atirgul,
Uni ko'rgach sayraydi bulbul.
Bunday go'zal, bunday beg'ubor,
Gulga to'ldi ajib bu diyor.

Hali hanuz ochilib turar,
Barcha unga mahliyo bo'lar.
Qo'lim bormas olib uzishga,
Chiroyini doim ko'rishga.

TABIAT

Daraxtlar shivirlashi,
Tongdan xabar beradi.
Gullar turfa ochilib,
Chamanga zeb beradi.

Qushlar qo'shiq kuylaydi,
Doim tinchlik o'laydi.
Maysalar ham ba'zida,
Shamol bilan o'naydi.

Yomg'irlar ham bahorda,
Tinim bilmay yog'adi,
Bu esa qalbimizni,
Ilitadi, yoqadi.

O'zgachadir havosi,
Barchaga xo'p yoqadi,
Ariqdagi suvlari,
Doim tiniq oqadi.

Asli bular barchasi,
Tabiatning mevasi.
Atrof, olam o'zgacha,
Musaffodir havosi.

Xudoyim bergen menga,
Ajoyib qobiliyat.
Asli meni sevganim,
Bog'lari bor tabiat.

QISH

Kumush qish yurtga keldi,
Yana dashtlar oppoq qor.
Shamollar tezda yeldi,
Oqqa to'ldi bu diyor.

Agar bilsang qish fasli,
Oqlikka berar qalbing.
Ulg'ayasan nur bilan,
Oppoq bo'ladi yo'ling.

BUVIJONIM

Sizni yaxshi ko'rishim,
Bilardingiz buvijon.
Qalbda cheksiz mehr-la
Kulardingiz buvijon.

Mening qizim derdingiz,
Doim meni erkalab,
Duolar qilardingiz,
Har tong sahar, ertalab.

Nimagadir ko'nglimda,
G'ashliklar paydo bo'ldi.
Singiljonim Ruxshona,
Uyga yugurib keldi.

Opam dedilar unga,
Nega yig'laysan, nega,
Singlimchi asta-sekin,
Ko'z yoshini artardi,

Buvijonim haqida
Yomon xabar aytardi.

Qalbda tug‘yon boshlandi,
Ko‘ngil g‘amdan g‘ashlandi.
Munchoq-munchoq ko‘zlarim,
Hayratlandi, yoshlandi.

Uch, to‘rt kundan keyin ham,
Hech o‘zimga kelmayman.
Bu tushimmi, yo o‘ngim,
Hech nimani bilmayman.

OTA-ONA SOG‘INCHI

Tezda kunlar ham o‘tar,
Farzand doimo kutar.
Dardlar, alamlar yutar,
Do‘satlari qo‘lin tutar.

Ammo murg‘ak qalb yig‘lar,
Dushman yuragin tig‘lar.
Ota-ona sog‘inchi,
Doimo uni qiynar.

Alloh unga sabr ber,
“Menga mehr kerak”, der.
Ota-ona haqida,
Doim qalbdan yozar she’r.

Kimlardir farzandga zor,
Qishlar o‘tar yog‘ar qor.
Ey Allohim bu ko‘zlar
Bilsang, mehrga intizor.

Yolg'iz inson qalbi ham,
Yolg'izlikdan iborat.
Parvardigor unga ham,
Yaqin bir inson jo'nat.

SINGILJONIM

Tog'ajonim qizchasi,
Ayajonimning o'zi.
Tog'ajonim erkasi,
Yangajonim yulduzi.

Akasi-chi Behruzbek,
Doim yurar baxtiyor.
Unib-o'sib ulg'aysin,
Akasidek Shaxriyor.

O'zi juda mehrli,
Ko'zлari-chi sehrli.
Yuzi suluв, qosh kamon,
Qiқirlab kular har on.



Odiljon Rashidov Samarqand viloyati Past-darg'om tumani 9-umumiy o'rta ta'lif muktabasi 10-sinf o'quvchisi.

VATANIMGA

O'zimning bag'rikeng onamsan vatan,
Sen nurli o'lkasan O'zbekistonim.
Senga fido aylay umrimni abad,
Sen mening hech so'lmas chamanistonim.

Sen mehr quyoshi, sen yorug' oyim,
Senga maftun bo'lgan necha odamlar.
Yorug' olamdag'i tafsiz chiroyim,
Havasla boqarlar necha olamlar.

Dilkusho hayotbaxsh go'zal bog'laring,
Qaqrab yotgan cho'ling tog'laring suyuk.
Qalbingdag'i mehr, nur chirog'laring,
Bizga berar baxting naqadar buyuk.

Qadring bilmaslarga aytaman alyor,
Boring shu Vatanga qulluqlar qiling.
Ona muqaddasdir Vatan betakror,
Onadek Vatanni ardoqlang, seving.

Olloh dunyoni sen paydo aylading,
Qorong'u kechang bor yorug' kunduzing.
Yaxshini yomonga dushman saylading,
Berguvchi o'zingsan, olguvchi o'zing.

Kimlarni yayratding jannat bog‘ida,
Kimlarni farzandi yod tuprog‘ida.
Kimlar yetim qoldi yoshlik chog‘ida,
Berguvchi o‘zingsan, olguvchi o‘zing.

Bir kam dunyolaring turar oldimda,
Yolg‘on-u ro‘yolar endi oltindan.
Tongda she’rim yozdim bor bisotimdan,
Berguvchi o‘zingsan, olguvchi o‘zing.

MING BORA UZR

Ko‘nglimdagи, tilimdagi bo‘lgan yorim,
Gulim eding qalbimdagi menga manzur.
Dilim o‘rtar yonimdagи bir armonim,
Aytilmagan sevgi izhor sendan uzr.

Yor ham ketdi uzoqlarga olislarga,
G‘iybat bo‘ldi kuchi yetmas og‘izlarga,
Endi men ham do‘s tutindim yolg‘izlarga,
Aytilmagan sevgi izhor sendan uzr.

Uzr deyman sevgi izhor sendan yana,
Xafamisan ey dardakashim menga qara,
Ming urinmay endi qaytib kelmassan-a,
Aytilmagan sevgi izhor sendan uzr.

YOSHLIK KETMA

Umr daftarining ayni bahori,
Go'yo go'zal gulning ungar niholi,
Umr karvonining shohi sardori
Ey yoshligim, ketma mening yonimdan.

Sening qo'llaringni tutganlar qancha,
Yoningga borolmay so'lganlar ancha,
Kelgin do'st yashaylik umr o'tgancha,
Ey yoshligim, ketma mening yonimdan.

Har ishga qodirdir yolg'iz Ollohim,
Kechirsin bilmayin qilgan gunohim,
Bir umr yechilmas mantiq, so'rog'im,
Ey yoshligim, ketma mening yonimdan.

IQROR

Endi menga sevgi begona,
Muhabbatni aslo bilmayman.
U qalbimda edi yagona,
Bo'ldi endi qaytib sevmayman.

Sevgi nima anglay olmadim,
Bir so'zini tinglay olmadim,
Sevgan gulim siylay olmadim,
Bo'ldi endi qaytib sevmayman.

Sevgi birla mastona bo'ldim,
Alamimdan ming pora bo'ldim,
Sevganimni sevgani do'stim,
Bo'ldi endi qaytib sevmayman.

Sevgi shumi menga vafoying,
Qalbda edi so'nmas navoying,
Senga tobe Odam Atoying,
Bo'ldi endi qaytib sevmayman.

YIROQ

Hamon yodimdasan ey go'zal dildor,
O'zimga sezilar ajib bir titroq.
Ko'nglim unsiz yig'laydi sirdosh,
Mendan olisdasan oydanda yiroq.

Atirgulim atring endi taralmaydi,
Boshqa bog'bon bog'idasan mendan olis.
Endi ko'zim nafis gulga qaramaydi,
Nazirimda bir umrga men ham yolg'iz.

Chiroyligim sho'x soyligim bo'lgin baxtli,
She'rلаридан yor topolmay yuzim burdim.
Sinovlarda bardam bo'lgin va bardoshli,
Atirgulni kuyga solgan navo bo'ldim.

GUNOH YO'Q

Baland tog'ning cho'qqisida qalin oppoq qor,
Menda, sizda bilmam qancha gunoh bor.
Qiynasa qiynasin, qiynasin takror,
Biling muhabbatda aslo gunoh yo'q.

Avvalo muhabbat bo'lgay Robbimga,
Jigarim, qarindosh so'ngra yorimga.
Shu so'zni aytayin do'st-dildorimga,
Biling muhabbatda aslo gunoh yo'q.

Muhabbat azob deb undan tondilar,
Muhabbatga boshdan sirtmoq soldilar.
Qarang muhabbatdan qancha shod dillar,
Biling muhabbatda aslo gunoh yo‘q.

Chin sevgi, muhabbat azobli bo‘lmas,
Bo‘ronli kunlarga, yovga tutqunmas,
Dunyoni kezar u, bir on turg‘unmas,
Biling muhabbatda aslo gunoh yo‘q.

SINFDOSH QIZ

O‘sha onlar yodimda
Sen men uchun sirdosh qiz,
Bugun esa qalbimda
Bir umrga o‘chmas iz.

Sinforsch qiz dilingda,
Shoir uchun joy bormi?
Seni pinhon sevganman,
Bilmam qalbim aybdormi?

Tor ko‘chalik sinfdosh,
Ko‘changdek tor bu qalbing.
Senga borin aytaman
Chiroylisani shu aybing.

Mayli meni eslama,
Mayli men deb yig‘lama.
Birinchi muhabbatim
Sen armonim bo‘zlama.

TANHO OY

Tunda oyning yuzida,
Sening aksing ko'rardim.
Havas qilib oydan men,
Kelishini so'rardim.

Oydan xabar kelmasdi
U turardi jim sokin.
Tanholigin bilganday,
O'zi xon o'zi hokim.

Qani kel ey, oymomo,
Mening dardim bilsangchi.
Dildorim olislarda
Sevishimni aytsangchi.

TIL

Mir Alisher Navoiydan qolgan til,
Necha asr sayqalini olgan til.
Necha-necha g'ayri so'zlar dastidan
Qutqarmasak bo'lamiz yog'iy johil.

Bu so'zlar-ku o'zi bizga begona,
Asta-sekin yoyilmoqda jahona.
Yod so'zlardan qilajakmiz himoya,
Milliyligim aslidursan durdona.

Ona tilim, senga ta'zim senga shon,
Alisherdan barcha ogoh bu jahon.
Senda bari mo'jizalar mujassam
Umring mangu etaversin bardavom.



Rahmatullo Murodqulov 2008-yil 11-martda Samarqand viloyati Pasrdarg'om tumani Charxin mahallasida tug'ilgan. 2018-yilgacha tumandagi 53-umumta'lim maktabida tahsil olgan. Hozirda 28-IDUMI da o'qib kelmoqda. She'r va maqolalari "Past Darg'om haqiqati", "Istiqlol umidlari" kabi gazetalarda chop etilgan. "Jilg'a" nomli bayozga she'rlari kiritilgan. Samarqand yosh ijodkorlar Kengashi a'zosi.

AYOLNI

Bir kun bir she'r yozdim dildan chiqarib,
Ayolni inson de, inson de faqat.
Ayollar Allohning mo'jizasidir,
Ayoldir har nega qilguvchi toqat.

Ayolni xo'rlama, ozorlamagin,
Xudoning qahriga qolib ketarsan.
Ayolga mehr ber, sevgin, sevilgin,
Bu dunyo savobin olib ketarsan.

Ayolni o'zi-yu ko'ngli sarishta,
Qandayin musaffo, sofdir bu xayol.
Ayol misolidir nurli farishta,
Farishtadan a'llo aslida ayol.

ORZU

Ochiq osmon ostida,
Yulduzlarga boqaman.
Xayolim ummonida,
Goh suzib, goh oqaman.

Orzu qilar ekanman,
Faqat kutarman uni.
Amalga oshmaydi,
Oshmas har kuni.

Maqsadim aniqdir,
Toleyim butun,
Orzuga yetarman
Albat men bir kun.

ILHOM PARISI

Ilhomim parisi tunda uyg'otib,
Murg'ak vujudimda qilar g'alayon.
Uyg'otar, uxlama, deydi to'lg'anib,
Deydi she'r yozishing kerak ey, inson.

O'ylama dunyoning g'am-u tashvishin,
Faqat baxtli onlar bo'lsin yodingda.
Dangasalik qilib keltirma g'ashim,
Endi birgadirman har bir oningda.

TIRIK MURDA

Tirik murda soqov emas, kar emas,
Tirik murda falaj emas, ko'r emas.
Tirik murda o'z Vatanin sotgaydir,
Vijdonini botqoqlarga otgaydir.

Boylik deya ko'r qiladi ko'zini,
Mol-dunyo deb xor qiladi o'zini.
Tuprog'ini tavof qilmay past bo'lar,
Oxir dunyo azobida mast bo'lar.

CHOYXONADA

Choyxonada do'stlar bo'lib jam,
Ulfatlashib choyxo'rlik qilar.
Choyxonada qilamiz bayram,
Buni faqat chin do'stlar bilar.

MO'JIZA

Mo'jiza qidirdim butun dunyodan,
Ammo uchratmadim bitta mo'jiza.
Keyin bilib qoldim, o'zim bexosdan,
Aslida haqiqiy mo'jiza Ona.

OTA

Ich-ichidan yaxshi ko'rgan bolalarin,
Suygan, erkalagan qalbin tolalarin.
Xoris ham bolasini silar boshin,
Alloh o'zing ulug' qilgin otam yoshin.

Har ne qilar jigarbandi, farzandi-chun
Yelkalagan yiqlisam gar yuragi xun.
Luqmasini o'zi yemay bizga bergen,
Yutuqlarim onam uchun, otam uchun.

OLTIN VA VAQT

Bir boladan so'rар edi vaqt,
“Ey bola vaqt uchun beraman oltin,
Qoida bor albatta, faqat,
Lek vaqtingni bermayman qaytib”.

Rozi bo'ldi nodon, g'o'r bola,
Oldi butun dunyo oltinin.
Bola qarib, qildiku nola,
Sen vaqtimni bergin qaytarib.

Yolvordi u, vaqt qulog solmas,
Oltin bersa, qaytib olmas oltinin.
Uyg'ondi-yu shu payt nogahon,
Qadrlaydi endi u vaqtin.

ONAM

Bildim, do'stlar, oh bu fonyi dunyoda,
Ko'rdim har kun, har soatim, onimda.
Olam ichra mening yolg'iz hamxonam,
Bu mening mehribon, mo'tabar onam.

Jonidan jon bergan buyuk zot,
Gar ozor yetganda degan dod.
Shuncha ham fidoyi bo'larmi, hayhot,
Bu mening mehribon, mo'tabar onam.

BUVIJONIM

Aziz mening buvijonim,
Yaqinim, mehribonim.
Kulishingiz xohlayman,
Ishonchingiz oqlayman.

Gar qilsangiz tabassum,
Dunyo to'lar nurlarga.
Sizga qilurman tazim,
Kiring yuz-u minglarga.

* * *

Shaxmatdagi piyoda,
Ham zaif-u ziyoda.
Birlashsa o'zar bari,
Birlik omad xabari.

Axatqulov Mehroj Sehroj o'g'li 2008-yil 1-aprelda Samarqand viloyati Urgut tumani Kenagas mahallasida tug'ilgan. 2014-yilda Urgut tumanining XTBga qarashli 103-maktabni 1-sinfiga qabul qilinib, 2018-yilda boshlang'ich ta'limni a'lo baholarga bitirib, Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanidagi 28-IDUMIda tahsil olib kelmoqda. Samarqand yosh ijodkorlar Kengashi a'zosi.



O'ZBEKISTON

O'zbekiston jonajon o'ljam,
Bog'laring ham o'zingdek ko'rjam.
Quchog'ingdan ketsam men bir kun,
Uyqu kelmas ko'zimga shu tun.

Quchog'ingda unib o'sgayman,
Har doim men seni o'ylayman.
Men har dam qilib shukrona,
Qo'riqlayman seni mardona.

Ariq bo'yiy fayzli choyxona,
Tarixingda ko'pdir afsona.
Senday o'lka dunyoda yo'qdir,
Men uchun sen faqat yagona.

MEN ASKARMAN

Men askarman Vatanni
Qo‘riqlayman tun-u kun.
Yuragimni beraman,
Jonajon Vatan uchun.

Kindik qonim to‘kilgan
Shu yurtning tuprog‘iga.
Ba’zida xursand bo‘lib,
Sig‘mayman quchog‘iga.

Sabr bilan, kuch bilan
Qo‘riqlayman Vatanni.
Askar bo‘lib yetishdim
Tinch saqlay shu maskanni.

OQ KEMA

Moviy dengiz ustida,
Ko‘rinardi bir yelkan.
Qalqib dengiz ustida,
U suzib yurar ekan.

Quyosh botdi, tun kirdi
Topilmasdi ammo yo‘l.
Oylar-u yil o‘tsada
Yetolmasdi, o‘ng-u so‘l.

ODOB

Odob oltindan qimmat,
Bilib qo'ying bolalar.
Odob go'yo noz-ne'mat,
Mitti qizil lolalar.

Bolalar bo'lsa yaxshi,
Odobi undan yaxshi.
Tanbeh berib ustozlar,
Balolarga dars berar.

Odob oltindan qimmat,
Bilib qo'ying bolalar.
Odob go'yo noz-ne'mat,
Eng buyuk ulug' hikmat.

SHAXMAT TA'RIFI

Shay turar otlar har dam,
Sakraydilar dam-badam.
Ruhlar yurar to'g'rida,
Go'yo o'xshar bo'rige.

Shay turar fillar har dam,
Jangga kirsa yomon ham.
Farzin zo'rlarning zo'ri,
Shohimizning o'ng qo'li.

BAHOR

Bahor kelsa olamga,
Yalla aytamiz birga.
Hamma doim sho'x-shodon,
Oftob nur sochar har yon.

Gullar unar bahorda,
Hamma turar nahorda.
Barcha gullar ochilar
Olamga nur sochilar.

Bahor kelar olamga,
Quyosh chiqar osmonga.
Kayfiyat zo'r hammada,
Barcha shodon davrada.

Olg'a tashlaymiz qadam,
Bizlar bardammiz, bardam.
Bahor kelsa olamga,
Yalla aytamiz birga.

SHUMI DO'STLIK

Quvonchli kun yonda turib,
Pul bor paytda yonda turib.
G'amgin kunda pichoq urib,
Sening uchun shumi do'stlik?

Necha-necha do'stlar aro,
Mendan foyda ko'zlabmi yo.
Nahot qilding qalbim yaro,
Sening uchun shumi do'stlik?

Sen bir paytlar do'stim eding,
Meni yaxshi do'stim derding.
Sen men uchun dushman erding,
Sening uchun shumi do'stlik?



Moxipar Baratova 2002-yil 13-martda Samarqand viloyati Oqdaryo tumanida tavallud topgan. Hozirda tumandagi 47-umumta'lim mакtabida tаhsil olib kelmoqda. 2017-yil "Bahor quyoshi" nomli ilk kitobi nashr etilgan. Samarqand yosh ijodkorlar Kengashi a'zosi.

DENGLAR

O'ldi denglar, ko'milmayin o'ldi denglar!
Kuzni kutib, bahordayin kuldil denglar.
Foniy dunyo uning ko'nglin g'ashlatmanglar,
Meni o'ylab uning ko'zin yoshlatmanglar.

O'ldi denglar, she'rlarini quchib, quchib,
Vidoni zor kutganlarga bo'ldi denglar.
Ginalaring, g'uborlaring so'ldi denglar,
Suyganlarga doim tirik yashar denglar!

Yaxshilar yana shunday denglarki ulga,
Sog'insangiz kuz bag'riga boring denglar!
U kuzni suyardi, xazonida yashar denglar,
Yomg'irlari achchiq-achchiq ko'z yosh denglar.

Zero hali o'lim bilan hisobimiz bor!
Foniy dunyolarda bo'lmanan hisob.
Men o'lsam ham yodim o'lmasin tilak,
Sen ruhimni doim tirik tut falak.

IYMON YO'L

Biz yurgan, yo'llar olisdir,
Olis bo'lar ko'zlagan manzil.
Niyatimiz sof va xolisdir,
Kulsak demang aytib bu hazil.

Bizning yo'ldan o'zga yurolmas!
Mashaqqatli va juda azoblidir u.
Har kimning ham bardoshi yetmas,
Insoniylik yo'lidir, iymon yo'li u.

Qo'limiz egrimas, to'g'ri so'zimiz,
Yuragimiz haloldir, pok istagimiz.
Tilaklar sofdir, xayollar oppoq,
Nurlarga timsoldir kelajagimiz.

Vatanga sadoqat oqilar yo'li,
Odillarning iymon yo'lidir.
Diyonatning shafqat bu yo'li,
Mashaqqatli muzaffar yo'ldir!

POSBON

Qadamim sanog'in sanasam agar,
Sabrimga ham bir qadam qoldi.
Chegarada hech zot yo'q agar,
Bo'lsa aiting posbon qo'yishin.

Mudom undan o'tib ketmayin,
Yuragimning qaltis chegarasini.
Taqdirlarga zid buzib o'tmayin,
Garchi qonunlar bunda ustuvor.

O'sha muhabbatning qonuni yana,
Mudom yana dil ham o'rtada halak.
Qalblarni ojiz bir tuyg'uda yana,
Garov qilib tilishgan yurak va falak.

* * *

Nyuton aytgan o'sha qonunlar,
Muhabbatga hech amal qilmaydi.
Asl vido qachon bilmas yuraklar,
Yoningda jilmayib xayr aytadi.

Rozi-rizoligin so'rab dillardan,
Muhabbatning umriga xazon aytadi.

ZULMAT KUN UCHUNDIR!

Olloh visol-chun bardosh yitmadi,
Taqdir sog'inchga davo nasib etmadi.
Vidoni biz uchun ravo etdi-yu ammo,
Ul ko'ngillar uchun baxtni bitmadi.

Uchmoqqa shaylandim go'yo qaqnusdek,
Orzu qushi bo'lmoqchi edim, bo'ldim afsusdek.
Firoq o'ti dilni xanjarga bog'lamoq istar,
Xayoldagi hayot yonar go'yo afsundek.

Visol endilikda olisdir va juda uzoq,
Shafaq kipriklariningda turadi biroq.
Xayol ham olis ketgan anglayolmaysan,
Ilgari zulmat hayotingda bo'lgandi mayoq.

Hozir hatto uning ham sabri yetmadi,
Zulmatga nur bo'lmoqlikka rozi bo'lindi.

Ketdi olis nurlar ichra nurli bo'lmoqqa,
Tilak ham endi uni ortiq kutmadi.

Zulmat ketar kun kelmoq uchun,
Quyosh esa ketar oy kelmoq uchun.
Men ketaman qaytmog'im borligi uchun,
Sen esa kelasan dunyoda borligim uchun.

ISHQNING MAYI...

Ishqning mayin quy deydi osmon,
Yana mayin yog'adi yomg'ir.
Yana o'sha tuyg'uda hamon,
Ko'zyoshlar mangu yonadi og'ir.

Og'ir tuyuladi hatto kulgular,
Gohi alplar tog'i bosib qolgandek.
Sanaging kelmas hatto qadamlar,
Hatto yo'llar ham unut bo'lgandek.

Undan vafosizlar yura olmasdi,
So'qmoq qani o'sha tor ko'cha.
Bevafo so'qmoqdan o'taolmasdi,
Go'zal dildor nomin unutgan kecha.

Ishqning mayin quy deydi osmon,
Yana mayin yog'adi yomg'ir.
Stoldachi turadi qaynoq bir qahva,
Gohi u ham yurakka bo'ladi og'ir.

Qo'llar bo'shamaydi xayol umuman,
Qora qahvaning hidi keladi xolos.
Xayolgachi tushadi quyuq bir tuman,
Undan halos bo'lmoqlik mushkul ehtimol.

Turaman qo'limda tutgancha qalam,
Go'yo xayol voqelikdan olis ketmoqda.
Qahvachi meni ko'rib yutadi alam,
Ul mening bo'samga intiq, intiq kutmoqda.

Mening esa xayolim o'zga tomonda
O'zga dunyo haqidadir bu o'ylar.
Yana ko'zim tushar qahva tomonga,
Kim o'ylar meni shu qahvachalik.

Oradan soat o'tdi, fursat va soniya,
U esa intiq nigoh birla kutar hamona.
Kutadi menga vaqtin qilib hadiya,
Men esa o'z xayolim ila hamona.

SEN UMRIM CHECHAGI!

Sen umrim chechagi,
Ko'nglim armoni.
Yuragim shodligi,
Mehrim quvonchi.

Sensan xayol o'tinchi,
Sevgim g'unchasi.
Muhabbatning sog'inchi,
Dilning kuychisi.

Sensan osmondek armonni,
Go'yo ro'yo etaolgan.
Sensan hatto ko'zyoshimni,
Butkul xazon etaolgan.

Lek nur hali olisda,
Xayol juda uzoqda.
Uni topolmaysan,
Ufq botgan joyda.

Sensan yagona o'zing,
Yuragimga qadalgan.
O'shal birgina so'zing,
Sensan boqiylikka atalgan.

Mehring ham, sehring ham,
Ko'nglimdagı o'ning ham.
Hatto boqiy sevgim ham
Sensan armonim ey yor!

Sen umrim chechagi,
Ko'nglim armoni.
Yuragim shodligi,
Mehrim quvonchi!



Umarova Shahrizoda Arslonbek qizi 2006-yil 8-yanvar kuni Samarqand viloyati Payariq tumani Chelak shahrida tug'ilgan. 68-umumiyl o'rta ta'lim maktabining 8-sinfida ta'lim olmoqda. She'rlari gazeta va jurnallarda chop etilgan. Samarqand yosh ijodkorlar Kengashi a'zosi.

AYOL

Oy boqar beshikning pardasin ochib,
Chaqaloq ko'zida sehrli orom.
Uyquga ketadi chunki beshikni,
Tebratar allalab butun bir olam.

Bu olam mehrini shoh yoki gado
Ming o'ylab oxirin topa olmaydi.
Beshikni tebratgan shu oyning sirin,
Eng mohir shoir ham yoza olmaydi.

U quyosh taftida muzlar eruvchi,
U qalqon bag'rida toshlar sinuvchi.
U osmon goh oftob, gohi bulutli,
U hayot joningga doim qo'riqchi.

Dardiga sherikdir aytgan allasi,
Kerakmas asrlar yo bahor fasli.
Beshikning ichida uxlagan nihol,
U uchun boylikdir saroydir asli.

Allasi Navoiy quloqlarida,
Yangragan navodir, titragan sado.
Ulug'bek oromga ketgan pallada,
Koinot, yulduzlar aylagan nido.

Biz uchun bo'lsa ham butun bir olam,
Hayotdan topgani shunchaki xayol.
Ta'rifin yetmoqqa yetmaydi qalam,
Bularning barchasi shunchaki "Ayol".

"RO'MOLIM BOR"

Erkadurman, balki andi,
Baxtdan qurban orolim bor.
Men dunyoning eng go'zali,
Chunki boshda ro'molim bor.

Har iffatim, g'ururim shu,
Ham izzatim, hurmatim shu.
Hech kimda yo'q lazzatim shu,
Boshimda toj ro'molim bor.

"Milliy qizning ori", — derdim,
Bir umrga yori derdim.
"O'zbekman" deb ko'krak kerdim,
Chunki boshda ro'molim bor.

Ko'rishganda bir qarashar
Havas bilan ko'ρ qarashar.
Boshginamga xo'ρ yarashar,
Yaxshiyamki ro'molim bor.

Erkadurman, balki andi,
Baxtdan qurban orolim bor.
Men dunyoning eng go'zali,
Chunki boshda ro'molim bor.

«ARMONLI SUHBAT»

Hamid Olimjon:

Men kuylarman bir kun bulbul nazmida,
So'zlarining nayga solib to'ymayman.
Men yashayman jiydalarning gulida,
Shamol bo'lib sochlaringni o'ynayman.
Zulfiya:

Ko'zlarimga tor qildingiz dunyoni,
Satrlarga to'kilmoxda alamlar.
Endi menga yor qildingiz dunyoni,
Men yengildim yozmas endi qalamlar.

Hamid Olimjon:

Sen yashaysan dunyolarni to'ldirib,
Farzandlarim ko'zlaridan boqaman.
Sen yengilma, shijoating o'ldirib,
Men ko'ksingda daryo bo'lib oqaman.

Zulfiya:

Endi sizsiz bahorlarni kutmayman,
Kerak emas menga jiyda gullari.
Sevgi degan sharoblarni yutmayman,
Qolar endi she'rلаримнинг куллари.

Hamid Olimjon:

Senla bo'lish menga qilmabdi nasib,
Men bo'g'ildim shu hayotning dorida.
Sen silagin nihollarim boshini,
So'nggi kunim bo'lsin faqat xotira.
Endi meni oq libosda xayol qil,
Chin hayotim aylanmasin ro'yiga.
Yo'qotsam-da, topganlarim bor-ku deb,
Sadoqating madh aylagin dunyoga.

«Onamga so'zim»

Mayli uyimizni qoplasin tutin,
Qalbimda qolmasin armonli tugun.
Onajon tandirni qiziting bugun,
Siz yopgan shirmoyni yegim keldi-da!
Aslida, so'zingiz shirmoydan shirin,
Ayting o'rganaylik bu xislat sirin.
Bilaman, dunyoda sizga ham qiyin,
Sizga baxtli umrim bergim keldida!
Dunyoda otasiz onasiz qancha.
Ularning qadriga yetmaslar ancha,
Ko'rsinlar, eshitsinlar, bilsinlar barcha,
“Onam bor!!!” — deb ko'ksim kergim keldida!

“Uch qizga”

Yonimda, boshimda parvona har kun,
Dard cheksam, qiyalsam hayrona har kun.
“Otam” deb so'raydi, kelmasam bir kun,
Quyoshdek charaqlang oy, yulduzlarim,
Baxtimga sog' bo'ling uchta qizlarim.
Siz borsiz qaddimni egolmas g'anim,
Siz borsiz ustimdan kulmas dushmanim.
Sizlarsiz jahonim, hayotim, manim.
Hech qachon qoraymang qosh-u ko'zlarim,
Baxtimga sog' bo'ling uchta qizlarim.
Ba'zilar “o'g'il!!!” deb o'g'ildan kuydi,
Bundaylar otaning boshini yeydi.
Uch qizni asragan
“Jannat” deydi,
Jannatdek ochiling yorug' yuzlarim,
Baxtimga sog' bo'ling uchta qizlarim.
Allohga shukurkim farzandlarim bor,
Ular bor ko'ksimda ochilar bahor.

Hayotda birovlar tirnoqqa ham zor,
Tirnoqqa zor bo‘lmang, shirin so‘zlarim,
Baxtimga bor bo‘ling uchta qizlarim.
Bir kuni chiqarsiz olis bir yo‘lga,
Baxtingiz o‘xshasin bahorga, gulga.
Sizlarni alishmam mingta o‘g‘ilga,
O‘g‘ildan kami yo‘q yorug‘ izlarim,
Ilohim, bor bo‘ling Uchta qizlarim.

Armonli so‘zlar
Salom ota, bag‘rimdagи quyoshim,
Bilmayman-u sizni ko‘rgim kelyapti.
Tunlar aslo ko‘zlarimda uyqu yo‘q,
Yoningizga chopib borgim kelyapti.
Onam aytar sen otangga o‘xshagan,
Sarguzashtla dunyolarni kezasan.
Men ko‘rmagan makonlarni sayr etib,
Otang kabi sayohatchi bo‘lasan.
Tushlarimda go‘yo sizni ko‘raman,
Bag‘ringizga bir otilgim keladi.
Onam aytgan o‘shal mo‘jaz dunyoni,
Ko‘rmagansiz buni hamma biladi.
Suratingiz hali hamon qo‘limda,
Libosingiz o‘zingizga yarashgan.
Aldashsa ham hammasini bilaman,
Ko‘ksingizga askar deya yozishgan.
Men angladim sizdagи shijoatni,
Sizdek ota bu dunyoda aslo yo‘q.
Yurtimdagи shu tinchlikka sababchi,
Ko‘ksingizni teshib o‘tgan o‘sha o‘q!

Allayarova Zebo A'zam qizi 2008-yil 25-dekabrda Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani "Istiqlol" mahallasida tavallud topgan. Hozirda tumandagi 15-umumta'lim maktabining 5-sinfida tahsil olmoqda.



BESH TASHABBUS

Besh tashabbus — besh omad,
Kelajakka marhamat.
Ey, yosh avlod intilsang,
Yulduz bo'lasan albat.

Ma'naviyat quyoshi,
Bo'ling uning yo'ldoshi.
Intiling do'st-u tengdosh,
U hayotning qo'ldoshi.

YULDUZ

Osmondag'i son-sanoqsiz,
Yulduzlarga bir boqing.
Yuragimga yangi orzu,
Chechaklarini taqing.

MAKTAB

Yigirma ikki o'rtoq,
Juda ahil, inoqmiz.
Sinfdoshmiz, chin sirdosh,
Ko'ngli toza, quvnoqmiz.

Erta kelajak tomon,
Albatta yo'l olamiz.
Buyuk maqsadlar bilan,
Doim birga qolamiz.

XOTIRA

Obod Vatan bag'rida,
Umid guli so'lmaydi.
Tinchlik-chun kurashganlar,
Mangu yoddan o'lmaydi.

TABIAT

Tabiat go'zalliging,
Juda yaxshi ko'raman.
Toza havo tuyay deb,
Erta tongda turaman.

Oh, go'zal erur tonglar,
Shukrona bor tilimda.
Yashashga kuch uyg'otar,
Hislar mening dilimda.

ONA TILIM

Ona tilim — boyligim,
So'zlar tuzaman qator.
Mazmun berar, umrimga,
Har so'zida sehr bor.

Tafakkur durdonasi,
Navoiy bobom so'zi.
Toabad gullagaydir,
U mullatim ko'zgusi.

Narzullayev Ilhomjon Shuhratilla o‘g‘li 1997-yil 7-martda Samarqand viloyati Naripay tumani Ko‘k ota qishlog‘ida tug‘ilgan. 2013—2016-yillarda Samarqand harbiy akademik litseyida (Temurbeklar maktabi) tahsil olgan. Hozirda N.Ye.Jukovskiy va Yu.A.Gagarin nomidagi Voronej Harbiy Havo akademiyasining 3-kurs kursanti.

"Qalbim gavhari" (2016) va "Ona allasi" (2017) nomli she‘riy to‘plamlar muallifi.



BOLALIGIM

Xursand bo‘lib, lekin tezda yig‘lagan kun,
Armonlar-u qayg‘ularni bilmagan kun,
Xotirasi bugun bag‘rim tig‘lagan kun,
Yana bir bor eshitsaydim ertaklaring,
Bolaligim, bo‘lar edim ermaklaring.

Onam kunda qadab qo‘ygan ko‘zmunchog‘im,
Yig‘laganda yupatgan ul ovunchog‘im,
Bo‘lmasa ham mayli garchi o‘yinchog‘im,
Yana bir bor eshitsaydim ertaklaring,
Bolaligim, bo‘lar edim ermaklaring.

Qo‘yar edim erkaligim chetga surib,
Osmonlarda uchmas edim yerda yurib,
Ulg‘ayishning g‘avg‘olarin bilmay turib,
Yana bir bor eshitsaydim ertaklaring,
Bolaligim, bo‘lar edim ermaklaring.

“KECHA VA KUNDUZ”NI O‘QIB

Yaqinroq kel, so‘zlarim tingla,
Fikrlarim aytaman do‘stim.
Kechalarni oysiz qoldirgan,
Cho‘lpondan men xafaman do‘stim.

Nega desang, qorong‘u kecha,
Qolib ketgan malomatlarga.
Charx aylangan butun Yer yuzi,
To‘lib ketgan xiyonatlarga.

Yana o‘ylab qolaman, balki,
Cho‘lpon mehr yuzin ko‘rmagan.
Bolaliksiz qolgan Zebiga,
Shu sababli rahm qilmagan.

O‘zimni men aldayman yana,
Lek Cho‘lponni koyiyveraman.
Balki hayot shundaymi deya,
Dunyolardan soviyveraman.

Balki “kunduz” timsolida u,
Bor dardini qilgandir oshkor.
Yana qanday siri bor, deya,
“Kecha” sini o‘qiymen takror.

Ne qilmayin, bari haqiqat,
Bari o‘tmish dalolatidir.
Insonlardan bezgan dunyoning,
Aytolmagan malomatidir.

AYOLLAR

Onalik baxtini tuyib va yana,
Farzandlar baxtini ko'rsin ayollar.
Bu nafis bog' aro eng nozik xilqat,
Dunyo turgunicha tursin ayollar.

Qalbida bebahoh mehr mujassam,
Bir parcha allada sehr mujassam.
Yuragin hech qachon bosmay turib g'am,
"Eng baxtli o'zimman" desin ayollar.

Omonat umrni baxt ichra yashab,
Kundan-kun yosharsin bahordek yashnab.
Va endi ochilgan g'unchaga o'xshab,
Bahorni yanada sevsin ayollar.

Eng nafis tuyg'uni so'zda kashf etib,
Olamning chiroyin yuzda kashf etib.
Dillarga bir ajib quvonch baxsh etib,
Dunyoni to'ldirib kulsin ayollar.

Har biri joy tanlab jannat bog'idan,
Duoga qo'l ochsin sahar chog'idan.
Ollohga hamd aytib baxt-iqbolidan,
Hojilik libosin kiysin ayollar.

TUNGI MANZARA

Samolarni kezib tunlari,
Yulduz shoshar Oyning yoniga.
Tinchin buzib ko'kda osmonning,
Gap otadi suxandoniga.

Oy ham xuddi uyg'ongandek jim,
Yog'du bilan ochar ko'zini.
So'ng yulduzni qilmoqchidek lol,
Zamin tomon burar yuzini.

Hikoyachi singari yog'du,
So'zlab borar Yerning holidan.
Yerda esa minglab oshiqlar,
Sarxush yurar baxt-iqbolidan.

Har tarafda juftliklar bisyor,
Bir-biriga tutash bilaklar.
Shirin-shirin xayollar surib,
Baxtga maftun bo'lar yuraklar.

Lek ba'zida iymanib yog'du,
Gunohkordek egar boshini.
Bu holatga javoban yulduz,
Chimiradi, ikki qoshini.

Ha, shundayin ajibdir sevgi,
Balki unda bor alam, g'ussa.
Balki uning davosi deya,
Oy oldida olinar bo'sa...

INSON KO'NGLI

Inson ko'ngli misol emas
Yo noma'lum tenglama,
Aql bilan u "tugun" ni
Yechaman, deb o'ylama!

Noma'lumlik yo'q emas,
Yolg'iz o'zga ayondir,
Bilki qancha nozik bo'lsa
Ahvoling voy yomondir.

Mantiq bilan o'ylasang ham,
Mushkul yo'lin topishing,
Kerak balki o'zingni ham
Mavhumlikka otishing.

Tabiiyki bor odamda
Yurak degan organi.
Lekin ko'ngil desa tabib,
Qo'rqr yaqin borgani.

Xullas ular bir xil, deb
Ikkisini tenglama,
Yuragingda tabiiylik bor,
Ko'nglingdachi tenglama!



Sevinch Nurmanova Samarqand viloyati Past Darg'om tumanida tug'ilgan. Past Darg'om tumani "Barkamol avlod" bolalar maktabi qoshida tashkil etilgan "Yosh jurnalist va notiq" to'garagining faol a'zosi. Tumandagi 1-maktab o'quvchisi.

BAHOR

Kirib kelgin bahoroy,
Gullar sochib yo'limga.
Navolarni albatta,
Yangratib kel umrimga.

Bulbullarni sayratib,
Ko'ngillarni yayratib.
Muattar bo'y taratib,
Bahor kelgin yurtimga.

ZULFIYANING QIZLARI

So'zлari xo'p ham sirli,
O'zлari bir mehrli.
She'r yozadi huzurli,
Zulfiyaning qizlari.

Havas qilar ularga,
Yulduzli oy, tunlarga.
Dil bermas ham unlarga,
Zulfiyaning qizlari.

Qiz bolaga yarashar,
Uvaysiyga o'xshatar.
Yurtga oftob taratar,
Zulfiyaning qizlari.

BAXTINGIZ BO'LIB QOLAMAN

Cheksha ham bildirmaydi g‘amini,
To‘ldiradi oilaning kamini.
Baxtin ko‘rib yashaydi farzandini,
Ota, baxtimizni ko‘rib yuring siz.

Otajon, og‘irdir mehnatlaringiz,
Oqlab yuzingizni yorug‘ qilaman.
Baxt-u iqbolingiz kunlari haqqi,
Faqat oq yuzingiz bo‘lib qolaman.

BUVIJON

Tunlari erkalab boqqanim,
Men uchun hammadan yoqqanim.
Ko‘ksiga orzular taqqanim,
Yodga soldim sizni buvijon.

Dunyoda quvonchim, siz baxtim,
Suyangan tog‘im-u ham ahdim.
O‘rgatdingiz menga hayotning shaxdin,
Yodga soldim sizni buvijon.

Qildingiz gohida nasihat,
Ishonchiz oqlayman men albat.
Siz bergen umrimga farog‘at,
Yodga oldim sizni buvijon.

OTA-ONAM

Biringiz oyimsiz, biringiz quyosh,
 Mo'tabar, mushfiqim, ham jasur otam.
 Lola-gulim deysiz doim bizlarni,
 Siz borsiz shu bois go'zal bu olam.

Yuzlardan ham o'tsin aziz yoshingiz,
 Ko'rib yuray sizni har kun baxtingiz.
 Mehnatkash mehribon ey, azizlarim,
 Oqlikka, poklikka to'lsin shaxdingiz.

DO'STGA MEHRING

Ishonchingni oqlay olmasa,
 Sirlaringni gar yashirmasa.
 Gar g'am cheksam, bag'rin tilmasa,
 Do'stga mehring yo'qolar ekan.

Ortingdan gar yolg'on so'zlasa,
 Faqat yomonlikni ko'zlasa.
 Har ishingdan bir "kir" izlasa,
 Do'stga mehring yo'qolar ekan.

ONALAR

Onalar dunyoda bor bo'lsin illo,
 Yuzlari quvonchdan porlasin har on.
 Farzandim, dilbandim deydi onalar,
 Onalar mehrila tirikdir jahon.

Ular bilan mudom hayot charog'on,
 Mazmunli hayoting, go'zal bu olam.
 Ularning mehriga yuraklar to'lsin,
 Onalar yuzida tabassum kulsin.



Qipchoqova Gulzira Muxtor qizi 2006-yil 20-oktabrda Samarqand viloyati Past Darg'om tumani Boldir mahallasida tavallud topgan. Hozirda tumandagi 5-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi.

ONAJON

Mehrini bizga eltgan,
Qalbida dardin tutgan.
Biz deb o'zni unutgan,
Mo'tabar insonim,
Azizim onajonim.

ORZULARIM

Chalkashadi o'ylarim,
Uzoqdamli o'ylarim.
Moviy osmon ostida,
She'r bitadi qo'llarim.

SINOV

Hayot ekan bu sinov,
Unda bor oq-qorasasi.
Unda tuyg'u dushman, yov,
Halollikdir chorasi.

Dunyo bo'lsin uyingiz,
Quringiz savoblardan.
Mudom chalgan kuyingiz,
Gullasin tavoflardan.

Dilga bering erkinlik,
Tanisin bu dunyoni.
Tan olsin baxtni bergan,
Yaratganim — Xudoni.

GULLAR

Erta tong, kun yorishgan,
Gullar ochar chiroyin.
Ziyolardan yorishgan,
Go'zal qiladi joyin.

Qizil, pushti, to'q sariq,
Gullar chiroyga to'lgan.
Shu gullar sabab umrim,
Ajib iforli bo'lgan.

QUYOSH

Nur sochadi dunyoga,
Yoritadi hayotim.
Zulmatni etib tor-mor,
Gullatar har bayotim.

Ziyo soching siz ham ey,
Yaxshi inson qalblarga,
Baxtli inson bo'lingda
Quyosh bo'lib dillarga.

Nurxon Xidirova Samarqand viloyati Juvosxona mahallasida tavallud topgan. Sharof Rashidov nomli 14- maktabda ilk savodini chiqargan. Maktabni tamomlagach PQXMQI VA SERVIS KASB HUNAR KOLLEJining tikuvchilik fakultetida tahsil olgan.

Hozirda shu kasb boyicha ish olib bormoqda.

I lk sheri " Oq bulut" Payariq hayoti nomli gazetasida chop etilgan.



BAHOR

Bahorni o'xshatdim mushfiq onaga,
Avaylab asraydi boychechaklarni.
Tuproqlar ostidan bosh ko'targanda,
Erkalab silaydi, moychechaklarni.

Daraxtlarga hayot beradi o'zi,
Kurtaklarni quchib ochiradi u.
Hali lolalarning ochilmay ko'zi,
Baxmal vodiylarg'a bo'ladi ko'zgu.

Sochlaring ulashar majnuntollarga,
Soylarning bo'yida hayol suradi.
U ona bo'ladi qaldirg'ochlarga,
Polaponin kaftda tutib turadi.

Unga aziz erur har bitta yaproq,
O'zi o'stiradi navdalarini .
Birga qolmasada biz bilan uzoq,
Eslatar ming yillik xotiralarni.

ACHCHIQ QISMAT

Yarim tun mung'ayib siniq oynaga,
Kunu-tun termulib o'tirar ayol.
Bardosh bera olmay achchiq qismatga,
Alamli o'ksinib suradi hayol.

Badbaxt o'g'lini deb ezilar ko'ngil,
O'nbir oy bo'libdi qamalganiga.
Umri yetarmikin o'ylarmi o'g'il,
Olti yil berilgan qilmishlariga.

Qars etib yopilar xona eshigi,
Ko'zлari zorlanib termular ona.
Dod solib ingraydi yotgan beshigi,
Tinmayin tebrangan, bo'lib ovvora.


O'ylarmikin o'gil onani bir zum,
Hech bo'lmasa nazar tashlab o'tmishga.
Onaning oqargan sochlari uzun,
Kuyib o'tgan umr yoz ila qishda.

Yo'q bu adolatmas, sig'mas aqlga,
Bedor kechalarning mevasi shumi?
Ey Allox sabr ber yolg'iz onaga,
Yashashga o'rgatgin sen endi uni.

Yarim tun mung'ayib siniq oynaga,
Qon yig'lab termulib o'tirar ayol.
Yolgiz shu chidaydi hasratlariga,

VATAN NEDIR

Bilaman u nima qayerdan kelgan,
U quyosh nuridan tomgan bir tomchi.
Bolalar ko'zida porlagan quyosh,
Yosh-u keksalarning yakka suyanchi.









U uzoq tarixdan chinqirab o'tgan ,
Qonli ko'zyoshlarni ichiga yutib.
Eski bir maktubni bag'riga bosib,
G'ishtin devor bo'yab o'g'lini kutgan.

U otam aslida kuzda bahorda,
Dalada loy kechib g'alla sug'organ.
U o'tmish farzandi oyog'i yalang ,
Po'yezdning ortidan yig'lab yugurgan.

U mening Onamdek quchog'i issiq,
Shoyi ro'mollari hamon boshida.

BIR KUNI...

Men bir kun o'g'irlab hayolingizni,
Uzoq uzoqlarga olib ketaman .
Shamollar keltirar iforingizni ,
Men esa ortimga boqmay ketaman.

Ortimda qoladi ikki ko'zingiz,
Jovdirab termular qadamlarimga.
O'zingizga qolar dunyolarimgiz,
Ishonmagan mening muhabbatimga...

* * *

Baxt- osmondagi uchayotgan qush.
Orzu- hayollarda yashayotgan tush.
G'amlar - taqdirga yozilgan bitik.
Qayg'u - shu taqdirda bo'lган ko'rgulik.

Armon - adog'i yo'q to'xtamas daryo.
Sabr- g'amdan baxtga ulangan ko'pri.
Umid-xaqiqatga bog'langan dunyo.
Poklik- yomonlikdan asrovchi kiprik.

* * *

Qorong'u kechalar uxlamay bedor,
Beshigim boshida allalar aytgan.
Onamni bir umr baxtiyor ayla ,
Har-neni yaratgan ey qodir egam...

HAYOT

Hayot yiqitmaydi o'rgatar faqat,
Yiqilganda qanday turib yurmoqni.
Allohga ishongan qiladi toqat
Bosib o'ta olar harbir so'qmoqni.

Hayot yig'latmaydi istamas buni,
Zero ko'p to'kilgan ko'zda yoshingiz.
Taqdir yo'llarida charxlayotgandir,
Balki sinab ko'rар sabr bardoshingiz.

Hayot o'ynamaydi tuyg'ularingiz,
To'g'ri qiynalarsiz uning yo'lida.
Nimani yo'llasa kulib qarshilang,
Chunki taqdiringiz hayot qo'lida

ASKAR O'GLON

Dunyoda bormikin mard jasur sizdek?,
Yurtini asrovchi jonu tanidek.
Sizlar bor, osuda hayot farovon,
Askarlik libosi yarashgan o'g'lon.

Sizlar bor chamandir yurtning xaryog‘i,
Sizlar vatanimiz suyangan tog‘i.
Sizlar bor tillodir zarra tuprog‘i,
Askarlik libosi yarashgan o‘g‘lon.

Sizlar Jaloliddin Amir Temursiz .
Onalar qalbida buyuk g‘urursiz.
Siz vatan nomini jondeb bilursiz,
Askarlik libosi yarashgan o‘g‘lon.

Himoya qilasiz yurtni tunu kun,
Bor bo‘ling baxtimiz siz bilan butun.
Muborak bo‘lsin bayramiz bugun,
Askarlik libosi yarashgan o‘g‘lon.

VATAN

Beshigim boshida mitti ko‘zmunchoq,
Beshikning taxtidan boshlanar vatan .
Saharda non yopgan maning onamning,
Issiq tandiridan boshlanar vatan.

Tongda dalalarda ishni boshlagan,
Otaming qo‘lidan boshlanar vatan.
Akam ketishidan oldin tishlagan ,
Non ila patirdan boshlanar vatan.

Opamning qo‘lida yaralayotgan ,
Kashta gullaridan boshlanar vatan.
Singlimning qo‘lida mitti qo‘g‘irchoq,
Shirin kalomidan boshlanar vatan.

Ukamning qo'lida qilyotgan parvoz,
Uzilib koinot sari yo'l olgan .
Yer yuzin aylanib ming mashaqqatda,
Po'lat qanotlarga aylanib qaytgan.

Vatan yurakdadir, vatan tilakda,
Vatan ostonadan boshlanar asli.
Bahorda daraxtlar ochgan kurtaklar,
Vatan chaman bog'dan boshlanar asli.

" ONAMDAN MAKTUB"

Salom qizalog'im ko'zimning nuri,
Tunda yaxshi tushlar ko'rdingmi?
Tongi sabolardan salom yo'lladim,
Saharda salomim kutib oldingmi?.

Men sezdim, yarimtun bolishing uzra,
O'tirardi mitti farishtachalar.
Termulishib oydin yuzinga,
Qoshlaringa qo'ydi o'smalar.

So'ngra yozib savoblariningni,
Joyladilar oq daftariga.
Yuzingdagi kulgularingni
Tushurdilar zarlavhalarga.

O'ynab kulib so'ng atrofingda,
Senga mingbor rahmat aytishdi.
O'pib qo'yib yanoqlaringdan,
Derazangdan uchib ketishdi.

Bolaginam qayda bo'lsang ham,
Yuzlaringdan nur yog'ib tursin.
Kechalari shirin tushlarko'r,
Tonglaring ham xayrli bo'lsin...

MUNDARIJA

Yosh ijodkorlarga.....	3
Iste'dodli yoshlар ko'payayotganidan quvonaman	6
Shodmonqulov Abbas Asad o'g'li	8
Yoqubjonov Sayidalixon Umidjon o'g'li	11
Nida Muhammed (Xusnidaxon Muhammadjonova)	18
Maftuna Ismatova	25
Yulduz Abdusamad qizi	31
Toshquvvatova Oydin Said qizi	40
Eshpo'latova Mohira O'tkirjon qizi	50
Jovliyeva Dildora Orol qizi ..	69
Qobilova Marjona Karimjon qizi	76
Zayniddinov Muhiddin.....	82
Tursunova Muhsina Abdunabi qizi	87
Usarov Tohir Suyunjon o'g'li	90
Bekqulova Gulshoda	
Salohiddin qizi.....	92
Norqobilova Nilufar G'ofur qizi	101
Axmedova Rayxona.....	106
Muhammatov Umidjon.....	109
Ismoilova Ruxshona	116
Yo'ldosheva Dildora Sunnatulla qizi	120
Odiljon Rashidov.....	126
Murodqulov Rahmatullo	132
Axatqulov Mehroj Sehroj o'g'li	137
Moxipar Baratova	142
Umarova Shahrizoda Arslonbek qizi	148
Allayarova Zebo A'zam qizi	153
Narzullayev Ilhomjon Shuhratilla o'g'li	155
Nurmanova Sevinch.....	160
Qipchoqova Gulzira	
Muxtor qizi.....	163
Xidirova Nurxon.....	165

Adabiy-badiiy nashr

Ilk qadam


Almanax

"TURON-IQBOL" nashriyoti

Muharrir	<i>S. Alimboyeva</i>
Musahhih	<i>S. Abdunabiyeva</i>
Texnik muharrir	<i>A. Yuldasheva</i>
Sahifalovchi	<i>A. Muhammadiyev</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 223, 16.11.2012 y.
Bosishga 07.09.2020 da ruxsat etildi. Bichimi 84×108^{1/32}.
«Times» garniturasi. Ofset usulida bosildi.
Shartli b.t. 9,03. Nashr taboq 9,01. Adadi 400 nusxa.
40-raqamli buyurtma.

«TURON-MATBAA» MCHJ da chop etildi.
Toshkent sh., Olmazor tumani, Talabalar ko‘chasi, 2-uy.



Ilk qadam



ISBN 978-9943-14-702-7

A standard linear barcode representing the ISBN 978-9943-14-702-7. Below the barcode, the numbers "9 789943 147027" are printed.